

Xodjayev N.I., Bulayev Z.K

**DAVLAT SANITARIYA-  
EPIDEMIOLOGIYA XIZMATI  
MUSTAQILLIK YILLARIDA**



**Xodjayev N.I , Bulayev Z.K**

**DAVLAT SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIYA  
XIZMATI MUSTAQILLIK-YILLARIDA**

**SAMARQAND 2022**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH  
VAZIRLIGI**  
**SAMARQAND DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**  
**TURON FANLAR AKADYEMIYASI SAMARQAND**  
**MINTAQAVIY BO'LIMI**

**DAVLAT SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIYA  
XIZMATI MUSTAQILLIK-YILLARIDA**

**SAMARQAND 2022**

Xodjayev N.I, Bulayev Z.K, Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati mustaqillik-yillarida. Samarqand: «Turon nashriyot», 2022. 119 bet.

Mazkur monografiya mamlakatimizda istiqlol-yillarida sog‘liqni saqlash sohasida olib borilayotgan islohotlar, xususan, Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmatining rivojlanishi, uning shaklan va mazmunan qayta tashkillashtirishi, moddiy texnika negizining yanada yaxshilanishi, kadrlar tayyorlash va ularni diplomdan keyingi ta’limini tashkil etish kabi dolzarb vazifalarni amalga oshirilishi to‘g‘risidagi tarixiy va statistik ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi.

Kitobda XIX asr oxirlari va XX asr o‘rtalarigacha, O‘zbekiston Mustaqilligi-yillarida (1991-2016 y.y)gi islohotlar, shuningdek islohotlarning yangi davrida (2017-2021 y.y) gi sanitariya-epidemiologiya xizmatining ahvoli hamda uning bosqichma-bosqich rivojlanishi to‘g‘risidagi tahlillar keltirilgan.

Monografiya sog‘liqni saqlash tashkilotchilar,Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmatixodimlari, ijtimoiy gigiyena, mamlakatimiz tibbiyoti tarixi bilan qiziquvchilar, tibbiyot oliygohi talabalari va tinglovchilar uchun mo‘ljallangan.

### **Mas’ul muharrir:**

**Omon Mirtozayev**

Toshkent tibbiyot akademiyasi Epidemiologiya kafedrasи  
professori, t.f.d

### **Taqrizchilar:**

**Farxod Axmadjonov**

Turon Fanlar Akademiyasining vitse-Prezidenti, akademik

**Bahrom Tuxtarov**

SamDTI Tibbiy profilaktika, jamoat salomatligi va tibbiy biologiya fakulteti  
dekanı, t.f.d., dotsent

Samarqand Davlat tibbiyot institutining ilmiy kengashi (2021-yil 31 mart №8 son bayonнома) tomonidan chop etish uchun tavsiya qilingan.

Xodjayev N.I, Bulayev Z.K, 2022  
Samarqand Davlat tibbiyot instituti, 2022

## **MUNDARIJA**

|  |    |
|--|----|
| KIRISH.....  | 5  |
| 1-BOB. SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIYA XIZMATINING XIX ASR O'RTALARI VA XX ASR OXIRLARIDAGI HOLATI.....  | 8  |
| 1.1.Sanitariya-epidemiologiya muassasalarining XIX asr o'rtalari va XX asr boshlaridagi holati.....                                      | 8  |
| 1.2. Davlat sanitariya nazorati ikkinchi jahon urushi-yillarida.....   | 13 |
| 1.3. Sanitariya-epidemiologiya xizmatining urushdan keyingi-yillardagi ravnaqi.....  | 17 |
| 2-BOB. SANITARIYA-EPIDYEMIOLOGIYA XIZMATI MUSTAQILLIK-YILLARIDA.....   | 26 |
| 2.1. Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tizimida islohotlar.....  | 26 |
| 2.2. Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati yangi islohotlar davrida.  | 28 |
| 3-BOB. SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH.....   | 47 |
| 3.1.Mustaqillik-yillarida aholini sog'gom turmush tarzini shakllantirish   | 47 |
| 3.2. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti va sog'gom turmush tarzi.....  | 49 |
| 3.3. Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti talabiga binoan sog'gom ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy salomatlikni asrashtamoyillari..... | 52 |
| 3.4. «Salomatlik kodeksi».....   | 61 |
| 4-BOB. JAHON SOG'LIQNI SAQLASH TASHKILOTI VA ATROF-MUHIT.....  | 68 |
| 4.1. Atrof-muhit va salomatlik.....  | 68 |
| 4.2.Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish.....   | 71 |
| 4.3. 2017-2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish.....                | 76 |

|   |           |
|---|-----------|
| 4.4. 2017 — 2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida.....   | 77        |
| <b>5-BOB. BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI VA OROL DENGIZI.....</b>  | <b>81</b> |
| 5.1. Orol dengizi fojiasi.....  | 81        |
| 5.2. Orol dengizi muammosi.....   | 86        |
| 5.3. Orol dengizi taqdiri Bryusselda ko'rildi.....  | 88        |
| 5.4. Munosabatlarning yangi bosqichi.....   | 89        |
| 5.5. Shavkat Mirziyoyev: Tarixiy sessiya, tarixiy nutq va amaliy tashabbuslar.....  | 91        |
| 5.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonning Turkmanboshi shahrida bo'lib o'tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi ta'sischi davlatlar rahbarlari majlisidagi nutqi..... | 95        |
| 5.7. Abdulay Mar Diye Orol dengizi fojiasi haqida.....  | 99        |
| 5.8. Orol dengizingining qurigan tubi o'rmonzorga aylantiriladi.....  | 102       |
| 5.9. Orolni yo'qotish dahshatlari va misli ko'rilmagan saksovulzorlashtirish haqida.....  | 107       |
| Xulosa.....   | 111       |
| Foydalangan adabiyotlar.....  | 116       |

## KIRISH

Sanitariya-epidemiologiya xizmati muassasalarining asosiy vazifasi va maqsadi aholi orasida yuqumlikasalliklar paydo bo‘lishi va tarqalishining oldini olish, noinfekcion xastaliklarning profilaktikasi orqali nogironlik va o‘lim darajasini kamaytirib, aholining o‘rtacha umr davomiyligini uzaytirishdan iboratdir. Bunga sog‘lom turmush tarzini yaratish, aholi ongida jismoniy faollikni oshirish hamda, aholining tibbiy madaniyati va savod xonliginiyanada oshirishhisobigaerishiladi.

Ekologiya masalalari, kasalliklarning oldini olish, aholiga sog‘lom turmush va ishlab chiqarish sharoitini yaratish, atrof-muhitni sog‘lomlashtirish profilaktikaning asosiy va eng muhim masalalaridan hisoblanadi.

Profilaktika sog‘liqning saqlashning asosiy prinsipi sifatida, birinchi navbatda, yuqumli kasalliklarningommaviy ravishda tarqalishiga qarshi kurash sifatida namoyon bo‘ladi, keyin esa kasbiy kasalliklarning oldini olishga, sanoat korxonalarida ishlovchi ishchi-xizmatchilarni malakali tibbiy xizmat bilan ta’minlashga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Hozirgi kunda profilaktika davlat, jamiyat va tibbiy tadbirlar majmuini, ya’ni aholini qulay shart-sharoitlar bilan ta’minlashga, tibbiy xizmatlar bo‘yicha ehtiyojni to‘la qondirishga qaratilgan.

Davolash-profilaktika muassasalarining profilaktik faoliyati, asosan, aholi orasidagi kasalliklarni barvaqt aniqlash, profilaktik tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, dispanser nazoratiga olish, emlash, aholini tibbiy-gigiyenik jihatdan tarbiyalashga qaratilgan bo‘lmog‘i zarur.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati muassasalari aholining turmush sharoitini, mehnat, yashash, ovqatlanish, atrof-muhit holatini sog‘lomlashtirish bo‘yicha xalq xo‘jaligi ob’ektlarida sanitariya nazoratini olib borish orqali umumjamiyat profilaktikasi bilan shug‘ullanadi.

Bizning davlatimiz sog‘liqni saqlash sohasida asosiy o‘rinni egallahshi, aholi salomatligini saqlash va yaxshilash strategiyasining asosini tashkil etishini tushunamiz. Ushbu tadbirlarni ilmiy asosda tashkil qilishda “Epidemiologiya” va “Gigiyena” fanlarining roli katta.

Hozirgi davrda mamlakatimizda sanitariya-epidemiologiya xizmati organlarining faoliyatini takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish bo‘yicha muhim vazifalarni amalga oshirish lozim. Shu jumladan:

davlat sanitariya nazoratining samaradorligini oshirish;  
sohaning strukturaviy tizimi va boshqaruvin itakomillashtirish;  
soha faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlash;  
davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazining ish uslubi va shakllarini, xalq xo‘jaligi ob’ektlarida olib borilayotgan tashkiliy va nazorat ish uslublari samaradorligini oshirish;  
sanitariya-epidemiologik tadbirlarni rejalashtirish va ularni yanada muvofiqlashtirish;  
soha mutaxassislari faoliyatini baholashning yangi uslublarini ishlab chiqish va tatbiq etish.

Sanab o‘tilgan vazifalar davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati organlari faoliyatini hozirgi davrda qayta qurish bo‘yicha asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sanitariya-epidemiologiya muassasalarida aholi xotirjamligini ta’minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

atrof – muhitni sog‘lomlashirish, ovqatlanishni, mehnat, turmush, dam olish, ta’lim-tarbiya berish sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan qonunchilik, sanitariya holatini yaxshilash va epidemiyaga qarshi tashkiliy tadbirlar majmuini amalga oshirish asosida odamning salomatligini saqlash vamustahkamlash huquqlarini kafolatlaydi;

xalq xo‘jaligi ob’ektlari, texnologiya uskunalarini va asboblarini, transport vositalarini rivojlantirish, joylashtirish, loyihalash, qurish va ishga tushirish chog‘ida atrof-muhit omillari aholi salomatligiga zararli ta’sir ko‘rsatishini oldini olishga qaratilgan faoliyatining ustuvorligini ta’minlash; aholining sanitariya madaniyati darajasini oshirish;

sanitariya holatini yaxshilash va epidemiyaga qarshi tadbirlarni ishlab;

chiqish va ijtimoiy faoliyatning majburiy qismi sifatida amalga oshirish;

mulkchilik shaklidan qat’iy nazar, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, birlashmalar va alohida shaxslarning sanitariya normalariga, gigiyena normativlariga rioya qilmaslik hamda sanitariyaga doir va epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirmsaslik natijasida aholining salomatligiga va atrof-muhitga yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashi;

sanitariya normalari, qoidalariga rioya etilishi va sanitariya-gigiyena; tadbirlarining amalga oshirilishi ustidan davlat sanitariya nazoratini olib borish.

Sanitariya nazorati va tekshiruvini amalga oshiruvchi idoralar va muassasalari Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida”gi Qonunga hamda sanitariya-epidemiologiya xizmati muassasalari to‘g‘risidagi Nizomga muvofiq ish ko‘rvuchi tibbiy-profilaktik muassasa hisoblanib, sanitariyaga doir va epidemiyaga qarshi kurash chora-tadbirlarini tashkil etish va o‘tkazilishini ta’minlaydi hamda davlat sanitariya nazoratini amalga oshiradi.

## **1-BOB**

# **SANITARIYA-EPIDYEMIOLOGIYA XIZMATINING XIX ASR O'RTALARI VA XX ASR OXIRLARIDAGI HOLATI**

### **1.1.Sanitariya-epidemiologiya muassasalarining XIX asr o'rtalari va XX asr boshlaridagi holati**

Ma'lumotlarga ko'ra XIX asr o'rtalarida hozirgi Markaziy Osiyo Respublikalari hududida birorta, tibbiy xodim va davolash muassasasi yoki dorixona bo'limgan o'lka, aholisi o'rtasida chechak, o'lat, vabo, sil, zaxm, bezgak, tsinga, traxoma kabi ko'plab xavfli yuqumli kasalliklar keng tarqalgan bo'lib, yuz minglab odamlarning yostig'ini quritgan. Turkiston o'lkasida ayniqsa, bezgak, teri leyshmaniozi, o'tkir ichak yuqumli kasalliklari, moxov, chechak, rishta, bo'qoq kabi kasalliklar keng tarqalgan. Bu davrda o'lkada garchi ilmiy tabobat yaxshi rivojlanmagan bo'lsada, o'sha davrning tabiblari tomonidan tibbiyotga oid bir necha asarlar yozib qoldirilganligi, shuningdek, Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asari mazmuni asosida qisqacha "Qonuncha" nomi bilan kitoblar chiqarilganligi ma'lum.

Rus qo'shinlarning Samarcandni 1868-yil mayida egallagan davrida ishlab chiqilib tasdiqlangan Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi vaqtinchalik nizomga ko'ra har 150-200 ming aholiga bitta vrach belgilangan, tub aholi ilmiy tibbiy xizmatdan bahramand bo'lolmas edi.

1886-yilda tasdiqlangan "Turkiston o'lkasini boshqarish haqida"gi nizomga asosan o'lkada tibbiy xizmat okrug harbiy tibbiy nazoratchisiga yuklatilgan viloyatlarda va uyezdlarda esa uyezd vrachi va doyalariga yuklatilgan edi. Mahalliy aholi tibbiy yordamga faqat pul to'lash evaziga murojaat qilishi mumkin bo'lgan.

Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1905--yilda Turkiston o'lkasi general gubernatori Samarcand, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlarida qishloq vrachlik uchastkalarini qurish haqida nizom qabul qiladi. Mazkur nizomga asosan, Samarcand viloyati hududi 10 ta vrachlik uchastkalariga bo'linadi. Yuqumli kasalliklarning keng tarqalganligi shahardagi rus aholisi va harbiylarning salomatligi uchun katta xavf tug'dirar edi. Vujudga kelgan vaziyat okrug ma'muriyatini 1870-yil mart oyida Samarcand shahrida

shahar shifoxonasini ochishga majbur qildi. Dastlabki bu shifoxona qorong'i va tor, havosi, almashmaydigan zax tomi va poli yer binoda joylashgan va o'nlab-yillar davomida faoliyat ko'rsatgan. O'sha davrda Samarqand viloyati aholisi ikkitagina vrach va uning ikkita yordamchilari orqali tibbiy xizmat olar edi, tibbiy xodimlar yetishmas edi, shu sababdan Zarafshon okrugi boshlig'i Mahalliy millat tilini biladigan feldsherlar tayyorlash uchun katta ehtiyoj sezар edi.

1887-yil 1 yanvarda aholi 712000 kishidan iborat bo'lган yangi Samarqand viloyati tashkil etilib, uning tarkibiga Samarqand, Jizzax, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uyezdlari kiritiladi va har bir uyezdga bittadan vrach belgilanadi.

1896-yilda kambag'allar uchun ambo'latoriya va Paster stansiyasi ochiladi. 1898-yilda Anzob qishlog'i (Iskandar viloyati) da o'lat kasalligi paydo bo'ladi. Bir oy davomida qishloqda 253 aholi o'lat bilan kasallanib, shundan 237 tasi nobud bo'lган va qishloqning 61% aholisi mazkur kasallik tufayli kirilib ketgan, qishloq tezda halqa bilan o'rabi olinadi va kasallikning tarqalib ketish oldi olinadi.

Samarqand viloyatining Dahbed, Yangiqo'rg'on, Jumabozor, Bog'dod, Zomin, Mitan, Payshanba kabi qishloqlarida 1898-yil oktyabrigacha jami 9 ta qishloq feldsherlik punktlari ochiladi. O'lkaning boyliklarini o'zlashtirish maqsadida bu yerda yashovchi aholi salomatligini muhofaza qilish Chor Rossiyasi manfaatlari uchun zaruriyatga aylanib qolgan edi. Natijada ular 1906-yilda Dahbed, Urgut, Panjikent, Payshanba, Mitan, O'ra-To'ba qishloqlarida qishloq vrachlik uchastkalari tashkil etishga majbur bo'ladi. 1912-yilda Urgut, Panjikent, Payshanba, Chelak, Millyutin, Bog'dod, Zomin, Nav va Rastovsev deb nomlangan joylarda 9 ta, hammasi bir xil loyiha asosida qishloq uchastka shifoxonalarini qurishga kirishilib, 1913-yilda ishga tushirilgan va vrachlar yuborilgan. Bu shifoxonalar loyiha bo'yicha 6 o'ringa mo'ljallangan edi.

1907-yilda Samarqand viloyatining Kattaqo'rg'on uyezdidagi ikki qishloqda 16 ta moxov kasalligi bilan og'rigan bemor, 1908-yilda O'rtatepa uyezdida 32 ta, 1914-yilda Urgutda 19 ta shunday bemor bo'lган.

1890-yilda bunday bemorlarga alohida bino qurilib, izolyatsiya qilingan va bino atrofi devor bilan o'ralgan. 1921-yildan mazkur leprozoriy narkomzdrav ixtiyoriga berilib, davolash muassasasi sifatida ro'yxatga olinadi va zarur qattiq hamda yumshoq jihozlar bilan ta'minlanadi. Kir yuvish, oshxona, hammom kabi qo'shimcha binolar quriladi.

1915-yilda Samarqand shahriga sanitariya vrachi va shahar shifoxonasiga ikkinchi vrach yuborilgan. Viloyat vrachi hisobotiga ko‘ra, 1888-yilda ich terlamaning katta epidemiyasi kuzatilib, jami 2031 kishi kasallangan va shundan 594 tasi nobud bo‘lgan. 1899-yilda chechak epidemiyasi avj olib, birgina Samarqand uyezdining o‘zida 217 kishi kasallangan. Mavjud arxiv ma’lumotlarini o‘rganish O’rta Osiyoda chechakka qarshi emlash (kozish) XIXasr oxirida rus qo‘shinlarining o‘lkani egallaganidan keyin boshlanganligini tasdiqlaydi. 1909-1913-yillarda Samarqand viloyatida chechakka qarshi emlash bilan aholining atigi 3 foizi qamrab olingan, xolos. Tarixiy adabiyotlarda yozib qoldirilishicha, Samarqand viloyatida 1844-1942-yildan vabo kasalligi xam tarqalgan, jumladan, G.Ya.Zmeyev (1848 y) ma’lumotiga ko‘ra vaboning uchinchi pandemiyasi Xindistondan Laxor, Kobul, Xirot orqali Buxoroga va 1844-yil sentyabrida Samarqandga xam yetib kelgan. Turkiston o‘lkasi harbiy boshqaruv axborotiga ko‘ra, bu yerga vabo 1867-1876-yil yetib kelib, Jizzaxda 1872-yil mayda, Samarqandda 13 iyunda kuzatilgan. Bir necha oy mobaynida 20920 kishi kasallanib, shundan 12945 tasi o‘lgan. Samarqandda vabo kasalligi 1892 va 1903-yillarda xam qayd etiladi. 1921-yilda esa 113 kishi kasallanib, shundan 48 tasi o‘lgan. Oxirgi marta vabo kasalligi 1942-yilda harbiy asirlar orqali tarqalganligi qayd etilgan. 1890-yilda viloyatning Jizzax uyezdida bezgak kasalligi keng tarqalib, bemorlar o‘rtasida o‘lim 10% gacha ko‘tarilgan, shuningdek, o‘lka aholisi o‘rtasida sil, traxoma kabi boshqa ko‘plab kasalliklar tarqalgan. Aholi o‘rtasida moxov kasalligi bilan kasallanish mavjud bo‘lib, bunday bemorlarni qishloqlardan haydab chiqarib, alohida yerlarda yashashga majbur qilishgan. Bunday bemorlar chet joylarda alohida qishloqlar- "Moxov qishloq" larni tashkil qilib, yashashga majbur bo‘lganlar. 1900-yillarda bunday bemorlarni ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlashni Rossiya Qizil Yarim oy jamiyati o‘z zimmasiga olgan.

1917-yilgi hisobotlarga ko‘ra mazkur shifoxonalarga chin chechak, difteriya, qorin tifi, saramas, zaxm kabi yuqumli kasallik bilan kasallangan bemorlar yotkizib davolangan.

Shuningdek, 1920-yildan Paster stansiyasi va 2 tabezgakka qarshi dezinfeksiya otryadi, chechakka kozuvchilar (emlovchilar) kursi, hamshiralar maktabitashkil etilgan. 1924-yil 27 oktyabrda O’zbekiston SSR tashkil etilish vaqtga kadar viloyatda 253 shifoxona o‘rinlari, shahar joylarda 45, shu jumladan 35 o‘rin (25 o‘rin bolalar uchun va 10 o‘rin tanosil kasalligi bemorlari uchun) mavjud bo‘lgan. Shu davrda yana 52 ta sog‘lomlashtiruvchi punktlar, 12 ta vrachlik va 13 ta feldsherlik punktlari,

6 ta dorixona bo‘lgan. Samarqand shahrida 29 ta vrach ishlagan bo‘lib, har 5432 aholiga bitta vrach to‘g‘ri kelgan. Viloyat tumanlarida esa 620,0 ming aholiga 22 ta vrach ishlagan va har 28200 aholiga bir vrach to‘g‘ri kelgan. Viloyatda 94 ta uchastka shifoxonalari bo‘lib, ular Samarqand uyezdining Urgut, Panjikent, Chelak, Rostovsev, Kattaqo‘rg‘on uyezdining Payshanba, Jizzax uyezdining Yangi qo‘rg‘on, Zomin, Bog‘dod, Xo‘jand uyezdining Sulukta qishloqlarida joylashgan.

1917-yilda Samarqand shahrida ich terlama va toshmali tif kabi xavfli yuqumli kasalliklar keng tarqalib, ko‘plab odamlarning yostig‘ini quritar edi. Mazkur epidemiya shu darajada og‘ir ediki, hukumat tomonidan shoshilinch ravishda choralar ko‘rishga, unga qarshi kurash uchun katta mablag‘ ajratishni, tibbiy xodimlar sonini ko‘paytirishni talab qilar edi. Viloyat chegarasida chuma, bezgak kabi o‘ta xavfli kasalliklar tarqalib ketish xavfini tugdirgan edi. Hukumat tomonidan Samarqand viloyatida epidemiya tarqalishi uchun xavfli zona deb e’lon qilinadi. 1918-yil mart oyida Samarqand shahrining janubiy tomonida joylashgan qishloqlarda tropik bezgak kasalligi keng tarqalib, bemorlar orasida o‘lim holatlari juda yuqori edi.

1918-yil 12 aprelda Turkiston Respublikasi Samarqand viloyati kengashining qarori bilan Viloyat sog‘liqni saqlash Xalq Komissariati tashkil etiladi. Viloyatning birinchi sog‘liqni saqlash komissari etib yosh harbiy vrach V.V. Kosmachevskiy saylanadi. Samarqandda tarqalgan bunday epidemiyaga qarshi kurashni kuchaytirish maqsadida maxsus "Toshmali tif epidemiyasi va unga qarshi kurash haqida" deb nomlangan qaror qabul qilinadi. Bu davrlar Samarqand viloyati uchun eng qiyin davrlar edi.

1919-yilda Samarqandda bezgak kasalligi epidemiyasi kuchayib, qisqa muddat ichida butun shahar va viloyat aholisini qamrab oladi. Ana shu paytlarda vrach A.N.Artamonovaning "Samarqand viloyatida bezgak kasalligi tarqalishi" deb nomlangan maqolasi e’lon qilinib, unda viloyatdagi irrigatsiya tarmoqlarining tartibsizligi, ko‘lmak suvlarning ko‘pligi, gullagan Zarafshon vodiysi bezgak makoniga aylantirib yuborganligi haqida axborot beradi. 1893-yildayoq bezgak kasalligidan biringa Dahbed volostida egalari to‘la halok bo‘lgan 268 hovlilar qayd etilganligi haqidagi tarixiy ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan.

A.K.Xusanbayevaning (1966 y) ma’lumotiga ko‘ra 1920-yilda Samarqand shahrida Paster stansiyasi va ikkita bezgakka qarshi dezinfeksiya otryadlari tashkil etiladi. G.N.Dembo (1925 y) qoldirgan axborotiga ko‘ra, 1921-yilda Samarqand viloyatida ich terlama va tif,

zaxm, traxoma, singa, pendin yarasi, difteriya, chechak, xolera va ayniqsa bezgak kasalliklari keng tarqalib, kasallangan bemorlar soni jami 38346 nafarga yetgan. 700 dan ortiq pendin yarasi bo‘lgan bemorlar qayd etilgan. Bu davrda tashkil etilgan tanosil kasalliklari ambo’latoriyasi, Turkiston Respublikasida birinchi bo‘lgan sanitariya maorifi uyi yuqoridagi sanab o‘tilgan yuqumli kasallikkarga qarshi kurashda katta rol o‘ynaydi. Viloyat sog‘liqni saqlash xodimlari s’ezdida sil kasalligiga qarshi kurash sanatoriysi, ortopediya ustaxonasi, 50 o‘rinli bezgakka qarshi kurash stansiyasi, Urgutda sanatoriya tipidagi dam olish uyi va internat ochish haqida qaror qabul qilinadi. Bu davrda shuningdek, sog‘liqni saqlash komissarligi qarori bilan qishloq joylarda aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yaxshilash bo‘yicha maxsus qaror qabul qilinib, unga ko‘ra mavjud 9 ta uchastka shifoxonalaridagi o‘rnlarni 12 tagacha ko‘paytirish, 7 ta feldsherlik punktlarini vrachlik punktlariga aylantirish hamda ularga 6-7 tadan bemorlar yotib davolanish uchun o‘rinlar tashkil etish haqidagi bandlar kiritilgan.

1920-yillardagi Rossiyadagi ocharchilik Samarqand viloyatiga 30 mingdan ziyod ochlarni yetaklab keldi. Ular bilan birga vabo kasalligi xam kirib keladi. O’sha paytlarda ushbu kasallikka chalingan 113 bemor qayd etilib, shundan 48 tasi o‘ladi. 1922-yilda viloyatda tashkil etilgan sil kasalliklari sanatoriysi va dispanseri budget tanqisligi sababli yopib qo‘yiladi. 1923-yilda viloyatdagi sanitariya vaziyati nihoyatda og‘irlashadi. Chin chechak epidemiyasi boshlanadi. Hukumat ijroiya qo‘mitasi vaziyatni muhokama qilib tegishli qaror qabul qiladi.

1928-yildan Samarqand viloyati va tumanlarida sanitariya vrachlari lavozimlari kiritildi. Aholi orasida sanitariya-targ‘iboti ishlari jonlantirilib, ma’ruzalar va suhabatlar o‘tkazila boshlandi. O’sha vaqtida keng tarqalgan xurofotga, mulla, qushnoch kabi g‘ayri-ilmiy "tibbiyot" ga qarshi kurash boshlandi. Viloyatda aholi o‘rtasida bezgak kasalligining keng tarqalganligi, unga qarshi kurash choralarini kuchaytirishni talab qilar edi. 1930-1932-yillarda bezgak kasalligiga qarshi kurash tadbirlarini kuchaytirish, uni ilmiy asosga qo‘yish maqsadida Buxoro shahrida joylashgan tropik ilmiy-tadkikot institutini Samarqand shahriga ko‘chirish masalasi qarab chiqilib, dastlab 1930-yilda institutning epidemiologiya bo‘limi va 1931-yil oxiridan butun institut Samarqand shahriga ko‘chiriladi. Keyinchalik mazkur institut tibbiy parazitologiyainstituti deb atalib, uning asoschisi davlat mukofoti laureati L.M.Isayev nomi bilan atala boshlandi.

Vujudga kelgan vaziyat viloyatda yuqumli kasalliklarga qarshi kurashni kuchaytirish, aholiga malakali tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish, (malakali tibbiy kadrlarni tayyorlash) masalasini kun tartibiga qo'yadi. Samarqand shahrida dastlab 1927-yilda tibbiyot texnikumi, keyinroq 1930-yilda tibbiyot instituti tashkil etiladi. 1928-yil oxirida viloyat vrachlar ilmiy uyushmasi tashkil etiladi.

## **1.2. Davlat sanitariya nazorati ikkinchi jahon urushi-yillarida**

Ikkinchi jahon urushi-yillarida Samarqand viloyati sog'liqni saqlash tizimi faoliyati, ayniqsa, Samarqand shahrida faoliyat ko'rsatgan muassasalarda va fidokorona mehnat qilib, yaradorlarga tibbiy yordam ko'rsatgan shifokorlar faoliyati o'zining shonli tarixiga ega.

Yillar ketidan-yillar o'tadi, asrlar o'tadi. Kelajak avlodlarimiz xotirasida shahrimiz uchun qiyin sinov-yillari bo'lgan 1941-1945 olovli urush-yillarida, butun mamlakatimiz va viloyatimiz xalqi fidokorlik ko'rsatib, tun-kun tinim bilmay mehnat qilib, yaradorlarga malakali tibbiy xizmat ko'rsatgan, ularni yupatib, o'ksigan ko'ngillariga taskin bergen tibbiyot xodimlarining shahrimizda joylashtirilgan harbiy evakogospitallarda ko'rsatgan jasoratlari avlodlarimiz xotirasida abadiy saqlanadi.

O'z davrining siyosiy tuzumi talablaridan kelib chiqqan mehnatkash xalqimiz frontga otlanadi. Jang maydonlarida qahramonlik namunalarini ko'rsatib, o'zlarining ona yurti, bola-chaqasi, ota-onasining tinchligini dushmanidan himoya qilish borasida jon olib jon beradi. Ko'plab vatandoshlarimiz o'zlarining aziz jonlarini qurban qilib, o'zga yurt tuproqlarini o'ziga abadiy makon qildilar.

Bunday kurashdan viloyatimiz va shahrimizning tibbiyot xodimlari front orqasida ishlayotgan barcha xalqimiz chetda qolmadilar, yuzlab va minglab yaradorlar nafaqat malakali tibbiy yordamga, balki o'zlarining o'ksigan qalblarini ardoqlashga, ota-onha va vatan mehriga muhtoj edilar. Ular tibbiyot xodimlaridan bunday yordamni oldilar ham.

Sobiq Ittifoq Davlat Mudofaa Qo'mitasi qarori bilan 1941-yil 25 sentyabrdan boshlab Samarqand shahrida ham evakogospitallar tarmoqlari joylashtirila boshlandi. Gospitallarni joylashtirish uchun shahrimiz va viloyatimizning eng sara binolari ajratildi. Qisqa vaqt ichida ularda 5 mingta o'rin joylashtirildi. Gospitallar qattiq va yumshoq inventarlar bilan ta'minlandi.

Samarqand shahridan tashqari gospitallar tarmoqlari viloyatning temir yo‘lga yaqin joylashgan Bulung‘ur, Narpay, Paxtachi kabi tumanlarida ham joylashtirildi. Samarqand shahri ikkinchi jahon urushining eng yirik gospital bazalaridan biriga aylandi.

Urush-yillarida davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati uchun o‘ta muhim davr bo‘ldi. Soha xodimlari o‘z faoliyatini butkul o‘zgartirishlari lozim bo‘ldi. O’sha davrda frontdan mamlakatimizga evakuatsiya qilingan yarador askar va zabitlardan tashqari sobiq ittifoqning urush harakatlari olib borilayotgan o‘lkalaridan ko‘p sonli muhojirlarning olib kelinishi O’zbekistonda shu jumladan, Samarqand aholisi o‘rtasida epidemiologik vaziyatni yanada og‘irlashtirdi. Natijada yuqorida aytib o‘tganimizdek, qator yuqumli va parazitlar kasalliklar soni keskin oshib ketdi. Bu o‘z navbatida sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlarining kechayukunduz xizmat olib borishga olib keldi. Epidemiologik vaziyatni yumshatish maqsadida sanitariya-gigiyena, epidemiologiya va dezinfeksiyon chora-tadbirlar keskin kuchaytirildi. Ayniqsa, aholi o‘rtasida yuqumli va parazitlar kasalliklarning oldini olish bo‘yicha keng qamrovli sanitariya-targ‘ibot ishlari olib borildi. Shuningdek, ularning tibbiy madaniyati va savodxonligini yanada oshirish maqsadida turli kurslar ochildi.

Respublika va viloyatlar (viloyat ijroiya qo‘mitalari) da epidemiyaga qarshi kurash favkulotda komissiyasi tashkil qilinganligi zarur choratadbirlarni shu jumladan, tashkiliy, tibbiy, profilaktik hamda xo‘jalik va moliyaviy masalalarni tezkor ravishda hal qilishda muhim rol o‘ynadi.

Samarqand shahrida 1941-yilning birinchi yarmida sanitar-mudofaa ishlari boshlandi, saninstruktorlar kursi ochildi, 1066 kishidan iborat 248 ta sanitar postlar, ob’ektlarda 542 kishilik 17 sanitar drujinachilari tashkil etildi.

1941-yilning 25 sentyabrida evakogospitallar tashkil etilib, sog‘liqni saqlash xalq komissariati ixtiyoriga o‘tkazildi. Samarqand shahrida 5000 o‘ringa mo‘ljallangan harbiy gospitallar ochildi. Shaharda tashkil etilgan va faoliyat ko‘rsatgan 10 ta evakogospitallar to‘g‘risida ma’lumotlarga e’tibor qaratsak quydagilarni bilib olamiz.

EG №1267 – M.Gorkiy bulvaridagi O’zbekiston Davlat Universiteti binosida joylashgan bo‘lib, 1941-1947-yillari,

EG №1268 – Kommunisticheskaya ko‘chasida joylashgan inqilob skveri ro‘parasidagi Xalq xo‘jaligi instituti binosida, 1942-1943-yillari,

EG №1530 – Frunze ko‘chasidagi «Krasniy dvigate» zavodi qoshida, 1941-1942-yillari,

EG №3962 – Termiz bozori yonidagi O’zbekiston Davlat Universiteti yotoqxonasida, 1941-1943-yillari,

EG №3963 – Sklyanskiy ko‘chasi va M.Gorkiy bulvari burchagidagi Pedagogika instituti binosida, 1941-1942-yillari,

EG №3694 – Gospital binosida, 1943-yili,

EG №3964 – Termiz bozori ruparosidagi sanoat iqtisod texnikumi binosida, 1941-1943-yillari,

EG №3965 – Saralovchi gospital vokzalida joylashgan, Oktabr ko‘chasidagi Michurin nomli qishloq xo‘jalik texnikumi yotoqxonasi va 43-urta mакtabda, 1941-1946-yillari,

EG №3966 – Frunze ko‘chasi Xalq xo‘jaligi instituti binosida, 1941-1943-yillari,

EG №4559 – O’zbekiston ko‘chasi, Urgut bozori yonidagi 34-urta mакtabda, 1941-1943-yillari faoliyat ko‘rsatgan.

Samarqand gornizonining 342-sonli gospitali, Urgut bozori yonidagi binoda joylashgan.

1942-1944-yillarda Samarqand shahrida S.M.Kirov nomidagi harbiy-meditsina akademiyasi joylashgan bo‘lib, u tufayli shaharda davolash-profilaktika ishlarining sifati yaxshilangan.

Samarqand shahri katta gospitallar bazasiga aylanib, frontdan og‘ir yaradorlar keltirilgan. Zobit va soldatlarni davolashda o‘sha-yillar Harbiy Meditsina Akademiyasi professor va mutaxassislarning hissasi juda katta bo‘lgan.

Evakogospital ishida davlat mukofoti lauriyati, akademik A.A.Anichkov, V.P.Osipov, V.I.Voyachev, V.A.Shamov, professorlar S.Navotelkov, A.V.Lebedinskiy, V.S.Dvoynikov, B.M.Broderzon, S.Yu.Minkin, M.P.Entin, F.I.Valker, N.N.Saviskiy, N.N.Ragoza, Krilov, Nemenov va boshqalar o‘z mehnatlari bilan tibbiyot xosasida yuqori natijalarga erishgan.

Samarqand gospitallarida urush-yillari 50 mingdan ortiq yarador soldat va zabitlar davolanib chiqqan. O’sha davrda Samarqand shahrida aholining katta migratsiyasi kuzatilgan. Samarqand shahriga Ukraina va Belorussiyadan 130 mingdan ortiq aholi evakuatsiya qilingan edi. Leningrad va Moskva shaharlaridan vaqtincha 4 ta harbiy va Temiryazov nomidagi qishloq xo‘jalik akademiyasi ko‘chirilgan edi. Talabalarni va akademianing o‘zini joylashtirish og‘ir muammo edi. Ammo shahar aholisi jamoa va Mahalliy hukumat yordamida hamma evakuatsiya qilingan muassasalar, birinchi navbatda okkupatsiya qilingan joydan kelganlar shahar aholisining xonadonlarida joylashtirilgan. Urush davri

sharoitiga muvofiq shahar evakuatsiya qilinganlarning katta oqimi kelishi bilan shaharda hammomlar yetishmasligi, sanitariya punktlari, dezokameralar yetishmasligi yuqumli kasalliklarning tarqalish xavfini tug‘dirdi.

Shahar ijroiya qo‘mitasi tarkibida favqulodda vaziyatlar komissiyasi tashkil etildi. Bu komissiya shahar sog‘liqni saqlash organi bilan hamkorlikda yuqumli kasalliklarning oldini olish uchun qator tadbirlarni amalga oshirdi.

1943-yilda shahar sog‘liqni saqlash bo‘limining mudiri professor A.V.Savelev boshchiligidagi tibbiyot xodimlari ichak infeksiyalari, toshma va qaytalama tif bilan kurashishda muhim sinovni boshlaridan o‘tkazishdi. Shaharda urush-yillari bezgak kasalligi yuqori darajada bo‘lganini ta’kidlash lozim. O‘zbekiston Respublikasi Narkomzdravi 1943-yil bezgakka qarshi kurashishga qaratilgan qator tadbirlarni ishlab chiqdi.

Yaradorlarni davolashdagi ulkan mehnatlari uchun 1944-yilning 22 iyunida gospital boshlig‘i R.R.Faxadi, tibbiyot ishlari bo‘yicha gospital boshlig‘i yordamchimi A.V.Polyakov «UzSSRda xizmat ko‘rsatgan vrach» unvoni bilan taqdirlangan.

Shahrimizda joylashgan evakogospitallarga ikkinchi jahon urushining barcha frontlarida og‘ir yarador bo‘lgan jangchilar olib kelindilar. Respublikaga evakuatsiya qilingan evakogospitallar faoliyatini tashkil etish ularning faoliyatini boshqarish ishlari O‘zSSR Sog‘liqni saqlash xalq Komissari o‘rinbosari B.I.Berlinerga yuklatilgan edi. Viloyatdagi gospitallarda 1941-yil 1 dekabriga 25100 o‘rin, 1943-yil 1 iyuliga 30900 o‘rin, 1944-yil 1 iyuliga 37600 o‘rin joylashtirildi. Urush-yillarida Samarqand viloyatida joylashgan evakogospitallarda jami 50 mingdan ortiq yarador soldat va ofitserlar davolangan. Respublika bo‘yicha davolangan yaradorlarning 49 foizi harbiy xizmatga qaytarilgan, 46.7 foizi mehnatga yaroqli, 3.2 foizi mehnatga yaroqsiz bo‘lib, nogironlikka ega bo‘lgan. Samarqand viloyatidagi evakogospitallardan esa o‘n minglab soldat va ofitserlar harbiy xizmatga qaytarilgan, ko‘pchiligi esa mehnat frontiga qaytarilgan.

Yaradorlarga tibbiy-sanitariya xizmat ko‘rsatishda 1942-yildan 1944-yilgacha Samarqand shahriga evakuatsiya qilingan S.M.Kirov nomidagi Leningrad harbiy-tibbiy akademiyasi olimlari va mutaxassislari katta yordam ko‘rsatdi. Akademianing mutaxassislari evakogospitallardagi yaradorlarga faqat maslahat yordaminigina berib qolmasdan, xirurgik bo‘limlar faoliyatiga ham amalda rahbar bo‘lib qolgan edi. Bu

mutaxassislar yaradorlarni davolashning yangi-yangi usullarini ishlab chiqib, katta ilmiy faoliyat bilan ham shug‘ullandilar.

Urush-yillarida Ukraina va Belorussiya kabi respublikalardan Samarqand shahriga 130 mingga yaqin aholi evakuatsiya qilingan. To‘rtta harbiy akademiya ko‘chirib olib kelingan. Bularning barchasini uy-joy bilan ta’minalash, tibbiy-sanitariya xizmat ko‘rsatish, kiyim-kechak yetkazib berish kabi murakkab vazifalar shahar jamoatchiligi va aholisining faol ishtirokida o‘z yechimini topgan edi.

Urush-yillarida Samarqand viloyatida bezgak kasalligi bilan kasallanish o‘zining yuqori nuqtasigacha ko‘tarilib, Respublika sog‘liqni saqlash Xalq Komissarligidan bu borada shoshilinch choralar ko‘rishni talab qilar edi. Kasallangan bemorlar orasida tropik bezgak kasalligining og‘ir, ko‘pincha o‘lim bilan tugaydigan shaklining ko‘payishi hukumatni ularning oldini olish uchun bir qator tashkiliy choralar ko‘rishga majbur etdi. Jumladan, bemorlarni yotqizib davolash, epidemiyaga qarshi kurash choralarini kuchaytirish zaruriyati shifoxonalar va ulardagi o‘rinlar sonini ko‘paytirishni taqozo qilar edi.

O’sha davrlarda viloyatdagi shifoxonalardagi o‘rinlar soni 3417 tani, shu jumladan, shaharlarda 2563, qishloq joylarda esa 854 tani tashkil etgan.

Samarqand viloyatida 1945-yilga kelib 162 ta feldsherlik hamda 123 ta dorixona punktlari, 34 ta dorixona bo‘lgan. Ko‘rilgan shoshilinch choratadbirlar natijasida va tibbiyot xodimlarining fidokorona mehnatlari tufayli epidemik kasalliklarning oldini olish imkoniyati yaratildi.

### **1.3. Sanitariya-epidemiologiya xizmatining urushdan keyingi-yillardagi ravnaqi**

1946-1947-yillarda shaharning partiya va sovet tashkilotlari vodoprovodlar ishini yaxshilash uchun ko‘pgina chora va tadbirlar ko‘rdi. Birgina 1946-yilning o‘zida shahar vodoprovod shoxobchasini (shu jumladan, texnika inshootlarini) kapital remont qilishga 74 ming so‘m va yangi qurilishga esa 70 ming so‘m ajratildi. Uch agregatning hammasi kapital remont qilindi, suv keltiradigan yangi liniya ko‘rildi. Bu esa, nasos stansiyasining ish unumini oshirishga va vodoprovod orqali berilayotgan suvni 1945-yildagi 800 ming kubometrdan 1947-yilda 2 million 100 ming kubometrga yetkazishga, faqat aholinigina emas, shu bilan birga sanoat korxonalarini ham suv bilan ta’minalashni yaxshilashga imkon berdi. Biroq, suvga bo‘lgan ehtiyoj hali ham to‘la ravishda qondirilmagan edi. 1946-

yilda shahar har kuniga 5,5-6 ming kubometrga yaqin suv olib turdi. Shundan 4 ming kubometri sanoat va kommunal korxonalar ehtiyojlariga, 2 ming kubometri esa aholining maishiy ehtiyojlariga sarf bo‘lar edi, vaholanki, aholining maishiy ehtiyojlari uchun 9-10 ming kubometr suv kerak edi.

Shahar vodoprovodining quvvati 5-yil ichida 25 protsent ko‘paydi ko‘paytirilganligiga qaramay, suvgaga bo‘lgan ehtiyojning faqat yarmisigina qondirilmoqda edi. Shahar vodoprovodining quvvatini kuniga 30 ming kubometrga yetkazmoq uchun 1948-yilda respublika Ministrler Sovetining qarori bilan Samarqandda vodoprovodning ikkinchi navbatini qurish, uning uskunalarini yangilash ishlari boshlanadi. Bu ishlar uchun 2 million so‘m ajratildi. Shu bilan birga, kanalizatsiya qurish uchun tayyorgarlik ishlari boshlab yuborildi va bu ishga 750 ming so‘m sarflandi. Hammomlar kapital ta’mirdan chiqarildi. Natijada bu hammomlar 1944-yilda 350 ming kishini yuvintirish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lsa, 1947-yilda 850 ming kishini yuvintirib chiqaradigan bo‘lib qoldi. Ko‘cha va maydonlarni yoritish, umuman shaharni elektrlashtirish yaxshilandi.

1957-yilda shahar vodoprovodining ikkinchi navbati foydalanishga topshirildi. Shaharning suv ta’minoti yaxshilandi. 1958-yilda shahar aholisiga berilayotgan suvning miqdori 1951-yildagiga nisbatan qariyb ikki baravar ko‘paydi, kanalizatsiya shoxobchalari ancha ko‘paytirildi. 1952-yilda 4 ta irrigatsiya inshootlari ko‘rildi. 1600 metrdan iborat ariqlarga g‘isht va beton yotqizildi. Bu ishlarga 320 ming so‘m pul sarflandi. 1945-1950-yillar davomida shaharning partiya, sovet tashkilotlari, sog‘liqni saqlash tashkilotlarining aholiga meditsina xizmati ko‘rsatishni, meditsina kadrlari tayyorlashni yanada yaxshilash borasidagi ishlari darajasini ancha oshirishga muvaffak bo‘ldilar. Meditsina muassasalari shoxobchalarini, ayniqsa, fabrika va zavodlarda kengaytirishga ko‘proq e’tibor berildi. 1946-yilda shaharda 16 ta poliklinika, 143 ta ambo’latoriya, 25 ta bolalar konsultatsiyalari ishlagan bo‘lsa, 1950-yilda 18 ta poliklinika, 190 ta ambo’latoriya va 34 ta bolalar konsultatsiyalari ishlab turdi.

O’tgan davrga bir nazar tashlaydigan bo‘lsak, sanitariya-epidemiologiya muassasalari sonining ko‘payib borishi, ular faoliyatining markazlashtirilgan holda boshqarishni hamda tashkiliy-uslubiy markazi yaratishni talab qildi. Shu maqsadda 1952-yilning 13 mayida Respublika Vazirlar Mahkamasining 838-sonli Qarori asosida Respublika Sanitariya-epidemiologiya stansiyasi — SES tashkil etildi. Unga birinchi bosh vrach etib S.N.Niyozov tayinlandi.

Respublika SESda dastlabki-yillarda jami 68 nafar xodim bo‘lib, shundan 19 tasi oliy ma’lumotli vrachlar edi. 1955-yilda respublikada sanitariya-epidemiologiya xizmati tarkibiga o‘zgartirishlar kiritildi. Davlat sanitariya inspeksiyasi, sanitariya-epidemiologiya stansiyasi, bezgakka va brutsellyoz (qora oqsoq)ga qarshi ish olib borgan muassasalar birlashtirib, yagona hududiy, sanitariya-epidemiologiya stansiyasi tashkil etildi. 1960-yilga kelib Respublikada 154 ta, sanitariya-epidemiologiya stansiyalari faoliyat ko‘rsatdi. 1963-yilga kelib Vazirlar Mahkamasining «Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi.

1967-yilga kelib O‘zbekiston Sog‘liqni saqlash vazirligi tashabbusi bilan respublikada, sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining tuman SESlarining mustaqilligini tiklash to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi hamda 1956-yilda tuman markaziy kasalxonasiga biriktirib qo‘yilgan tuman SESlari mustaqilligi ta’minlandi.

Birinchi bor 1968-yilda O‘zbekiston sanitariya-epidemiologiya xizmatini markazlashtirilgan boshqaruv va moliyalashtirish amalga oshirildi.

1973-yil 31 mayda Vazirlar Mahkamasining «Mamlakatda Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida»gi Qarori chiqdi. Bu hujjatning qabul qilinishi O‘zbekiston Respublikasida sanitariya-epidemiologiya xizmatining rivojlanishida yangi bosqichni belgilab berdi.

1974-yildan boshlab, sanitariya-epidemiologiya xizmatining laboratoriya tekshiruvlari (tahlillari) markazlashtirildi. Toshkent shahrida va 9 ta viloyatlarda 31 ta tumanlararo laboratoriyalar tashkil etildi, zamonaviy uskunalar bilan jihozlandi.

Vazirlar Mahkamasining 1978-yil 24 iyuldagи «Sanitariya-epidemiologiya xizmatini yaxshilashning kelgusidagi choralari to‘g‘risida»gi 422-sonli qarorining qabul qilinishi Respublikada nafaqat Sog‘liqni saqlashni muhofazalash ishlarining rivojlanishida, balki joriy va yakuniy sanitariya nazoratining takomillashtirishda, boshqa mutasaddi muassasa va korxonalar tomonidan tashqi-muhitni ifloslantirishga yo‘l qo‘yilmaslik, suv ta’mintoni yaxshilash, aholi yashash punktlarida sanitariya tozaligiga e’tibor berish, umumiyoq ovqatlanish korxonalarida bolalar muassasalarida sanitariya tozaligi, sog‘liqni muhofaza qilish tadbirlarining bajarilishini yaxshilashga asos bo‘ldi.

1992-yil 3 iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengash Qarori bilan «Davlat sanitariya nazorati to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun Davlat sanitariya nazorati faoliyatini huquqiy asosidir. Bu

qonunning qabul qilinishi (umumdavlat ahamiyatga ega bo‘lib) aholining sanitariya va epidemiologik xavfsizligini ta’minlashdek tadbirlarni bajarilishida umumdavlat ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda respublika hududida jami 227ta DSENM, shundan 157tasi tuman, 40ta shahar, 14ta viloyat miqyosidagi, 15ta idoraviy va 1ta Respublika DSENM faoliyat ko‘rsatmoqdalar.

Ommaviy sog‘lomlashtirish va profilaktika tadbirlari amalga oshirilganligi va meditsina fanining muvaffaqiyatlari keng joriy qilinganligi natijasida aholi orasida kasallik va o‘lim keskin kamaydi, yuqumli kasallikkarni, jumladan, bezgakni tamomila tugatishga erishildi. Sog‘lijni saqlash ehtiyojlariga berilayotgan mablag‘larning miqdori-yildan-yilga ko‘paytirildi, turli meditsina muassasalarining shoxobchalari kengaydi, ular zamonaviy meditsina apparatlari va asboblari bilan ta’minlandi. Sog‘lijni saqlash shoxobchalarini kengaytirish uchun shahar budjetining mablag‘laridan 1956-yilning o‘zida 60 million so‘m ajratildi. Meditsina xizmati ko‘rsatishning hududiy-uchastka tizimi tashkil etildi. 1953-yilda Samarqandda hammasi bo‘lib 4 ta birlashgan kasalxona, 3 ta poliklinika, bolalar sil kasallikkari sanatoriysi, 3 ta tug‘ruqxona, 2 ta dispanser, yuqumli kasalliklar kasalxonasi, chaqaloq bolalar uchun ochilgan 2 ta uy, 3 ta sog‘lomlashtirish punkti va 22 ta bolalar yaslilari ishlab turgan. Bundan tashqari shaharda sanoat korxonalarida 3 ta meditsina sanitariya qismlari, 4 ta kasalxona, 56 ta sog‘lomlashtirish punktlari ish olib bordi. Keyingi-yillarda shaharda 200 o‘rinli yuqumli kasalliklar kasalxonasi, 200 o‘rinli viloyat kasalxonasi ko‘rildi. Samarqand dezinfeksiya stansiyasi rekonstruksiya qilindi, tez yordam transporti ko‘paytirildi, 40 o‘rinli yangi tug‘ruqxona ochildi. Meditsina xodimlarining soni to‘xtovsiz ko‘payib bordi. 50-yillarning boshida shaharda 1206 nafar vrach ishlagan bo‘lsa, 1958-yilga kelib ularning soni 2 ming kishidan oshib ketdi. Samarqand meditsina institutining xirurgiya klinikasida 1954-yildan professor F.M.Golub rahbarligi ostida tsingan suyaklarni davolashning yangi usuli joriy qilindi. Bu usulni hatto rayon kasalxonasi sharoitida ham qo‘llash mumkin. Bu yangi usul kasallarning tezda sog‘ayib ketishiga imkon berdi.

Samarqanddagi 1-yuqumli kasalliklar klinik kasalxonasining xodimlari yuqumli kasallikkarga qarshi kurashda o‘zlarining qishloqlardagi hamkasblariga yordam berib turdilar. Vrachlar profilaktika choralarini ko‘rish bilan birga aholi o‘rtasida sanitariya-gigiyena tartibotlari ham olib bordilar. 1961-yilning o‘zida ular 230 ma’ruza o‘qidilar.

Samarqanddagi L.M.Isayev nomidagi O'zbekiston ilmiy-tekshirish meditsina parazitologiya va gelmintologiyasi instituti samarali ishlar qilmoqda. Institutda leyshmanioz, bezgak, gelmint va boshqa kasalliklarga qarshi kurash muammolari ustida tadqiqot olib boriladi.

Respublika hukumatining qator qarorlarida Samarqand aholisi sog'lig'ini saqlash ishlarini yaxshilash choralari ko'rsatilgan bo'lib, unda ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish yo'llari, yanada sernatijarok profilaktika vosita va usullari, turli kasalliklarning diagnostikasi va davolash yo'llarini qidirib topish vazifalari belgilangan. Sog'liqni saqlash muassasalarining moddiy-texnika bazasini kengaytirish va mustahkamlash, aholiga tez va kechiktirmay yordam berish ishlarining hajmini kengaytirish va sifatini yaxshilash choralari ishlab chiqilib, bunda shaharning industriya jihatidan rivojlanish sur'atlari oshib borishi jarayonida aholining turmush darjasini yaxshilanishi va aholi sonining oshishi nazarda tutilgan. Shahar kommunal xo'jaligi ishi ancha yaxshilanadi. O'sha davrda vodoprovodning uzunligi 1970-yilga borib 17,2 kilometr, yangi besh-yillikda 45 kilometr uzaytirish, kanalizatsiya kollektorlarining uzunligi 1968-yil 1 yanvarida 31 kilometr bo'lgan bo'lsa, 1975-yilga borib 61 kilometrga yetkazish nazarda tutiladi. Shu davr ichida gaz shoxobchalari 60 kilometr uzayib, ularning umumiy uzunligi 1975-yilda 199 kilometrga yetishi rejalashtirilgan.

Bu davrda birinchi navbatda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar qatoriga:

- tibbiy kadrlarni tayyorlash tizimini tubdan yaxshilash, ularning malakasini oshirish va qayta tayyorlashning samarali tizimini yaratish, buning uchun zarur bo'lgan ob'ektiv shart-sharoitlarni vujudga keltirish;

- tibbiyot ilmi va fanini reja asosida rivojlantirish, ilm-fan yutuqlarini amaliyatga tadbiq etish;

- qishloq aholisiga malakali tibbiy yordam ko'rsatishni ta'minlash, buning uchun qishloq joylardagi birlamchi tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika asosini mustahkamlash, tarmoqlarini joylashtirish;

- tibbiyot muassasalarining faoliyatini, sifat va miqdor ko'rsatkichlarini muntazam tahlil qilib borish uchun tibbiy statistika ishini talab darajasida yo'lga qo'yish kabilarni kiritish mumkin.

Bu davrda mamlakatning barcha hududlarida viloyat shifoxonalari va ixtisoslashtirilgan dispanserlarni tashkil etish, ularda ishlash uchun kadrlar tayyorlash kabi ishlar amalga oshirildi. Samarqand viloyati sog'liqni saqlash tizimi urushdan keyingi dastlabki o'n-yilliklar davomida moddiy-texnik jihatdan mustahkamlandi. 1950-yilga kelib vrachlar soni 512 taga

va 1940-yildagi 460 o‘rniga 890 taga yetkazildi. 1950-yilga kelib aholining vrachlar bilan ta’minlanishi 1940-yilga nisbatan qariyb ikki barobar oshdi va har 10 ming aholiga 4.3 o‘ringa 9.9 gacha ko‘tarildi. Shifoxonalardagi o‘rinlar soni o‘tgan besh-yil ichida 1945-yildagi 3417 dan 4954 ga yoki 44 foiz o‘sgan. Har 10 ming aholiga o‘rinlar soni 29.3 dan 52.0 gacha ko‘tarildi. O‘rta tibbiy xodimlar soni bu davrda 1940-yildagi 1116 o‘rniga 1950-yilga kelib 2150 taga yetkazildi, ayniqsa, feldsherlar soni ko‘paydi va ularning soni 244 tadan 623 tagacha, doyalar 109 tadan 158 tagacha, feldsher-doyalar 48 tadan 65 tagacha yetkazildi. Sanitariya vrachlari va epidemiologlar 8 nafardan 25 nafargacha, hamshiralar soni 500 tadan 930 taga, laborantlar 37 tadan 116 tagacha ko‘tarildi.

Urushdan keyingi besh-yilliklar davomida tibbiyot xodimlari oldidagi asosiy maqsad sifatida o‘sha vaqtarda viloyat aholisi o‘rtasida keng tarqalgan sil, teri-tanosil kasallikkleri, traxoma kabi xavfli yuqumli kasallikkarga qarshi kurashni kuchaytirish bosh vazifa qilib qo‘yilgan edi. Vujudga kelgan vaziyat talablaridan kelib chiqqan holda, bu davrda viloyatda ixtisoslashgan dispanserlar tashkil etila boshlandi. Jumladan, 1960-yilga kelib viloyatda silga qarshi kurashuvchi ixtisoslashgan muassasalar soni 5 ta, shu jumladan, 2 ta dispanser, teri tanosil kasalxonalari 30 taga, shu jumladan, 4 ta dispanser tashkil etildi. 1950-yildan boshlab terining zamburug‘li kasalliklarini aniqlash uchun aholini ommaviy ravishda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish boshlandi, shu-yili 120 mingdan ortiqroq aholi ko‘rikdan o‘tkazilgan. Ko‘z kasallikklerida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko‘rsatishni, ayniqsa, traxoma kasalligi va uning asoratlari bilan kurashish tibbiyot xodimlari oldida turgan navbatdagi muhim vazifalardan biriga aylanib qolgan edi. Bu davrda viloyatning shahar va tumanlarida 8 ta ixtisoslashtirilgan ko‘z kasallikkleri dispanser bo‘limlari va bitta traxomaga qarshi kurash dispanseri faoliyat ko‘rsatgan. 1950-yilda viloyatning Kattaqo‘rg‘on zonasida sil kasalligi bo‘yicha vujudga kelgan murakkab vaziyatni hisobga olib, shaharda 50 o‘rinli statsionar bo‘lgan sil kasalligiga qarshi kurash dispanseri tashkil etiladi. Shuningdek, bu davrda viloyatning Paxtakor, Jomboy, Xatirchi va Pastdarg‘om tumanlarida 4 ta uchastka shifoxonalari tashkil etiladi. Urushdan keyingi-yillarda Samarqand viloyatining Jomboy, Bulung‘ur, Urgut, Pastdarg‘om, Xatirchi kabi qator tumanlarida bezgak kasalligi bo‘yicha murakkab vaziyat vujudga kelgan edi. Ushbu vaziyat talablaridan kelib chiqqan holda, respublika va viloyat rahbarlari bezgak kasalligiga qarshi kurashni kuchaytirish uchun qator tadbirlar belgilashdi. Bu davrda

viloyatda bezgakka qarshi kurash avj oldirildi, bunday muassasalarning sonini ko‘paytirish, malakali kadrlarni tayyorlash dolzarb masala sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Natijada 1955-yildan boshlab bu kasallik orqaga chekina boshladi. Bezugak kasalligiga chalingan bemorlar soni har 10 ming aholiga bittagacha kamaydi, faqat ayrim joylardagina kasallik o‘choqlari saqlanib qoldi. Samarqand viloyatida bezgak kasalligiga qarshi kurashda davlat mukofoti laureati professor L.M.Isayev rahbarlik qilayotgan tibbiy parazitologiya ilmiy tadqiqot instituti va viloyat bezgakka qarshi kurash markazi katta rol o‘ynadi. Aholini xinin dorisi bilan qamrab olish ishi ommaviy tus oldi. Bu davrda viloyat kolxozlari hisobiga 5 mingdan ziyod xinazorlar faoliyat ko‘rsatishgan. Agar 1945-yilda bezgak plazmodiysiga 245861 kishi tekshirilgan bo‘lsa, 1950-yilga kelib 374.692 kishiga yetkazilgan. Bu davrda ayniqsa, viloyat sanitariya-epidemiologiya markazlari faoliyati kuchaytiriladi. Ayrim yuqumli ichak kasalliklari xavfi yuqori bo‘lgan tumanlarda aholining 70 foizigacha emlash bilan qamrab olindi. Oqibatda viloyatda ichburug‘ bilan aholining kasallanishi 5 marotaba, difteriya bilan 4 marotaba, skarlatina bilan 6 martagacha kamaydi.

Viloyatda aholiga teri-tanosil kasalliklaridan ixtisoslashgan tibbiy yordam ko‘rsatish 1970-yilga kelib 380 o‘rinli 6 ta dispanserlarda, tumanlardagi 11 ta dermato-venerologik xonalarda amalga oshirilgan. Terining aholi o‘rtasida keng tarqalgan zamburug‘li kasalliklarini aniqlash uchun ommaviy ravishda aholining alohida qatlamlarini, ayniqsa, mifik o‘quvchilarini tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish uchun viloyat bo‘yicha 54 ta mifologik brigadalar ishlagan. 1965-1969-yillarda ular tomonidan 634640 kishi ko‘rikdan o‘tkazilgan. Aniqlangan bemorlarni shifoxonalarga yotqizib davolanishning tashkil etilishi natijasida viloyatda bunday kasalliklar keskin kamaytirildi. O’sha davrlarda keng tarqalgan yuqumli kasalliklardan hisoblangan bezgak, traxoma, rishta, sil, terining zamburug‘li kasalliklari, o‘tkir ichak yuqumli kasalliklarining oldini olishda va keyinchalik ularning ko‘pchiliginini tugatishda viloyat sanitariya-epidemiologiya xizmatining roli katta bo‘lgan. Urushdan keyingi 1950-1960-yillarda mazkur xizmatning moddiy-texnika asosi mustahkamlandi, tajribali kadrlar bilan to‘ldirildi, jamiyatda va xalq orasida obro‘sni yanada oshdi. 1958-1959-yillarda qishloq sog‘liqni saqlash tizimning isloh qilinishi va qayta tashkil etilishi jarayonida sanitariya-epidemiologiya markazlari tuman markazi shifoxonalari bilan qo‘shildi. Tarixan salbiy hodisa sifatida o‘rin olgan ushbu jarayon sanitariya-epidemiologiya xizmatining faoliyatiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatdi, uning moddiy-

texnika asosi kuchsizlandi, kadrlar qo‘nimsizligini keltirib chiqardi. Vujudga kelgan vaziyatdan chiqish uchun respublika hukumati sog‘liqni saqlash tizimida sanitariya-epidemiologiya xizmati o‘rnini to‘g‘ri belgilab berish maqsadida tajriba tariqasida Samarcand viloyatidagi sanitariya-epidemiologiya markazlarini 1968-yil 1 yanvardan viloyat budgetidan moliyalashtirish haqida qaror qabul qildi. Viloyat budgetidan moliyalashtirish viloyat sanitariya-epidemiologiya markazlari orqali amalga oshirila boshlandi. Oqibatda shahar va tuman sanitariya-epidemiologiya markazlarining moddiy texnika asosi qisqa vaqt orasida mustahkamlandi, tibbiy asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlarini olish, transport ta’minoti, shtat birliklarini ajratish keskin yaxshilandi. Faqat o‘tgan bir-yil ichida ushbu maqsadlarga ajratilgan mablag‘ 28,3 ming so‘mdan 173,9 ming so‘mga, lavozimlar soni 84,5 birlikka, shu jumladan, vrach lavozimlari 22 birlikka oshdi. Mazkur ijobiy tajriba tez orada butun respublika va sobiq ittifoq respublikalari tomonidan amaliyat uchun qabul qilindi. Sanitariya-epidemiologiya xizmati va barcha tibbiyot xodimlari tomonidan olib borilgan ishlar natijasida 1959-yilga nisbatan 1969-yilda difteriya 15 marta, ko‘k yo‘tal 6,5 ga kamayib, traxoma kasalligi ommaviy kasallik sifatida tugatildi, sibir yarasi esa keskin kamaytirildi. Keyingi o‘n-yilliklar davomida esa viloyat sog‘liqni saqlash bo‘limi o‘z faoliyatini aholi o‘rtasida keng tarqalgan gijja kasalliklari — askaridoz, teniarinxoz va geminolipedoz (P.M.Lerner, 1967y, A.Sh.Bedjanyans, 1971 y) kabilar bilan kurashishga qaratdi. Bu davrda har-yili gelmentoskopik tekshiruvlar bilan o‘rtacha 25-30% aholi qamrab olinar edi. Mazkur kasalliklarni bilish maqsadida aholi o‘rtasida so‘rov o‘tkazish bilan 90 foiz aholi qamrab olinar edi. Bunday ommaviy o‘tkazilgan tadbirlar natijasi o‘laroq, viloyat aholisi o‘rtasida gijja kasalliklari bilan kasallanish-yildan-yilga kamayib bordi. Viloyat sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlari va butun tibbiyot xodimlari viloyat miqyosida o‘tkaziladigan bunday tadbirlarda Qizil yarim oy jamiyati xodimlari bilan uzviy aloqadorlik o‘rnatgan holda amalga oshirar edi.

1935-yilda tashkil etilgan Samarcand viloyat Qizil yarim oy jamiyati o‘tgan davr mobaynida aholi o‘rtasida katta obro‘ qozondi. 1968-1969-yillarda jamiyatning 284 ta tibbiy hamshirasi bo‘lib, surunkali kasalliklari bo‘lgan bemorlarni uyiga borib qarashda sog‘liqni saqlash xodimlari bilan yonma-yon mehnat qilishgan. Qizil xoch va Qizil yarim oy jamiyati qoshida tashkil etilgan hamshiralari tayyorlash kurslarida o‘sha davrlarda 1598 ta hamshira tayyorlangan. Shuningdek, Qizil yarim oy jamiyatining jamoatchilik inspektorlari aholi o‘rtasida profilaktika tadbirlarini o‘tkazib

borishda muntazam ravishda qatnashib, tibbiyot xodimlarining yaqin yordamchilari sifatida faoliyat ko‘rsatishgan. Respublika hududida bezgak va boshqa tropik kasalliklar ko‘p bo‘lgani uchun 1921-yilda Toshkent, Sirdaryo viloyatining Mirzacho‘l tumani va Samarcand viloyatida bezgakka qarshi kurashuvchi stansiyalar tuziladi. Samarcand viloyatida bu stansiyalarga 9 ta shtat birligi berilgan.

## **2-BOB**

# **SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIYA XIZMATI MUSTAQILLIK-YILLARIDA**

### **2.1. Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati tizimida islohotlar**

Mustaqillik-yillarida tibbiyotning boshqa sohalari qatori viloyat Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmatiga ham katta e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1992-yil 3 iyulda «Davlat sanitariya nazorati to'g'risida»gi qonunni qabul qildi. Bu esa xizmat tizimini joylarda qonuniy tarzda yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1998-yil 2 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Sanitariya qonunlari buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi farmoni chiqdi. Bu muhim hujjat aholining sog'lom turmush tarzini yuzaga keltirish, o'z hududi ozodaligini saqlash mas'uliyatini kuchaytirishga xizmat qildi.

**Hozirgi kunda davlat sanitariya nazoratini yanada kuchaytirish va aholini turli yuqumli kasallikkardan himoyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 26 avgustdagи O'RQ-393-sonli «Aholinaing sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi.**

Mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar jarayonida aholi salomatligini muhofaza qilish, sog'lom va uzoq umr kechirishi uchun qulay turmush sharoitini yaratishga qaratilayotgan doimiy e'tibor inson manfaatlarini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Xususan, sanitariya-epidemiologiya nazoratini samarali tashkil etish, xavfli yuqumli kasallikkarning chetdan kirib kelishi va tarqalishining oldini olish, emlash orqali yuqumli kasallikkarga qarshi kurashishda sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Bugungi kunda sanitariya-epidemiologiya xizmatining moddiy-texnika bazasi tobora mustahkamlanib, joylarda faoliyat yuritayotgan sanitariya nazorati punktlari tomonidan yurtimizga chetdan yuqumli kasalliklar kirib kelishi va aholi orasida tarqalishini oldini olish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ishlari tizimi bajarilayotir.

Bolalarni yuqumli kasallikkarga qarshi bepul emlash bo'yicha milliy taqvim yangi vaksinalar bilan boyitilyapti.

Sohaga yo‘naltirilayotgan Davlat budjeti mablag‘lari-yildan-yilga oshirilmoqda. Ichimlik suvi sifati va ochiq suv havzalari ustidan monitoring olib borish, bozorlar, ovqatlanish shoxobchalar, jamoat joylarida sanitariya holatini yaxshilash, chiqindilarning inson salomatligiga salbiy ta’sirining oldini olish, atrof muhit musaffoligini saqlash chora-tadbirlari ham doimiy e’tiborda turibdi.

Globallashuv jarayoni tobora chuqurlashayotgan, taraqqiyot kundankunga ilgarilayotgan hozirgi davrda bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish ayni zaruratdir.

Shu ma’noda, 2015-yil 26 avgustda kuchga kirgan O’RQ-393 sonli «Ahollining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida»gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni mazmun-mohiyati va ahamiyatiga ko‘ra g‘oyatda dolzarb hisoblanadi.

Aytish joizki, mazkur hujjat bilan ushbu sohada profilaktika tadbirlarini o‘tkazishda sanitariya-gigiyena me’yorlari va qoidalariiga rioya qilishning barqaror tizimi yaratildi.

Qonunda sanitariya-epidemiologik osoyishtalik sohasidagi munosabatlар tartibga solinib, bu boradagi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Sanitariya qoidalari, normalar va gigiyena normativlari, davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi organlar va ularning vakolatlari, davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning huquq va majburiyatları, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minalashda davlat hokimiyati va boshqaruв organlaridan tashqari fuqarolik institutlarining ishtiroki aniq ko‘rsatilgan.

Shuningdek, atrof-muhitni sog‘lomlashtirish, insonning ovqatlanish, mehnat qilish, dam va ta’lim tarbiya olish shart-sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan sanitariya-gigiyena ishlari, epidemiyaga qarshi kompleks chora-tadbirlari tashkil etish, aholining sanitariya madaniyatini yuksaltirishda hamkorlik masalalariga ham muhim e’tibor qaratilgan.

Korxonalarни texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, kimyoviy va biologik moddalarni zararsizlantirishga, oziq-ovqat mahsulotlari hamda ularni ishlab chiqarishga, tashishga, mehnat sharoitlari, kasalliklarning paydo bo‘lishi va tarqalishiga doir sanitariya-epidemiologik talablar aniqlashtirilgan qonunning muhim jihatlaridan biri hisoblanadi.

Viloyat DSENM tashkiliy bo‘limi qoshida sohaga oid barcha Qonun, Farmon, Qaror, Nizom va boshqa me’oriy hujjatlar uchun yig‘ma va elektron kutubxona tashkil qilindi. Bunday kutubxonalar endilikda barcha

shahar va tumanlar DSENMLarida mavjud. Bir so‘z bilan aytganda sanitariya xizmati Davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Markazning barcha binolari, laboratoriyalari tubdan ta’mirlandi, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Endilikda bu yerda analizlar oxirgi toifadagi polyarograf, xromatograf va multiskan uskunalari orqali amalga oshirilayotir.

Eng muhim, soha xodimlarining sa’y-harakati bilan ko‘plab yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga erishildi. Masalan, 1993-1995 va 1997-1998-yillarda Bulung‘ur, Tayloq, Urgut, Samarqand va Kattaqo‘rg‘on tumanlarida qorin tifi va paratif kasalliklari xuruji kuzatildi. Epidemiologik holat ilmiy-amaliy jihatdan tahlil etilgach, soha xodimlari bu joylarda darhol rejali ishga kirishdilar. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlash chora-tadbirlari ko‘rildi. Yuqorida nomlangan tumanlar aholisining xavfli guruhlari aniqlanib Fransiyadan olib kelangan vaksina bilan emlandi. Natijada keyingi-yillarda bu kasallikning takrorlanishiga yo‘l qo‘yilmadi.

## **2.2. Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati yangi islohotlar davrida**

Mamlakatimizda so‘nggi-yillarda sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni saqlash, yashash muhiti xavfsizligini va inson sog‘lig‘ini muhofaza qilishni ta’minlash, sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati tizimini takomillashtirish, ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, bitta davlat organi doirasida bir vaqtning o‘zida davlat sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta’minlash funksiyalarining ushbu sohada ruxsat berish va nazorat funksiyalari bilan birga amalga oshirilishi O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyati samaradorligini ta’minlashga to‘sqinlik qiluvchi tizimli muammolar yuzaga kelishiga olib keldi.

Ushbu farmon Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemiologiya xizmati faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, uning institutsional salohiyatini oshirish, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilishi sohasida ta’sirchan monitoring va nazoratni yo‘lga qo‘yish maqsadida, shuningdek, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida va O‘zbekiston Respublikasida Ma’muriy islohotlar konsepsiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq qabul qilingan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining:

a) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmati tashkilotlari va ularning hududiy bo'linmalari negizida;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanitariya-epidemiologiya nazorati davlat inspeksiyasi va uning hududiy bo'linmalarini;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligini tashkil etish;

b) O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining Sanitariya-epidemiologiya nazorati bosh boshqarmasini tugatish va uning shtat birliklarini Agentlikka o'tkazish;

v) qayta tashkil etilayotgan Respublika davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazining laboratoriya xizmati negizida, moliyalashtirishning amaldagi tartibi saqlab qolningan holda, Agentlik huzuridagi Laboratoriya kompleksini tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullandi.

Davlat inspeksiyasining asosiy vazifalari:

sanitariya-epidemiologiya nazorati sohasida davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari faoliyatini samarali muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilishni ta'minlash;

yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (SanQvaN) riosa qilinishi bo'yicha belgilangan tartibda tekshirishlar o'tkazish va sanitariya-epidemiologik osoyishtalik sohasida qonunbuzilishlar bo'yicha ma'muriy javobgarlik choralarini belgilangan tartibda qo'llash;

oziq-ovqat xom ashyosi va iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va sotish faoliyati bilan shug'ullanuvchi ob'ektlar faoliyati, shuningdek, zarur xalqaro amaliyotlarni qo'llash tajribasiga asoslangan standartlar talablariga riosa qilish ustidan nazorat qilish metodologiyasini ishlab chiqish va joriy etishda ishtirok etish;

xavf-xatarlarni barvaqt aniqlashni ta'minlash, baholash va bartaraf etish maqsadida kelib chiqishi oziq-ovqat bilan bog'liq kasalliklar ustidan milliy monitoring olib borish va nazorat qilish tizimini joriy etish;

tarmoqning tegishli kadrlarga bo'lgan joriy va istiqboldagi ehtiyojini hisobga olgan holda, kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg'or usullarini tizimli asosda joriy etish.

Agentlikning asosiy vazifalari etib belgilansin:

Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasida yagona davlat siyosatini olib borish, davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining faoliyatini samarali muvofiqlashtirish va ular bilan hamkorlik qilishni ta’minlash;

sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini (SanQvaN) xalqaro standartlar va normalarga muvofiq uyg‘unlashtirish va dolzarbligiga qarab takomillashtirishni hisobga olgan holda ishlab chiqish va joriy etish;

yuqumli bo‘limgan, yuqumli, parazitar kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan epidemiyaga qarshi va sanitariya-gigiyenik tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

yuqumli va parazitlar kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan profilaktik dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya tadbirlari o‘tkazilishini tashkil qilish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

jamoat salomatligini ta’minlash sohasida potensial xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va boshqarish jarayonida xavf-xatarlarni tahlil qilish va ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi siyosatni amalga oshirishga ko‘maklashish;

O’zbekiston Respublikasi hududida o‘latning tabiiy o‘choqlari epizootologik monitoringini olib borishni, o‘lat va o‘ta xavfli infeksiyalar bo‘yicha epidemiologik nazorat hamda profilaktik va epidemiyaga qarshi kompleks tadbirlar amalga oshirilishini tashkil etish, muvofiqlashtirish va nazorat qilish;

sanitariya, gigiyena, epidemiologiya, parazitologiya, mikrobiologiya, virusologiyaning dolzarb masalalari bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlarni belgilash hamda fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlar olib borilishini muvofiqlashtirish;

barcha ijtimoiy guruhlarni qamrab olgan holda fuqarolarni sanitariya-gigiyenik o‘qitish va tarbiyalashni tashkil etishga qaratilgan amaliy choratadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish orqali aholining sanitariya madaniyati darajasini oshirish;

tarmoqning joriy va istiqboldagi ehtiyojlarini hisobga olgan holda kadrlarni o‘qitish, tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning ilg‘or usullarini tizimli asosda joriy etish.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanitariya-epidemiologiya nazorati davlat inspeksiyasining tashkiliy tuzilmasi ;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanitariya-epidemiologiya nazorati davlat inspeksiyasining boshqaruvi xodimlari cheklangan soni 28 nafardan iborat markaziy apparati tuzilmasi;

Davlat inspeksiyasining hududiy boshqarmalari xodimlarining cheklangan soni 4179 nafardan iborat etib;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati boshqarmalarining namunaviy tuzilmasi;

davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati boshqarmasi tuman (shahar) filialining namunaviy tuzilmasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligining tashkiliy tuzilmasi;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligining boshqaruvi xodimlari cheklangan soni 45 nafardan iborat bo'lgan markaziy apparati tuzilmasi;

O'zbekiston Respublikasi davlat sanitariya-epidemiologiya xizmatining qo'shib olish, qo'shib yuborish, o'zgartirish va tugatish yo'li bilan faoliyati optimallashtirilayotgan tashkilotlari (laboratoriyalari va bo'linmalari) ro'yxati;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4055-son qaroriga kiritilayotgan o'zgartirishlar ro'yxati tasdiqlangan.

Davlat inspeksiyasi boshlig'iga zarur hollarda Davlat inspeksiyasi markaziy apparati va uning hududiy boshqarmalari tuzilmasiga ularning boshqaruvi xodimlari cheklangan umumiyligi soni doirasida o'zgartirishlar kiritish;

Agentlik direktoriiga zarur hollarda O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vaziri bilan kelishilgan holda Agentlikning markaziy apparati tuzilmasiga boshqaruvi xodimlari cheklangan umumiyligi soni doirasida o'zgartirishlar kiritish huquqi berilgan.

Davlat inspeksiyasi boshlig'i bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya inspektori hisoblanadi, O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Davlat inspeksiyasi boshlig'inining o'rinnbosari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Davlat inspeksiyasi boshlig‘i va o‘rinbosari maqomi, tibbiy va transport xizmati ko‘rsatish sharoitlari bo‘yicha tegishinchalashuv vazir va vazir o‘rinbosariga tenglashtiriladi;

Agentlik direktori bir vaqtning o‘zida O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachi hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Agentlik direktorining o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining taqdimnomasiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi;

Agentlik direktori maqomi, maishiy, tibbiy va transport xizmati ko‘rsatish sharoitlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash vazirining o‘rinbosariga tenglashtiriladi;

Davlat inspeksiyasi va Agentlik huzurida yuridik shaxs tashkil etmasdan budgetdan tashqari moddiy rag‘batlantirish va rivojlantirish jamg‘armalari tashkil etildi.

Tugatilayotgan davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazlarining budgetdan tashqari hisob raqamlaridagi barcha mablag‘lar Agentlik jamg‘armasiga to‘liq o‘tkaziladi.

Mablag‘larni shakllantirish manbalari:

Davlat inspeksiyasi jamg‘armasi:

sanitariya-epidemiologiya qonunchiligini buzganlik uchun qo‘llanilgan jarimalar summasidan va jarimalarni to‘lash kechiktirilganligi uchun hisoblangan penyalardan tushgan mablag‘larning 50 foizi;

jamg‘arma mablag‘larini tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar;

xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning belgilangan tartibda jalb etiladigan grant va homiylik mablag‘lari;

qonun hujjalarda taqiqilanmagan boshqa manbalar;

Agentlik jamg‘armasi:

idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ixtisoslashgan pullik xizmatlar ko‘rsatishdan tushgan tushumlarning ularni amalga oshirishga ketgan jami xarajatlar qoplangandan keyin qolgan summasining 15 foizi;

jamg‘arma mablag‘larini tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar;

xalqaro moliya institutlari va tashkilotlarining, yuridik va jismoniy shaxslarning belgilangan tartibda jalg etiladigan grant va homiylik mablag‘lari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Tibbiy-sanitariya xodimlarini kasbiy rivojlantirish tizimini yaxshilash, sohada yetuk va chuqur bilimga ega kadrlarni zamonaviy ta’lim standartlari asosida tayyorlash, tibbiyot tashkilotlari, ayniqsa birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarini professional mutaxassislar bilan ta’minlash, tibbiyot ta’lim muassasalarini professor-o‘qituvchilarining mavqeyini oshirish, shuningdek, 2019 — 2025-yillarda O’zbekiston Respublikasining sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarni izchil amalga oshirish maqsadida ushbu O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7 apreldagi «Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzlusiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4666-son qarori qabul qilindi.

#### QARORLAR:

1.13.00.00.00 Ta’lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta’lim / 13.01.04.00 Ta’lim muassasalari / 13.01.04.03 Litseylar, kollejlar;

2.14.00.00.00 Sog‘liqni saqlash. Jismoniy tarbiya. Sport. Turizm / 14.01.00.00 Sog‘liqni saqlash / 14.01.02.00 Tibbiyot muassasalari va xodimlari / 14.01.02.01 Tibbiyot muassasalariga qo‘yiladigan talablar

Qarorga asosan 2020/2021 o‘quv-yilidan boshlab 47 ta tibbiyot kollejlarini Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlari etib qayta tashkil etish topshirilgan. Shuningdek,

Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlarining moddiy-texnik bazasini yanada kuchaytirish, amaliyot xonalarini belgilangan normativlarga asosan jihozlash, o‘quv-simulyatsion auditoriyalarni tashkil etish;

valeologiya, tibbiy psixologiya, nutritsiologiya, diyetologiya, farmakologiya, kineziologiya, reabilitologiya, profpatologiya fanlarini chuqurlashtirilgan holda o‘qitilishini joriy etish hamda mazkur texnikumlarning o‘quv rejalarini va fan dasturlarini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqish;

tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining yuqori malakali professor-o‘qituvchilarini jalb qilgan holda Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlarida masofaviy ta’lim orqali dars mashg‘ulotlarini o‘tkazish ko‘zda tutilgan.

Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatligi texnikumlarini

## **QARORLAR:**

1.13.00.00.00 Ta’lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta’lim / 13.01.18.00 Ta’lim muassasalariga qabul qilish, o‘qishini ko‘chirish, o‘qishdan chetlashtirish va qayta tiklash]

muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o‘z sohasiga mos tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha kirish imtihonlarisiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta’lim muassasalarida 2-kursdan o‘qishini davom ettirish huquqiga ega bo‘ladi.

## **QARORLAR:**

1.13.00.00.00 Ta’lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta’lim / 13.01.06.00 Ta’lim muassasalarini moliyalashtirish, moddiy texnika ta’minoti va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash]

joriy saqlash, faoliyat yuritish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va kadrlar tayyorlash xarajatlari Vazirlikning budjetdan tashqari mablag‘lari, o‘quvchilarni davlat buyurtmasi va to‘lov-kontrakt asosida o‘qitishdan tushadigan mablag‘lar hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

2020/2021 o‘quv-yilidan boshlab:

## **QARORLAR:**

1.14.00.00.00 Sog‘lijni saqlash. Jismoniy tarbiya. Sport. Turizm / 14.01.00.00 Sog‘lijni saqlash / 14.01.01.00 Umumiyl qoidalar / 14.01.01.01 Sog‘lijni saqlash sohasida boshqaruv]

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining davolash (amaliyot) ishlari prorektorlari (direktor o‘rinbosarlari) bir vaqtning o‘zida ushbu oliy ta’lim muassasa klinikalarining bosh shifokorlari hisoblanadi.

T1.13.00.00.00 Ta’lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta’lim / 13.01.03.00 Davlat ta’lim standartlari. Ta’lim dasturlari. Ta’lim jarayoni]

tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida bakalavriat ta’lim yo‘nalishlari, magistratura va klinik ordinatura (rezidentura) mutaxassisliklari o‘quv rejalaridagi mutaxassislikka oid bo‘lmagan fanlar ulushi 2 barobarga qisqartiriladi, klinik ordinaturasiga (rezidenturasiga) maqsadli qabul qilingan talabalarning bitiruv kursini viloyat darajasidagi tibbiyot muassasalarida tashkil etish tizimi yo‘lga qo‘yiladi.

## **QARORLAR:**

1.13.00.00.00 Ta’lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta’lim / 13.01.18.00 Ta’lim muassasalariga qabul qilish, o‘qishini ko‘chirish, o‘qishdan chetlashtirish va qayta tiklash;

2.13.00.00.00 Ta’lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta’lim / 13.01.22.00 Davlat grantlari. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan fuqarolarning ta’lim olishi]

Hududlarning shifokorlarga bo‘lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda tibbiyot oliy ta’lim muassasalari bakalavriatning «Davolash ishi», «Pediatriya ishi» va «Kasbiy ta’lim (davolash ishi)” ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha davlat granti asosida o‘qishga qabul ko‘rsatkichlari doirasidagi maqsadli qabul parametrлари tuman (shahar)lar kesimida shakllantiriladi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari «Davolash ishi», «Pediatriya ishi» va «Kasbiy ta’lim (davolash ishi)” yo‘nalishlari bitiruvchilari yashash bo‘yicha ro‘yxatga olingan joyidan qat’iy nazar davlat granti asosida maqsadli qabul parametrларida ko‘rsatilgan tuman (shahar)da kamida 5-yil ishlab berish majburiyati kiritiladi.

O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda 2020/2021 o‘quv-yilida tibbiyot oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrларини shakllantirishda tibbiyot kadrlariga ehtiyoj yuqori bo‘lgan hududlar uchun bakalavriat va magistraturaga davlat granti asosida o‘qishga maqsadli qabul parametrларини 50 foizgacha oshirishni inobatga olish yuklatilgan.

2020/2021 o‘quv-yilidan boshlab:

#### QARORLAR:

1.13.00.00.00 Ta’lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta’lim / 13.01.22.00 Davlat grantlari. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan fuqarolarning ta’lim olishi]

Ta’lim bosqichidan qat’iy nazar chet tilini bilish darajasi to‘g‘risidagi xalqaro sertifikatga ega bo‘lgan tibbiyot oliy ta’lim muassasalari talabalariga (mutaxassislik fanlarni «qoniqarli» bahoga o‘zlashtirayotgan talabalardan tashqari) Talabalarni rag‘batlantirish jamg‘armasi mablag‘лари hisobidan har oylik stipendiyasiga bazaviy stipendiya miqdorida qo‘sishcha to‘lov amalga oshiriladi.

#### QARORLAR:

1.14.00.00.00 Sog‘liqni saqlash. Jismoniy tarbiya. Sport. Turizm / 14.01.00.00 Sog‘liqni saqlash / 14.01.01.00 Umumiy qoidalar / 14.01.01.02 Sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish va ta’minoti]

Davlat tibbiyot muassasalarining xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education, Academic Ranking of World Universities) reytingidagi tibbiyot yo'nalishida birinchi 200 o'rinni egallagan oliy ta'lim muassasalarida klinik ordinatura (rezidentura) va magistratura mutaxassisligini tamomlagan, shuningdek, falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olgan xodimlari lavozim maoshiga quyidagi miqdorda har oylik qo'shimcha ustama to'lanadi.

Klinik ordinatura (rezidentura) va magistratura mutaxassisligini tamomlagan xodimga — mehnatga haq to'lashni eng kam miqdorining yetti baravariga teng miqdorda, falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasini olgan xodimga — mehnatga haq to'lashni eng kam miqdorining o'n besh baravariga teng miqdorda har oylik qo'shimcha ustama to'lanadi.

#### **QARORLAR:**

1.14.00.00.00 Sog'liqni saqlash. Jismoniy tarbiya. Sport. Turizm / 14.01.00.00 Sog'liqni saqlash / 14.01.08.00 Aholining sanitariya-epidemiologik sog'lomligi / 14.01.08.01 Umumiy masalalar]

Sog'liqni saqlash vazirligi O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Innovatsion sog'liqni saqlash milliy palatasi bilan birgalikda

#### **QARORLAR:**

1.13.00.00.00 Ta'lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta'lim / 13.01.11.00 Oliy ta'lim (bakalavriat va magistratura)]

jamoat salomatligi va sanitariya-epidemiologiya nazorati xizmatlari sohasida oliy ma'lumotli kadrlarni tayyorlash bo'yicha alohida tibbiyot oliy ta'lim muassasasini tashkil qilishi va o'quv jarayonini 2020/2021 o'quv-yilidan boshlashi nazarda tutilgan.

#### **QARORLAR:**

1.13.00.00.00 Ta'lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta'lim / 13.01.04.00 Ta'lim muassasalari / 13.01.04.06 Xorijiy oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallari]

#### **QARORLAR:**

1.13.00.00.00 Ta'lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta'lim / 13.01.11.00 Oliy ta'lim (bakalavriat va magistratura)]

#### **QARORLAR:**

1.13.00.00.00 Ta’lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta’lim / 13.01.22.00 Davlat grantlari. Ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan fuqarolarning ta’lim olishi]

**QARORLAR:**

1.13.00.00.00 Ta’lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta’lim / 13.01.26.00 Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va o‘quv qurollari]

Vazirlik O’zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligi bilan birgalikda 2020-yil 1 avgustga qadar mutaxassislik yo‘nalishlarida asosiy hisoblangan xalqaro tan olingan mualliflarning adabiyotlari, shuningdek, profilaktika, diagnostika va davolashning zamonaviy usullarini qo‘llash bo‘yicha xorijiy darsliklarni mualliflik huquqlar talablariga rioya qilgan holda belgilangan tartibda o‘zbek tiliga tarjima qilish asosida tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat, magistratura va klinik ordinatura o‘quv dasturlarini qayta ko‘rib chiqishi zarur.

Bunda ushbu tadbirlarni moliyalashtirish Vazirlik va tibbiyot oliy ta’lim muassasalarining budgetdan tashqari mablag‘lari hamda O’zbekiston Respublikasining davlat budgeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

**QARORLAR:**

1.13.00.00.00 Ta’lim. Fan. Madaniyat / 13.02.00.00 Fan / 13.02.04.00 Ilmiy xodimlar, ilmiy muassasalar mutaxassislari (maqom, attestatsiya, ilmiy daraja va unvonlar)]

2020-yil 1 sentyabrdan Nukus, Andijon, Buxoro, Samarcand, Urganch va Farg‘ona shaharlarida joylashgan tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida belgilangan tartibda falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajalarini beruvchi ilmiy kengashlar tashkil etiladi.

**QARORLAR:**

1.13.00.00.00 Ta’lim. Fan. Madaniyat / 13.01.00.00 Ta’lim / 13.01.32.00 Malaka oshirish. Qayta tayyorlash]

Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutini Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi etib qayta tashkil etiladi.

Toshkent shahridagi 1-son Respublika klinik shifoxonasi negizida Markazning ko‘p tarmoqli klinikasi tuziladi.

Tibbiyot oliy ta’lim muassasalari mavjud bo‘lmagan hududlarda (Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Namangan va Sirdaryo viloyatlarida) hududiy ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlarida Markazning filiallari ochiladi.

Markazda 2021-yilgi O’zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi mablag‘lari

hisobidan xalqaro standartlarga javob beradigan o‘quv-simulyatsion markazini tashkil qilinadi.

### QARORLAR:

1.05.00.00.00 Mehnat va aholining bandligi to‘g‘risidagi qonunchilik / 05.04.00.00 Kafolatlar va kompensatsiyalar / 05.04.03.00 Malaka oshirishga yuboriladigan xodimlar uchun kafolatlar;

2.05.00.00.00 Mehnat va aholining bandligi to‘g‘risidagi qonunchilik / 05.08.00.00 Kasbiy tayyorgarlik, malaka oshirish va qayta tayyorlash]

Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz kasbiy malakasini oshirish tizimida 2020-yil 1 sentyabrdan boshlab akkreditatsiyadan o‘tmasdan, Vazirlik tomonidan har-yili tasdiqlanadigan o‘quv dasturlari asosida o‘qitish huquqi quyidagi muassasa va tashkilotlarga taqdim etilgan:

O’zbekiston Respublikasining Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan va pullik asosda — respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari, tibbiyot va farmatsevtika sohasidagi ilmiy-tadqiqot institutlari va hududiy ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari;

pullik asosda — nodavlat tibbiyot oliv ta’lim muassasalari hamda tegishli tibbiy-sanitariya mutaxassisliklar bo‘yicha o‘quv-simulyatsion markazi (shu jumladan mobil o‘quv-simulyatsion markaz) va ilmiy darajaga ega mutaxassislari mavjud bo‘lgan xususiy tibbiyot tashkilotlari.

Tuman (shahar) tibbiyot birlashmalari, shu jumladan birlamchi tibbiyot-sanitariya yordami muassasalari xodimlarining uzluksiz kasbiy malakasini oshirish mazkur bandda belgilangan muassasa va tashkilotlar tomonidan joylarda tashkil etiladigan sayyor sikllar va masofadan turib o‘qitish asosida amalga oshirilishi belgilangan.

Vazirlik uzluksiz kasbiy malaka oshirish tizimida tibbiyot xodimlarini o‘qitish bilan shug‘ullanadigan tashkilotlarga yuqori malakali xorijiy mutaxassislarni jalb qilgan holda maxsus o‘quv kurslarini tashkil qilishda yaqindan ko‘maklashish lozim.

### 2021-yil 1 yanvardan boshlab:

shifokorlar uchun har 5-yilda malaka toifasini olish bo‘yicha majburiy attestatsiyadan o‘tish tartibi kiritiladi hamda ularga qulaylik yaratish va shaffof o‘tkazilishini ta’minalash uchun attestatsiyani onlayn tartibda audio va videokuzatuv ostida tashkil etish tizimi joriy etiladi;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari tibbiyot xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazish uchun to‘lov bekor qilinadi.

Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlari uchun malaka oshirishni nazarda tutuvchi uzluksiz kasbiy ta’lim tizimini joriy etgan tibbiyot oliv

ta’lim muassasalari (shu jumladan nodavlat tibbiyot oliy ta’lim muassasalari), respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari va ularning filiallari, ilmiy-tadqiqot institutlari, hududiy ko‘p tarmoqli tibbiyot markazlari va nodavlat tibbiyot tashkilotlariga malaka oshirishdan muvaffaqiyatli o‘tgan mutaxassislarga o‘tilgan o‘qish kreditlari ko‘rsatilgan holda Vazirlik tomonidan belgilanadigan namunadagi sertifikat rasmiylashtirish huquqi berilgan.

Tibbiyotda yangi islohotlarning huquqiy asoslaridan sanalmish

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25 iyuldagি

«Koronavirus pandemiyasini yumshatish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va salomatligini saqlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6035 sonli Farmoning mazmun mohiyatiga e’tibor bersak, unda aholi o‘rtasida turli xil yuqumli kasalliklar epidemiyasi ayniqsa dunyo aholisini qamrab olgan pandemiya davrida **sanitariya-epidemiologiya xizmatini tashkillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligini anglab olamiz.**

Dunyoda koronavirus pandemiyasi xavfining tobora kuchayib borayotgani yuqumli kasalliklar, shu jumladan koronavirus infeksiyasiga qarshi kurashish faoliyatidagi yondashuvlarni hamda sanitariya-epidemiologiya xizmatining institutsional asoslari va tashkiliy tuzilmasini hozirgi murakkab sharoit va orttirilgan tajribalardan kelib chiqib takomillashtirishni talab etmoqda.

Ayniqsa, kasalliklarning oldini olish va ularni profilaktika qilish, erta aniqlash, to‘g‘ri tashxis qilish va davolashda sanitariya-epidemiologiya xizmati bilan birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalari (qishloq vrachlik punktlari va oilaviy poliklinikalar, tez yordam stansiyalari va shoshilinch tibbiy yordam muassasalari) o‘rtasida tuzilmaviy bog‘liqlik va o‘zaro hamjihatlikdagi faoliyatni yo‘lga qo‘yish zarur.

Shuningdek, jamoat salomatligini saqlashda kasalliklar profilaktikasi, inson immunitetini mustahkamlash, buning uchun avvalam bor to‘g‘ri ovqatlanish va jismoniy faollilikni oshirishni tizimli tashkil etish hamda sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish ustuvor vazifaga aylanmoqda.

Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi va jamoat salomatligini ta’minlashning mahallalar va aholi xonadonlari darajasigacha qamrab oladigan yaxlit tizimini yaratish, sanitariya-epidemiologiya xizmatining yaqin va o‘rta istiqboldagi rivojlanishini belgilash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash (zamonaviy laboratoriyalar, asbob-uskunalar, maxsus texnika, test tizimlari, himoya vositalari va boshqalar),

soha uchun kadrlarni tayyorlash va jalb qilish maqsadida mazkur farmon qabul qilingan.

Farmonga ko‘ra Sog‘liqni saqlash vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda:

mahallalar va aholi xonadonlarida yuqumli kasalliklar, shu jumladan koronavirusning oldini olish, simptomsiz, yengil kechayotgan bemorlar va ular bilan muloqotda bo‘lgan shaxslarga zarur tibbiy yordam ko‘rsatish bo‘yicha har bir oilaviy poliklinikalar va ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarda mobil guruhlarni tashkil qilish;

mobil guruhlar tarkibiga birinchi navbatda malakali shifokor yoki infekzionist hamda patronaj hamshirasi kiritilishini ta’minlash;

Moliya vazirligini jalb qilgan holda mobil guruhlarni dori-darmon, aloqa, transport vositalari va boshqa zarur asbob-uskuna va anjomlar (shaxsiy himoya vositalari, pulsoksimetr, pirometr va boshqalar) bilan ta’minlash;

mobil guruhlar uchun soddalashtirilgan yo‘riqnomani ishlab chiqish va tasdiqlash;

koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish tadbirlarini tizimli yo‘lga qo‘yish, laboratoriya tekshiruvidan o‘tkazishda tirbandlikning oldini olish va aholiga qulaylik yaratish maqsadida laboratoriya tekshiruvi amaliyotiga xususiy sektorni jalb qilgan holda ekspress-test va immunoferment tahlili usullari kiritilishini ta’minlash;

alovida xizmat ko‘rsatish tashkil etilgan tibbiyot muassasalari, ulardagi bo‘sh koykalar soni, kasallarni qabul qilish holati, kasallikka chalingan va tibbiyot muassasalarida hamda boshqa ruxsat etilgan hududlarda davolanayotgan bemorlar soni, ularning holati, dori vositalari, shuningdek, zarur laboratoriya va tibbiyot anjomlari va texnikasining mavjudligi hamda holati yuzasidan ma’lumotlarni muntazam ravishda ommaviy axborot vositalari, shu jumladan ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilinishini ta’minlash;

aholi tomonidan murojaat qilinganda hamda ularda kasallik belgilari aniqlanganda tezkorlik bilan koronavirus infeksiyasiga tahlil olish va tahlil natijalarini uch kunlik muddatda ularni shaxsiy telefon raqamlari orqali xabardor qilish choralarini ko‘rish;

tibbiyot muassasalari o‘rtasidagi axborot almashish tizimini soddalashtirish maqsadida hisobotlar turi, davriyligi va boshqa qog‘ozbozliklar bilan bog‘liq jarayonlarni elektron tizimga o‘tkazish orqali keskin qisqartirilishini ta’minlash lozim bo‘ladi.

Qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar va ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalarda koronavirus kasalligiga chalingan bemorlarga uy sharoitida yordam ko‘rsatishning quyidagi tartibini joriy qilish topshirilgan:

har bir oilaviy poliklinika kesimida umumiyl amaliyot shifokori va patronaj hamshirasi uchun aniq xonadonlar taqsimlanadi hamda umumiyl nazorat oilaviy poliklinika mudiri tomonidan amalga oshiriladi;

har bir tuman (shahar) tibbiyot birlashmasida tajribali shifokorlardan iborat bo‘lgan kasallikkha chalingan bemorlarni saralash va evakuatsiya qilish, davolash jarayonini monitoring qilish guruhlari tuziladi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan har bir tuman (shahar) tibbiyot birlashmasida birlamchi bo‘g‘in shifokorlari bilan tuman (shahar) tibbiyot birlashmasining vrachlari operativ maslahatlashish va bemorlar ahvolini to‘g‘ri baholay olish imkonini beradigan aloqa tizimi o‘rnataladi;

oilaviy poliklinika mudiri har kuni kasalligi simptomsiz, yengil kechayotgan bemorlar, ular bilan muloqotda bo‘lgan shaxslar soni, ahvoli, shuningdek, davolash muolajalarini olayotgan bemorlarda kasallik kechish dinamikasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni telefon yoki onlayn videoaloqa tizimi orqali tuman (shahar) tibbiyot birlashmasining oilaviy poliklinikalar bo‘yicha koordinatoriga yetkazib boradi;

uy sharoitida davolanayotgan bemorlar ahvoli dinamikasida salbiy o‘zgarishlar kuzatilgan taqdirda mobil guruhga murojaat qilib, bemorni tuman (shahar) tibbiyot birlashmasiga tegishli bo‘lgan tibbiyot muassasalariga yotqizish choralarini ko‘radi.

Sohada kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qanoatlantirish, xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini soddalashtirish maqsadida:

qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar va ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikalardagi mavjud kichik va o‘rta tibbiy xodimlar vakant joylari tibbiyot ta’lim muassasalari bitiruvchilar, pensionerlar va boshqa tibbiyot mutaxassisligiga ega bo‘lgan shaxslar orasidan to‘liq to‘ldirilishini ta’minlash;

tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi bilan birgalikda tibbiyot muassasalari umumiyl klinik laboratoriyaning vrach-laborantlarini virusologiya laboratoriyanarda faoliyat ko‘rsatishi uchun tayyorlash, shu jumladan amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha qisqa muddatli kurslarni tashkil qilish;

respublikadagi oliy ta’lim muassasalarining «Biologiya» ta’lim yo‘nalishini tugatgan bitiruvchilarini Tibbiyot xodimlarining kasbiy

malakasini rivojlantirish markazi va uning hududiy filiallari, Toshkent tibbiyot akademiyasi va uning hududiy filiallari, Andijon, Buxoro va Samarqand tibbiyot institutlarida virusologiya laboratoriyasining vrach-laboranti mutaxassisligi bo'yicha bir oylik qayta tayyorlash kurslarini yo'lga qo'ysin. Bunda, mazkur kurslar onlayn tarzda o'tkazilib, oliy ta'lim muassasalarining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

koronavirus pandemiyasini bartaraf etish bo'yicha e'lon qilingan karantin tadbirlari yakuniga qadar barcha tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining davlat granti asosida tahsil olgan bitiruvchilarini 1-yilgacha bo'lgan muddatga vaziyat og'ir bo'lgan hududlarga jalg qilinishini ta'minlasin. Bunda vaziyat og'ir bo'lgan hududlarga jalg qilinayotgan mutaxassislar uchun uy-joy va boshqa qulay sharoitlar yaratish bilan bog'liq xarajatlar tegishli mahalliy budget mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi;

aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi hududiy bo'linmalarining tibbiy xodimlarini «valeolog» mutaxassisligiga qayta ixtisoslashtirish bo'yicha bir oylik qisqa muddatli onlayn kurslarini tashkil qilish;

aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirish markazi tomonidan birlamchi tibbiy-sanitariya muassasalarini (qishloq vrachlik punktlari, oilaviy poliklinikalar, ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar) jalg qilgan holda aholining keng qatlamlari va har bir xonadonda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, zararli odatlarga qarshi kurashish, tibbiy madaniyatni rivojlantirish, jismoniy tarbiya, sport va to'g'ri ovqatlanishni faol targ'ib qilish bo'yicha doimiy ravishda zarur choralar ko'rib borilishini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Ushbu farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati, uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tashkil etish belgilangan. Sanitariya-epidemiologiya xizmati uning tuzilmasiga kiruvchi tashkilotlar bilan birga yaxlit tizimni tashkil qiladi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining tibbiyot, sanitariya-epidemiologik va boshqa xodimlariga koronavirus infeksiyasi tarqalishiga qarshi kurashish tadbirlariga jalg etilgan davrda ularning oylik lavozim maoshiga 6 foiz miqdorida har kunlik qo'shimcha to'lovlar to'lanishi tatbiq etiladi.

2021-yil 1 yanvardan boshlab:

Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlarining amaldagi oylik ish haqlariga qo'shimcha ravishda Davlat budgeti mablag'lari hisobidan fan nomzodi yoki falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki xorijiy davlatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lganda lavozim maoshiga — 30 foiz, fan doktori (DSc) ilmiy darajalariga ega bo'lganda — 60 foiz har oylik ustamalar belgilanadi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining ilmiy-tadqiqot muassasalari:

bino va inshootlarini saqlash, shuningdek, xodimlar mehnatiga haq to'lash bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirish Davlat budgeti mablag'lari hisobiga bazaviy moliyalashtirish asosida amalga oshiriladi;

rahbar xodimlarining ish haqi budget mablag'lari hisobiga fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlarning ilmiy-texnika dasturlarini amalga oshirishda qatnashuvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbar xodimlarining bazaviy lavozim maoshlariga tenglashtiriladi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmatiga moddiy-texnika bazasini yaxshilash va xodimlarni rag'batlantrish maqsadida aholiga pullik asosda (laboratoriya xizmati, sertifikatsiya, ekspertiza va boshqalar) xizmat ko'rsatish huquqi beriladi;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati Davlat budgetidan tizimga ajratilgan mablag'lar, ularning sarflanish yo'nalishlari, samaradorlik natijalari yuzasidan ma'lumotlarni har oy yakuni bo'yicha jamoatchilikka e'lon qiladi va o'zining rasmiy veb-saytida joylashtirib boradi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining budgetdan tashqari Maxsus jamg'armasi tashkil etiladi.

Sog'lijni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanitariya-epidemiologiya nazorati davlat inspeksiyasi va ularning hududiy bo'linmalarining budgetdan tashqari hisob raqamlaridagi barcha qoldiq mablag'lari Jamg'armaga to'liq o'tkaziladi.

Jamg'arma mablag'larini shakllantirish manbalari:

sanitariya-epidemiologiya qonunchiliginin buzganlik uchun qo'llanilgan jarimalar va jarimalarni to'lash kechiktirilganligi uchun hisoblangan penyalardan tushgan mablag'larning 50 foizi (nazorat tadbirlari boshqa davlat organlari bilan birgalikda amalga oshirilganda, jarima hamda jarimalarni to'lash kechiktirilganligi uchun hisoblangan penyalardan tushgan mablag'larning 25 foizi);

idoraviy mansub tashkilotlar tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ixtisoslashgan pullik xizmatlar ko'rsatishdan tushgan

tushumlarning ularni amalga oshirishga ketgan jami xarajatlar qoplangandan keyin qolgan summasining 15 foizi;

Jamg‘armaning vaqtincha bo‘sh mablag‘larini tijorat banklarining depozitlariga joylashtirishdan olingan daromadlar;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Jamg‘arma mablag‘laridan quyidagi maqsadlarda foydalaniadi:

Sanitariya-epidemiologiya xizmati xodimlarini moddiy rag‘batlantirish va ijtimoiy ta’minalash, shu jumladan uy-joyni ijaraga olish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash, shuningdek, xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish;

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining farmoyish berish va boshqarish funksiyalarini amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati tizimiga kiruvchi tashkilotlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash;

Sanitariya-epidemiologiya xizmati oldiga qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish doirasida xorijiy va mahalliy mutaxassislarni shartnomaga asosida jalg etish.

Quyidagilarni nazarda tutuvchi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmatini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlangan:

Qarorda Davlat budgetining 1,7 mlrd so‘m va xalqaro moliya institutlarining (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma va investitsiya banki) jalg qilingan 194,5 mln AQSh dollari mablag‘lari hisobidan Sanitariya-epidemiologiya xizmati va uning tarkibiy tuzilmalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, qurilish, rekonstruksiya va mukammal ta’mirlash ishlarni amalga oshirish, yuqori texnologiyali asbob-anjomlar, apparaturalar, jihozlar, maxsus texnika, sarflovchi va boshqa vositalar bilan ta’milanishi belgilab qo‘yilgan.

Chora-tadbirlar rejasiga muvofiq xarid qilinayotgan asosiy vositalar, qurilish, rekonstruksiya va mukammal ta’mirlash ishlari asoslantirilgan hisob-kitoblarga muvofiq Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

2020 — 2025-yillarda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini xalqaro standartlarga muvofiq qayta ko‘rib chiqish rejasi tasdiqlangan.

Sog‘liqni saqlash vazirligi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini xalqaro standartlar va normalarga muvofiq qayta ko‘rib

chiqish jarayoniga Jahon sog‘lijni saqlash tashkiloti va boshqa xalqaro ekspertlarni jalb qilishi topshirilgan.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati va uning hududiy bo‘linmalari faoliyatini moliyalashtirish manbalari etib quyidagilar belgilangan:

Davlat budjeti mablag‘lari;

Sanitariya-epidemiologiya xizmatining budjetdan tashqari mablag‘lari;

qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.

2021-yil 1 apreldan boshlab tadbirkorlik sub’ektlariga ularning faoliyati sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mosligini o‘rganish va tahlillar natijalariga asosan «Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik belgisi»ni berish amaliyoti joriy qilinadi.

Belgi Sanitariya-epidemiologiya xizmati tomonidan uch xil turdag'i — «yashil», «sariq» va «qizil» toifalar bo‘yicha 12 oy muddatgacha beriladi.

«Yashil» toifadagi Belgiga ega bo‘lgan tadbirkorlik sub’ektlarining faoliyati Sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari tomonidan o‘rganilishi va tekshirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi (ommaviy zaharlanish va guruhli kasalliklar qayd etilgan holatlar bundan mustasno). Bunda «Uzbekistan. Safe travel GUARANTEED» tizimining xavfsiz ob’ektlari reyestriga kiritilgan turizm va yondosh infratuzilma ob’ektlari «yashil» toifadagi Belgiga ega bo‘lgan ob’ektlarga tenglashtiriladi.

Belgi tadbirkorlik sub’ektlarining tashabbusi bilan (ixtiyoriy) yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda davlat organlari tashabbusi bilan (majburiy) beriladi.

Tadbirkorlik sub’ektlarining tashabbusi bilan (ixtiyoriy) Belgini olish Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı orqali hamda pullik asosda amalga oshiriladi. Bunda, ko‘rsatilayotgan xizmatlar uchun olinadigan daromad Sanitariya-epidemiologiya xizmatining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va xodimlarni rag‘batlantirish uchun yo‘naltiriladi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati tashkil etilayotganligi munosabati bilan Sog‘lijni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanitariya-epidemiologiya nazorati davlat inspeksiyasi va ularning hududiy bo‘linmalari tugatildi.

Sanitariya-epidemiologiya xizmati va uning hududiy bo‘linmalari — tegishinchada Sog‘lijni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik agentligi va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanitariya-epidemiologiya nazorati davlat inspeksiyasi, shuningdek,

ularning hududiy bo‘linmalari huquqlari, majburiyatlari va shartnomalari bo‘yicha huquqiy vorislari hisoblanadi.

2020-yil 1 sentyabrdan boshlab sanitariya-epidemiologiya va jamoat salomatligi sohasida bakalavriat va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida tibbiyot oliy ta’lim muassasalarida «Tibbiy-profilaktika va jamoat salomatligi» fakulteti tashkil etish belgilangan.

### **3-BOB**

## **SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISH**

### **3.1.Mustaqillik-yillarida aholini sog'gom turmush tarzini shakllantirish**

Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotiga ko'ra, salomatligimizning 55 foizi kechirayotgan turmush tarzimiz, 18 foizi irsiy kasalliklar, 17 foizi ekologik omillar, 10 foizi esa tibbiy xizmat sifatiga bog'liqdir.

Sog'gom turmush tarzi orqali salomatlikni mustahkamlash borasida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning so'zlagan nutqlarida «Odamzodning sog'lig'i ko'p jihatdan uning o'ziga bog'liq. Buning uchun u o'z hayotini oqilona yo'lga qo'yishi, har qanday kasallikning oldini olish uchun sog'gom hayot tarzi va turmush madaniyati talablariga amal qilib yashashi lozim» degan fikrlari masalaning tub mohiyatini ochib beradi.

Salomatlik har bir inson uchun bebaho boylik sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biri bo'lib kelmoqda. Inson salomatligini har qancha moddiy boylik va mablag' evaziga sotib olib bo'lmaydi. Har bir kishi mustahkam salomatlikka qanday erishish yo'lini, salomatlikning sir-asrorlarini chuqur bilishi va to'laqonli salomatlikning yagona yo'li sog'gom turmush tarzi ekanligini anglab yetishi lozim. Ammo aholi o'rtasida sog'gom turmush tarzini shakllantirish ishlari zamonaviy talablar darajasidan ancha orqada qolmoqda.

Har bir shaxs o'zining yurish-turishi uchun mas'ul deb qabul qilingan demokratik jamiyatda mamlakatning har bir fuqarosi o'z salomatligini ko'z qorachig'iday asrashga erishishi kerak.

Aholi o'rtasida sog'gom turmush tarzini shakllantirish uchun gigiyenik bilimlar bilan qurollantirish va gigiyenik ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun o'qitish muhim o'rinni egallaydi.

Mustaqilligimizning ilk-yillaridan boshlab, davlatimiz tomonidan inson salomatligini yanada mustahkamlash, sog'gom insonlar safini kengaytirish, onalar va bolalar sog'lig'ini muhofaza qilish, sog'gom turmush tarzini keng omma o'rtasida shakllantirish, oilada tibbiy madaniyatni oshirish, har bir shaxsning salomatligi o'z qo'lida ekanligini aholi o'rtasida keng tashviqot-targ'ibot qilish, bir so'z bilan aytganda,

sog‘lom jamiyatni tashkil etishga katta e’tibor qaratilgan. Bu borada bir qancha qonun va qonun osti hujjatlar qabul qilindi.

Jumladan, 1996-yil 29 avgustda qabul qilingan «O’zbekiston Respublikasida fuqarolarning sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida»gi Qonunning 2-bandida aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, 3-bandida fuqarolar sog‘lig‘ini saqlashda profilaktikaga ustuvor yo‘nalish berish zarurligi ko‘rsatib o‘tilgan.

1998-yil 10 noyabrda qabul qilingan «O’zbekiston Respublikasi sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish Davlat dasturi to‘g‘risida»gi 2107-sonli Prezident Farmonida «Islohotlarning maqsadi – sog‘liqni saqlashning profilaktika sohasiga ustuvor yo‘nalish berish va fuqarolarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish» deb ko‘rsatilgan.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 19 sentyabrdagi PF-3923 sonli «Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishini yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish Davlat dasturining amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida»gi Farmoni hamda 2007-yil 2 oktyabrdagi PK-700 sonli «Respublika tibbiyot muassasalarini faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori hamda Vazirlar Mahkamasining «Hududiy sog‘liqni saqlash muassasalarining tuzilmasini va faoliyatini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi 2008-yil 18 martdagি 48 sonli qarorlarining bajarilishi yuzasidan sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘ichamuayyan ishlar amalga oshirildi va oshirilib kelinmoqda.

Profilaktik yo‘nalish tibbiyotning asosiy bo‘g‘ini ekanligini hisobga olib, muhtaram Prezidentimizning 2011-yil 28 noyabrdagi «Sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 1652-sonli Qarori ishlab chiqildi. Ushbu qaror ijrosini ta’minalash borasida birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatuvchi muassasalar faoliyatidagi profilaktik yo‘nalishni kuchaytirish hamda tizimli ravishda tibbiy madaniyat, sanitariya va gigiyena hamda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini aholining keng qatlamlari orasida tatbiq etish maqsadida Sog‘liqni saqlash vazirligining 2012-yil 11 sentyabrdagi 263-sonli buyrug‘i ishlab chiqildi va hozirgi kunda respublikamizning barcha viloyat va tumanlarida ushbu buyruq asosida «Sog‘lom turmush – kelajak poydevori» harakat dasturi bo‘yicha ish olib borilmoqda. Har oyning ikkinchi haftasida aholining keng qatlami orasida sog‘lomlashtirish, ya’ni sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bo‘yicha 5 ta mutaxassisdan iborat ishchi guruh, ya’ni ftiziatr, skrining, OITS, DSENM markazlari mutaxassislari hamda Respublika salomatlik va tibbiy statistika instituti

mutaxassislari mahalla, maktab, kollej, litsey va oliygohlarda bo‘lib, hamkorlikda keng qamrovli tashviqot-targ‘ibot ishlarini olib bormoqdalar.

### **3.2. Jahon Sog‘lijni Saqlash Tashkiloti va sog‘lom turmush tarzi**

Dunyo olimlarining ko‘p-yillik ilmiy tadqiqotlari, tajribasiga asoslangan «Sog‘lom turmush tarzi» dasturi quyidagi oddiy, shu bilan birga natijasiga ko‘ra, hech qanday boylik bilan tenglashtirib bo‘lmaydigan har bir odamga mustahkam sog‘liq, uzoq umr, kelajak avlod surriyotini sog‘lomlashtirishni ta’minlaydigan quyidagi qoida va talablardan iborat:

Har bir odamning, birinchi navbatda yoshlarning ma’naviy olami, madaniyati yuksak bo‘lishi zarur. Negaki, «Sog‘lom turmush tarzi» qoida va talablariga amal qilish uchun, odam yuksak ongli, qat’iyatli, irodali bo‘lishi shart. Bu sifatlar boshida esa ma’naviyat va madaniyat turadi;

Gigiyena fani tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan, kun tartibiga amal qilish;

Shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish;

Sog‘lom, to‘g‘ri ovqatlanish;

Harakatlanish faolligiga amal qilish. Jismoniy tarbiya, sport bilan shug‘ullanish;

Sog‘liq uchun zararli odatlarga barham berish;

Ruhiy salomatlikni asrash;

Atrof muhit tozaligi to‘g‘risida qayg‘urish. Ekologik madaniyat ilmidan xabardor bo‘lish;

Tibbiy madaniylik.

Jahon Sog‘lijni saqlash tashkilotining taniqli ekspert- mutaxassis olimlarining fikriga ko‘ra, agar barcha mamlakatlar aholisining hammasi, birinchi navbatda yoshlar, «Sog‘lom turmush tarzi» qoidalariga amal qilsalar, har bir odamning sog‘lig‘ining mustahkamlanishi, mehnat qobiliyatining yaxshilanishi, umr ko‘rishining uzayishi, bo‘lajak avlod genofondining sog‘lomlashtirilishi kabi hayotiy muhim ko‘rsatgichlarda ijobjiy natijalarga erishilishi muqarrardir.

Shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish — salomatlik garovidir. Gigiyena bu har bir insonning tanasi, ustaboshi, turar joyi, oshxona, suv manbalari, hammom, hojatxona va boshqalarni toza saqlashga qaratilgan tadbirlar majmuidir. Gigiyena qoidalariga doimiy rioya qilib borish oilangizni turli kasalliklardan himoya qilishning eng yaxshi vositasidir. Go‘daklar va katta yoshdagi kishilarning ko‘plab kasalliklarga va yomon

oqibatlarga tushib qolishlariga turli kasallik mikroblari bilan zararlangan ovqatni yeish va qaynatilmagan suvni iste'mol qilishlari tufayli duch keladilar. Gigiyyena qoidalariga rioya qilmaslik natijasida ovqatdan zaharlanish hamda ich terlama, gepatit, qichima, gjija va boshqa yuqumli kasallikkarga duchor bo'lish mumkin.

Shaxsiy gigiyena kishining ishlab chiqarish va ro'zg'ordagi xulq-atvorining gigiyenik qoidalari majmuidir. Shaxsiy gigiyena qoidalariiga rioya etish insonning salomatligini saqlash va mustahkamlashga ko'maklashadi.

Shaxsiy gigiyena qoidalari kun tartibi, mehnat qilish, dam olish tartibi, badanni chiniqtirish, og'iz bo'shlig'i gigiyenasi, soch gigiyenasi, teri gigiyenasi, xonodon gigiyenasi, qo'l gigiyenasi, kiyim-kechak va turar joy gigiyenasini o'z ichiga oladi.

Badan gigiyenasiga tegishli darajada rioya qilish, shuningdek, tana qismlarini toza, oqar suvdasovun bilan tez-tez yuvib turish yordamida ko'pgina kasallikkarning oldini olish yoki ularni nazorat qilish mumkin. Teri toza bo'lishi uchun imkoniyat darajasida har kuni dush qabul qilish lozim. Haftada bir marta hammomda cho'milish kerak. 10 kunda bir marta sauna qabul qilish lozim. Bu teridagi har xil bakteriya, mikroblardan tozalashga yordam beradi.

Qo'llar gigiyenasi. Qo'lni to'g'ri yuvish ko'p bakteriyalarni yo'qotadi va mikroblarni tarqalish xavfini kamaytiradi. Sovun bilan qo'l yuvilganda, qo'limiz 98% gacha toza bo'ladi. Shuning uchun qo'lni doimosovunlab yuvish lozim. Qo'llarni yuvishda albattasovundan foydalanish lozim.

Tirnoqlarni parvarish qilish. Tirnoqlarni iloji boricha kaltaroq qilib olib tashlash va sovunlab yuvish muhimdir, chunki gjija tuxumlari va mikroblar aynan tirnoqlar ostida yashaydi.

Og'iz bo'shlig'i gigiyenasi. Bu shaxsiy gigiyenaning tarkibiy qismlaridan biri. Og'iz bo'shlig'ida milklar yoki og'iz shilliq pardalari yallig'lanishi, tish kasallikkları mavjud bo'lsa, infeksiya burun bo'shlig'iga, bodomsimon bezlar va tananing boshqa qismlariga ham oson tarqaladi.

Tishlar gigiyenasi. Tishni toza tutish, uni doimo turli xil tish pasta, kukunlar bilan tish cho'tkasi yordamida 2 marta tozalash lozim. Ertalabki nonushtadan va kechqurungi ovqatlanishdan so'ng tishlarni yuvish tish tomirlari va milkarning mustahkamlashning muhim vositasidir. Har bir ovqatlanishdan so'ng tishlarni suv bilan chayib tish oralarida qolgan ovqat qoldiqlarini albatta yo'qotish zarur. Agar shunday qilinmasa, ovqat qoldiqlari chirib, og'izda badbo'y hid kela boshlaydi. Agar milk va tanglay

tozaligiga jiddiy e'tibor berilmasa, turli xil tish, milk kasalliklariga chalinish mumkin.

Soch gigiyenasi. Sochni haftada bir marta yuvib turish zarur. Sochning holatiga qarab, soch terisini quruq, yog'li, normal bo'lishiga moslab sochga ishlatiladigan shampunlardan to'g'ri foydalanish maqsadga muvofiqdir. Sochni turli xil tabiiy oziqlantiruvchi vositalardan foydalangan holda yuvish sochlarga jilo berib, ularni mayin va sog'lom qiladi.

Xonadon gigiyenasi. Uyning ozoda va saranjom-sarishta bo'lishi ko'pgina kasalliklarning oldini olish bilan birga, uy sharoitida yaxshi dam olishga, to'yib uslashga, shuningdek inson organizmi uchun zarur bo'lgan ijobjiy hissiyotlar, jumladan ko'tarinki kayfiyat hosil bo'lishiga sabab bo'ladi.

Uy va uning atrofi iflos bo'lsa, ichketar, ichterlama va boshqa o'tkir yuqumli kasalliklarning tarqalishiga, qorong'i va zax xonalar esa raxit, o'pka sili, bod kabi kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Oshxonalarda pashsha bo'lmasligiga e'tibor berish kerak, chunki pashshalar ham turli yuqumli kasalliklarni qo'zg'atuvchi manba bo'lib hisoblanadi. Uy eshiklari va derazalarni to'r pardalar bilan berkiting.

Oziq-ovqat mahsulotlari gigiyenasi. Sog'lom turmush tarziga qat'iy rioya qilishda ovqatlanishni to'g'ri tashkil qilish, sifatli, foydali, tartibli ovqatlanishda ozodalik, tozalikka rioya qilish nihoyatda muhimdir. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan bog'liq ko'plab kasalliklarning oldini olishda ovqatlanish gigiyenasiga rioya qilish katta ahamiyatga ega.

Sog'lom ovqatlanish — bu insonning o'sishi, me'yoriy rivojlanishi va hayot faoliyatini, uning salomatligini mustahkamlashga hamda kasalliklarning oldini olishni ta'minlashga imkoniyat beruvchi ovqatlanishdir. Ovqat kishi hayotining asosiy sharti hisoblanadi. Shuning uchun odam har kuni muntazam ravishda bevosita ma'lum bir vaqtda ovqatlanishi zarur.

Suqrtdan "Yosh va navqiron bo'lsada, turli xastaliklarga chalingan kishilarni bilamiz. Ammo siz shu ulug' yoshingizda ham sog'lom va baquvvatsiz, buning siri nimada?» deb so'rashadi. «Sababi shuki, men yashash uchun ovqatlanaman, siz aytgan kishilar esa ovqat yeyish uchun yashaydi», deb javob bergen ekan donishmand.

Tabiatda organizmnинг zarur moddalarga bo'lgan ehtiyojini to'la-to'kis ta'minlay oladigan yagona bir mahsulotning o'zi yo'q. Buni oqsillar, yog'lar, uglevodlar, mineral moddalar, vitaminlar va boshqa moddalarga boy bo'lgan har xil oziq-ovqat mahsulotlari ta'minlay oladi. Shunga ko'ra

to‘g‘ri ovqatlanish uchun odam xilma-xil mahsulotlarni yeb turishi lozimligi sog‘lom ovqatlanish tamoyillarining birinchi shartidir.

To‘g‘ri ovqatlanish asoslari. Iste’mol qilinadigan ovqat odamning energiya sarfini qoplasa, organizmda yangi hujayra va to‘qimalar tuzilishi hamda eskilarining tiklanishi uchun zarur kimyoviy moddalarga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlasa, bunday ovqatlanish ratsional ya’ni to‘g‘ri ovqatlanish hisoblanadi.

### **3.3. Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti talabiga binoan sog‘lom ovqatlanish, jismoniy faollik, ruhiy salomatlikni asrashtamoyillari**

Kuniga xilma-xil ovqat mahsulotlarini iste’mol qilish.

Kun davomida bir necha marotaba mahalliy sharoitda yetishtirilgan har xil turdag'i yangi mevalar va sabzavotlarni tanovul qilish (sutkasiga kamida 400 g).

Non va don mahsulotlari, yormalar, kartoshkalar har kuni iste’mol qilish zarur.

Iste’mol qilayotgan ovqatlardagi yog‘ moddalarni nazorat qilish, hayvon yog‘lari o‘rniga o‘simlik yog‘larini iste’mol qilishga o‘tish.

Yog‘li go‘shtlar va go‘sht mahsulotlari o‘rniga ko‘proq yog‘siz go‘sht, baliq, parranda go‘shti va dukkaklilarni iste’mol qilish.

Tarkibida yog‘i kam bo‘lgan sut, va sut mahsulotlari hamda tarkibida yog‘ moddalari va tuz kam bo‘lgan yogurt va pishloqlarni iste’mol qilish.

Shakar va qandni kamroq iste’mol qilish va tarkibida qand moddasi kamroq bo‘lgan mahsulotlarni tanlash, shirinliklar va shirin ichimliklar miqdorini chegaralash.

Tuzni ortiqcha iste’mol qilmaslik. Sutka davomidagi tuz miqdori bir choy qoshiqdan (5 g) oshmasligi kerak. Faqat yodlangan osh tuzini iste’mol qilish.

Choyni ovqat bilan birga iste’mol qilmaslik. Tabiiy sharbatlar, shakarsiz kompotlar yoki qaynatilgan suvlarni ko‘proq iste’mol qilish.

Taom tayyorlash jarayonida uning xavfsizligini ta’minlashi lozim. Ovqatni pishirishda keragidan ortiqcha qovurmang chunki foydali bo‘lgan vitaminlar va faol moddalar o‘z xususiyatini yo‘qotadi. Taomlarni mikroto‘lqinli pechda, bug‘da yoki qaynatib pishirilishi, ularni tayyorlashda sarflanadigan yog‘, tuz, shakar miqdorini kamaytirish imkonini yaratadi.

Chaqaloqlarni 6 oylik bo‘lgunga qadar faqat ko‘krak suti bilan boqing. Bolani qo‘srimcha ovqat iste’mol qilishga asta sekinlik bilan

ko‘krak sutidan ajratmagan holda o‘rgating. Bola yaxshi rivojlanishi uchun 2 yoshgacha ko‘krak suti bilan boqing.

Vaznni me’yorida saqlash uchun har kuni jismoniy mashqlar va sportning biron bir turi bilan shug‘ullaning.

To‘g‘ri ovqatlanishni tashkil qilishning muhim talabi ovqatlanish tartibiga qat’iy rioya qilish hisoblanadi. Ovqatlanish tartibi deganda ovqat yejish vaqt, necha marta ovqatlanish va ovqat kaloriyaliligining har safar yejiladigan ovqatga taqsimlanishi tushuniladi.

Ovqatni har kuni ma’lum vaqtda yejish kerak. Shunday qilinganda ovqat yejish oldidan me’da-ichak shirasi ko‘p ajraladi. Ovqatni vaqtida yeganda yaxshi hazm bo‘ladi va uning kimyoviy komponentlari to‘la o‘zlashtiriladi. Ovqatlanish tartibining buzilishi bu jarayonlarni buzibgina qolmay, balki gastrit, me’da va o‘n ikki barmoq ichak yarasi kabi turli kasalliklarning paydo bo‘lishiga ham olib keladi. Pala-partish ovqatlanish moddalar almashinuvining buzilishiga sabab bo‘ladi. Uglevodlar almashinuvining buzilishi va u tufayli tana vaznining oshib ketishi yoki qonda xolesterin miqdorining ko‘payishi bunga yaqqol misol bo‘la oladi.

Hozirgi vaqtda ishlaydigan aholi uchun hamma joyda uch mahal ovqatlanish tashkil qilingan. Biroq har galgi yejilgan ovqatning kaloriyaliliyi mehnatning og‘ir-engilligiga, ya’ni energiyaning qay darajada sarf bo‘lishiga muvofiq kelishi kerak. Og‘ir jismoniy ish bilan band bo‘lgan kishilarga nonushtaga sutkalik ovqat kaloriyaliligining 25-30 foizi, tushki ovqatga 45-50 foiz va kechki ovqatga taxminan 25 foizi ajratiladi. Aqliy va jismoniy mehnat bilan band bo‘lgan kishilar uchun ham sutkalik ovqat ratsionining kaloriyaliliyi shunday prinsipda taqsimlanadi.

### Jismoniy faollik

«Jismoniy mashqlar bilan muntazam shug‘ullanib turuvchi kishi davolanishga kamdan — kam muhtoj bo‘ladi», — degan edi buyuk tabib Abu Ali ibn Sino.

Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning, salomatlikni mustahkamlashning eng samarali yo‘llaridan biri jismoniy tarbiya hisoblanadi

Hayot – harakatdan iboratdir. Inson harakat orqali shakllanadi, takomillashib boradi. Shu boisdan insonning salomatligi, avvalo uning doimiy ravishda harakatda bo‘lishi bilan bog‘liq.

Faol, muntazam, tartibli va oqilona harakat salomatlikni ta'minlovchi asosiy omillardan biri. Ma'lumki, jismoniy harakat birinchi navbatda, organizmda:

Modda almashinuvini yaxshilaydi;

Organizmdagi barcha organ va to'qimalarda qon aylanishini kuchaytiradi, ularning kislород va zarur oziq moddalar bilan ta'minlanishini yaxshilaydi, ayniqsa, o'suvchiyosh organizmda o'sish\_rivojlanish jarayoni yaxshi kechadi;

Tashqi ta'sirlarga qarshilik javob reaksiyasi oshadi, immun tizimi kuchayadi;

Organizmda mavjud bo'lgan ayrim yallig'lanish jarayonlari surilib ketadi;

Organizm har xil chiqindi moddalardan tozalanadi.

O'sib kelayotgan har bir yoshning muntazam jismoniy tarbiya bilan shug'ullanishi:

Butun kun davomida yaxshi kayfiyatda bo'lishini;

U kishi sifatli va unumli, ijodiy faoliyati kuchli bo'lishini;

Asablar tizimi muvozanatlashib, bosiq, uyli, mulohazali bo'lishini;

Faollik, tashabbuskorlik, masalaga jur'atlilik bilan kirishish, qiyinchilikdan, og'ir mehnatdan qo'rmaslik, o'rtoqlik va do'stlik hissiyotlarini shakllantirishini;

Muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish gigiyenik ko'nikmalarning shakllanishiga olib kelishini;

Teri osti va ichki a'zolarga to'plangan yog'lar kamayib, ixcham, epchil, chaqqon bo'lishini;

Mushaklar tortishib, qomati ko'rkan va kelishgan bo'lishini;

Tomirlarda qonning oqishi yaxshilanib, butun tana va a'zolarga kislород hamda oziqlarning borishi yaxshilanishini;

Organizmning himoya qobiliyati oshishini;

Tengqurlariga nisbatan ancha yosh, ko'rkan, ishchan va sog'lom bo'lishini ta'minlaydi.

Jismoniy sog'lomlashtirish usullari orasida ertalabki badan tarbiya qulayligi va ommaviyligi bilan ahamiyatga ega.

Ertalabki badan tarbiya butun tanani uyg'otadi, modda almashinuvini kuchaytiradi, tanaga rohat bag'ishlaydi, kayfiyatni ko'taradi. Ertalabki badan tarbiya imkon darajasida har kuni o'z vaqtida ochiq havoda o'tkazilsa, yaxshi samara berish bilan birga kun mobaynida teranlikni va o'qish qobiliyatini oshishini ta'minlaydi.

Jismoniy tarbiya intizom, iroda, uyushqoqlik, mehnatsevarlik, yuksak aqliy e'tiqod va boshqa ijtimoiy ahamiyatga molik qimmatli fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Organizmni biologik imkoniyatlarini ko'paytirishning ishonchli vositasi hisoblanadi.

Ruhiy salomatlikni asrash

10 oktabr sanasi (1992-yildan buyon) Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan «Ruhiy salomatlikni asrash kuni» deb belgilangan.

Keyingi-yillarda turli falajlar, qo'l-oyoqlarning ixtiyorsiz harakatlanishi va shunga o'xhash kasalliklar tobora ko'payib bormoqda. Xususan nevroz dunyo xalqlari o'rtasida ko'payganini guvohi bo'lib turibmiz. Bu Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti keltirgan ma'lumotlardan ma'lum.

Ma'lumki, bosh miya faoliyati ichki organlarga ta'sir etib turadi. Ayniqsa, iztirob chekkan, g'am qayg'uga moyil kishilar doimo yurak bezovtalanishidan, yurak atrofida og'riq paydo bo'lishidan shikoyat qilishadi. Ilmiy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bosh miya ichki organlar bilan juda ko'p ipsimon nerv tolalari orqali bog'langan.

Nerv tolalari yurak, jigar, o'pka, me'da kabi bir qancha organlar nerv tolalari bilan o'zaro aloqada bo'lib, ichki organlarning ish faoliyatini me'yorda ishlab turishini ta'minlaydi. Bundan tashqari, bosh miya ichki organlar ishini tashqi muhitga ham moslashtirib boradi. Kishi turmushi yaxshi bo'lsa, ya'ni u tinchlik, osoyishtalikda yashasa, xursandchilik bo'lsa, asab markazi bo'lmish bosh miya o'z ishini yaxshi bajaradi, asab muvozanati buzilmaydi.

Odatda bosh miya o'z faoliyatini qo'zg'alish va tormozlanish holatlari orqali bajaradi. Bu ikki holat doimo bir-biri bilan o'rtacha muvozanatda bo'ladi. Bordiyu, odam ishda yoki uyda notinch bo'lsa, kutilmaganda boshiga kulfat tushsa, bunday vaqtarda bosh miyada muvozanat buziladi. Natijada inson tana a'zolarida (yurak va oshqozon-ichak sohasida) noxushholatlarni sezal boshlaydi. Asab tizimida jiddiy o'zgarishlar vujudga keladi. Asabiylashish, salga jahl chiqishi, uyquni buzilishi, xotirani pasayishi, tez charchash, hamda yurak sohasida og'riq paydo bo'ladi.

Agar bunday salbiy o'zgarishlar tez-tez takrorlanaversa, ichki organlar faoliyati buziladi, oqibat-natijada kishining boshi yostiqqa yotadi. Shuni unutmaslik kerakki, kishi tashqi muhitdagi yomon ta'sirga qanchalik sezgir bo'lsa, organizmning infeksiyalarga va yuqumli kasalliklarga nisbatan chidami shunchalik pasayib ketadi. Natijada kishi har xil

kasalliklarga tez chalinadigan bo‘lib qoladi, ya’ni immun tizimi shikastlanadi.

Ruhiy salomatlikni asrash uchun tavsiyalar

Kishi sabr-toqatli, mehnatsevar, odob-axloqli, irodali bo‘lishi kerak. Odamda ana shu xususiyatlar qanchalik yaxshi rivojlangan bo‘lsa, asab

muvozanatini saqlash, uni to‘g‘ri iziga solish shunchalik oson bo‘ladi. Bu xususiyatlar kasalliklarning oldini olishda katta foyda keltiradi.

Uyda, ishda, jamoada sog‘lom ruhiy muhitni yaratish, bir biriga yaxshilik istagi va o‘zgalarga quvonch baxsh etish inson umrini uzaytiradi.

O’ksinish, xafagarchilikni tezda yoddan chiqarish, kek saqlamaslik ehtiroslarni tiya bilish asab tizimini mustahkamlaydi.

Bir vaqtning o‘zida kulish ham yig‘lashni ham beg‘ubor bolalardan o‘rganish zarur. Emotsiyalarni chiniqtirish va tarbiyalash lozim.

Asabiylashish tufayli paydo bo‘lgan adrenalinni (energiyani) mushaklarga berish lozim, shunda asab tolalari va qon tomirlar himoyalanadi.

Yoqimli musiqa salbiy emotsiyalarni bosishda va charchoqlik hissini yo‘qotishda ahamiyati katta.

Musiqa va she’riyat insonning so‘z orqali ifodalay olmagan nozik tuyg‘ularini ifoda etadi va tanga orom baxsh etadi. Yoqimli musiqa eshitib dam oling bu albatta sizdagi charchoqlik hissini yo‘qotishda ahamiyatlidir.

Ijobiy stresslar, haqiqiy kulgi va jilmayish bosh miya qon tomirlari orqali o‘tadigan qon miqdorini oshirib, miya to‘qimasini kislorod bilan ta’milanishini yaxshilaydi.

Chin kulgi miyani chiqindilardan tozalab, ruhiyatni tetik va yengillashtiradi, kayfiyatni ko‘tarib, taranglashishni kamaytiradi.

Har bir inson hayotda qiyin vaziyatga tushib qolgan paytda, bunday vaziyatning ahamiyatini o‘z hayotining bosh qadriyati va hayotining asosiy mazmuni bilan xayolan taqqoslab ko‘rishi lozim. Bu taqqoslash vaziyatni yumshatadi, o‘tkinchi bu holat keltiradigan zarar oldida bosh maqsadining naqadar ulug‘ ekaniga ishonch hosil qiladi.

Ertalab odatdagidan 10 daqiqa oldin turing, bugun kiyadigan kiyimlar, zaruriy ish qog‘ozlari, hujjatlarni yotishdan oldin tayyorlab qo‘ying va x.k.

Xotirangizga ishonmang, kundalik tuting va eng asosiy kundalik ishlarni yozib boring.

Bugungi ishni ertaga qo‘ymang, bu stress chaqiradi.

Uyda hamma birday ishlashi va foydali mashg‘ulot bilan band bo‘lishi kerak, aksincha bo‘lsa bu sizni asabiylashtiradi.

Muvaffaqiyatlaringizni doimo sanab ko‘ring, bitta omadsizlikka 10 ta omadingiz naqd ekanini eslab ko‘ring.

Zerikarli, hayotdan noliydigان insonlardan yiroq bo‘ling.

Jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullaning.

Uyqu asabga orom beruvchi eng zo‘r vosita ekanligini doimo esda tuting. Har kuni 7-8 soat to‘yib uxlang.

Sog‘lom ovqatlanish talablariga rioya qiling.

Zararli odatlar va ularga qarshi kurash

Odat — bu ikkinchi xuqkdir deyiladi xalq hikmatida. Yaxshi va yomon odatlar turmush sharoiti va tarbiya tufayli yuzaga keladi. Gigiyena qoidalarini buzish va salomatlikka ziyon yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan odatlar zararli odatlarga turiga kiradi.

Tamaki chekish hamma zararli odatlar orasida eng ko‘p tarqalganidir. Insoning zamonaviy hayot tarzida chekish ko‘pgina surunkali kasalliklarni keltirib chiqaruvchi, ish qobiliyatini pasaytiruvchi, nogironlikni va o‘limning ko‘payishiga sabab bo‘luvchi xavfli omillarning asosiyalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Hozirgi kunda tamaki tutunida qariyb 400 xil turlicha birikmalar aniqlangan bo‘lib, ularning organizmga zaharovchi ta’sirlari aniqlangandir. Ayniqsa, tamaki tarkibidagi nikotin moddasi — kashandalik xumorini paydo qiluvchi kuchli zahardir. Kashandaning miyasi muttasil nikotin moddasini kelib turishiga o‘rganib qoladi, bu uning ishlashini muayyan darajada yengillashtiradi. Shunda kashanda piyonistaga o‘xshab miyani nikotin bilan «tetiklashtirib» turadi, chekishga odatlanadi, aks holda bezovtalik, serzardalik, asabiylit boshlanadi.

Shuningdek, tamakida kanserogen ta’sirga ega bo‘lgan benzoperin moddalari mavjud. Tamaki tutuni asab, yurak-qon tomir sistemalariga, me’da — ichak yo‘li, o‘pkaga halokatli ta’sir qilib, bir qator og‘ir kasalliklarining zo‘rayishiga yordam beradi.

Tutun aralash kirgan nikotin milk, til va tanglay shilliq qavatlarining ta’sirchan nerv oxirlarini qo‘zg‘atib, asab faoliyatiga jiddiy zarar yetkazadi. Umrida birinchi marta chekkan kishining boshi aylanadi, ko‘ngli behuzur 10lib, ukchiy boshlaydi — bu organizmnning zahar ta’siriga qarshilik ko‘rsatish ifodasidir. Lekin shunga qaramay tamaki takror chekilganda, kishi beixtiyor kashandalikka o‘rganib qoladi. Nikotin ta’siri ostida miya tomirlarining orasi qisqaradi, qon miyaga kam miqdorda keladi, bosh og‘rig‘i va aylanishi paydo bo‘ladi. Nikotin qon bosimini ko‘taradi va asta sekinlik bilan xotiraning pasayishiga olib keladi.

Spiritli ichimliklarning zararlari. Jahon Sog‘liqni Saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, ichkilikbozlik yurak-qon tomir tizimi, jigar va organizmning boshqa a’zolari, tizimlari bilan og‘rigan bemorlar o‘limining har uchinchi sababchisi hisoblanadi.

Ichkilik barcha jonli zotni halok qiluvchi zahardir. Ichilgan ichkilik tezda qonga o‘tib, badanning barcha a’zolariga kirib boradi. Asab sistemasiga esa alohida ta’sir ko‘rsatadi: asab to‘qimalari normal ishlashiga xalaqit beradi, bosh miya qobig‘i oliy markazlari ish faoliyatini buzadi, qobiqning tormozlash faoliyatini susaytiradi.

Buning natijasida dastavval miyaning eng oliy funksiyalari — o‘z xatti-harakatlarini nazorat etish va tanqid qilish, atrofdagi vaziyatga baho berish kabi harakatlar izdan chiqadi .Mastlik holati-bu markaziy asab tizimining zaharlanish holatidir

Alkogol me’daga tushgach, me’da shirasining ko‘proq ajralishiga sabab bo‘ladi. Agar inson och qoringa ichsa, alkogol bir necha soniyada ichakka yetib boradi. Alkogol yo‘g‘on va ingichka ichak devorlari orqali qon tomirlarga o‘tadi, qon orqali organizmning barcha a’zolari va hujayralariga, suyaklarga hamda yog‘ to‘qimasiga tarqaladi. Alkogol hujayra strukturasiga, shuningdek markaziy nerv sistemasi orqali a’zolarga ta’sir qilib, to‘qimalarni halok qiladi. Ayniqsa yurak alkogolga juda ta’sirchan bo‘ladi. Surunkali ichgan odam yuragi keskin kattalashadi, yurak muskullari o‘z xususiyatlarini o‘zgartiradi va yog‘ to‘qimalari bilan qoplanadi, qonni tomirlarga sust itaradi va haydaydi. Buning natijasida hansirash, yurakning tez urishi, yurak Sohasida og‘riqlar, shish va yurak sohasida noxush holatlar paydo bo‘ladi, bular esa o‘z navbatida juda xavfli kasallik hisoblangan miokard rivojlanishiga imkon beradi

Jigar ham alkogolga juda ta’sirchandir. Jigar nafaqat ovqat hazm qilish a’zosi, balki butun qon orqali keladigan zararli moddalarni zararsizlantiruvchi «biokimyoviy laboratoriya» hamdir. Birok alkogol bilan zaharlangan jigar asta-sekin bujmayadi, uning faoliyati buziladi. Buning oqibatida jigar tsirrozi rivojlanadi.

Ichkilik yuqori kaloriyalı bo‘ladi, lekin u oziq-ovqat o‘rnini bosa olmaydi. Chunki uning tarkibida organizm uchun kerakli bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari (oqsil, yog‘, uglevod, vitamin) bo‘lmaydi. Shuning uchun ichadigan odam ochlikni his etmaydi, lekin ayni vaqtida oziq-ovqat moddalari yetishmasligidan madori qo‘rib, holdan toyadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan barcha noxush holatlar alkogolning markaziy nerv tizimiga zaharli ta’siri tufayli yuz beradi. Bezorilik, jinoyatchilarning asosiy qismi ichkilik ichgan insonlarda ro‘y beradi.

Jinsiy bezlar a'zolarida chuqur o'zgarishlarga olib kelishi oqibatida mayib-majruh farzandlar dunyoga keladi. Ichkilikbozlik oilalarning buzilib ketishiga sababchi bo'ladi. Ichkilikbozlikdan jamiyat katta zarar ko'radi.

Alkogol insonlarni halokatga uchratadigan dushmandir. Ichkilikka davo qilsa bo'ladi — lekin uning oldini olish osonroqdir.

Giyohvandlik va uning oldini olish. Giyohvandlik — XXI asr vabosi bo'lib, bugun jahon miqyosidagi muammodir. U jamiyatni eng xavfli va eng og'ir oqibat, kulfatlarga olib keluvchi og'udir. Bugungi kunda dunyo aholisiga atom bombasidan ham kuchli xavf solayotgan ofatdir. Chunki u inson salomatligiga halokatli ta'sir qilib, aziz umrini kemirib, o'limga mahkum etayotgan illatdir. Dunyo bo'yicha kishilar, ayniqsa 15-40 yoshgacha bo'lganlar ya'ni kuch-quvvatga to'lgan yoshlar bu og'u iskanjasiga ilinib, hayotdan adashib, yaratuvchanlik, bunyodkorlik ishlariga qatnashmasdan og'ir xastalikka chalinib o'ziga, oilasi va davlatga ham moddiy, ham ma'naviy zarar keltirmoqdalar.

Giyoh bu shunday moddaki, bir marta qabul qilganda ruhiy holatni ya'ni kayfiyatni ko'tarib yuboradi, bosh miyani ishdan chiqaradi. Agar kishi tez-tez iste'mol qilsa unga o'rganib qoladi va uni iste'mol qilmasa yashay olmaydi, ya'ni shu giyohsiz (nasha — marixuana, gashish, ko'knori-geroin, qora dori, kokain kabi) turolmaydi.

Giyohvandlik — deb giyohvand moddalarni uzluksiz iste'mol qilib kasallikka chalingan bemorlarga aytiladi. Ular o'zlarining ma'naviy qiyofasini yo'qotadi, aql-idrok, fikrlash, eslash qobiliyati, ruhiyat butunlay izdan chiqadi. Ularda hayo, hurmat-izzat, mehr-oqibat kabi insoniy fazilatlar yo'qoladi.

Kasallik rivojlanishi bilan ular oila, ishxona, mahalla, ko'cha-ko'yda, o'quv joylari kabilarda tartib-intizom, qonun-qoidalarni buzishni boshlab, katta ziyon keltiradilar. Ularning fikr-zikri faqat giyoh moddalar topish va iste'mol qilishdan iborat bo'lib qoladi. Ota-on, bola-chaqa, oila-mahalla, jamoa kabilar ularni umuman qiziqtirmaydi. Giyohvand o'z sog'lig'ini butunlay yo'qotib, jamiyatdan ajralib qolib, jarga qulayotganini payqamaydi.

Kompyuter va mobil telefonning inson salomatligiga ta'siri

Ilm fan sohasi tez sur'atlarda rivojlanayotgan XXI asr — axborot texnologiyalari va intellektual salohiyat asri sifatida e'tirof etilayotgani ham bejiz emas. Tabiiyki, ana shunday o'zgarish va yangilanishlar davrida kishilarning atrofda yuz berayotgan voqeа-hodisalarni bilish, o'rganish va tadqiq etish, hamda xulosa chiqarishga bo'lgan ehtiyoji ham ortadi. Axborot almashuvi jarayonlarining takomillashuvi natijasida televideniye,

radio, va matbuotdan tashqari yana bir mukammal tizim — internet hayotimizga kirib keldi. Telekommunikatsiya sohasidagi qulay tezkor va zamonaviy usullardan biri bo‘lgan bu tarmoq imkoniyatlarni yanada oshirdi. Undan istalgan ma’lumotni qisqa fursatda olishimiz, foydalanishimiz, bilimlarimizni mustahkamlashimiz va yangiliklardan xabardor bo‘lishimiz mumkin.

Tarmoq orqali milliy mentalitetimizga xos va mos bo‘lmagan g‘aribona hayot tarzini targ‘ib etuvchi turli sayoz va jangari film, multfilm, shou dastur hamda videoroliklarni tomosha qilish, zo‘ravonlik aks etgan kompyuter o‘yinlarini o‘ynash, ayrim yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, turmush tarzi va madaniyatiga salbiy ta’sir qilayotgani hech birimizga sir emas. Bu kabi jamiyatimizga xos bo‘lmagan illatlarning oldini olishda farzandlarimizning tashqi ta’sirlar, ayniqsa internet va xorijiy telekanallar orqali namoyish etilayotgan g‘arazgo‘ylikni targ‘ib etuvchi vositalardan himoya qilish har birimizning burchimizdir.

Davlatimiz siyosatining ustuvor maqsadlaridan biri yosh avlodni jismonan va ruhan sog‘lom, aqlan barkamol qilib voyaga yetkazish, ularni kelajagimizning munosib vorislari etib tarbiyalashga ko‘maklashishdan iborat ekan, bu borada hammamiz farzandlarimiz tarbiyasi uchun birdek mas’ul bo‘lishimiz lozim.

Kompyuterdan foydalanishda quyidagilarga amal qilish zarur:

kompyuter oldida bir soatdan ortiq o‘tirmang;

ko‘z bilan monitor orasidagi oraliq masofa 50 santimetr dan kam bo‘lmasin;

kompyuter oldida ko‘p muddat va noto‘g‘ri o‘tirish umurtqa pog‘onasining qiyshayishiga olib keladi;

kompyuter turgan xonani tez-tez shamollatib turing;

kompyuterda ishlab bo‘lganingizdan so‘ng jismoniy mashqlar bilan shug‘ullaning;

ko‘z charchashining oldini olish uchun ko‘zni yumib-ochish mashqlarini bajaring;

ko‘zlaringiz dam olishi uchun choy shamasini xaltachalarga solib yarim soat davomida ko‘zlaringizga qo‘yib yoting;

noutbukdan faqatgina stol ustiga qo‘yib foydalaning.

Mobil aloqa telefonlari o‘zidan elektromagnit to‘lqinlarini tarqatishini hisobga olib, o‘sib kelayotgan yosh avlod salomatligini muhofaza qilish maqsadida quyidagi tavsiyalarga e’tibor qaratish lozim:

mobil telefonlarini 7 yoshgacha bo‘lgan bolalarga berish mumkin emas;

mobil telefonlaringizni yotoqxonalarda saqlash mumkin emas;  
mobil telefonlardan uzoq muddat gaplashish mumkin emas;  
mobil telefonlarni yurak atrofida olib yurmang;  
transport vositalarida mobil telefonlardan foydalanmang;  
mobil telefonlaringizdan chiqayotgan nurlar miya faoliyati, eshitish,  
sezish qobiliyatiga salbiy zarar yetkazadi.

Soat sayin rivojlanib borayotgan axborot texnologiyalari davrida texnik vositalardan oqilona va to‘g‘ri foydalansakkina o‘z sog‘lig‘imizga zarar yetkazmagan bo‘lamiz.

### **3.4. «Salomatlik kodeksi»**

«Salomatlik kodeksi» — sog‘lom turmush tarzi, salomatlikni saqlash va tiklashning asosiy qoidalari majmuidan iborat bo‘lib, unga rioya qilgan har bir kishi:

o‘z salomatligini mustahkamlashni bosqichma-bosqich rivojlantirib borishi;

o‘z organizmining imkoniyatlarini avaylab asrashi, uzoq umr ko‘rishga intilishi;

salomatlik boylik uchun emas, boylik salomatlik uchun xizmat qilishi lozim deb tushunishi;

o‘z organizmining jismoniy holatini a’lo darajada saqlab turishga erishishi;

o‘z salomatligi haqida doimo qayg‘urishi lozim.

Ushbu maqsadga erishish uchun sog‘lom turmush tarzini shakllantirish tashabbuskorlari, ya’ni tibbiyot xodimlari irodasi «Agarda biz jismoniy mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanmasak, o‘z organizmimizni chiniqtirmasak, ovqat sifatida kerakli va tabiiy xossaga ega mahsulotlarni iste’mol qilmasak, zararli odatlardan voz kechmasak, barchamiz infarkt, insult, diabet, ruhiy xastaliklar, allergiya kabi kasalliklarning qurban bo‘lamiz» degan yagona shiorga yo‘naltirilishi lozim.

«Salomatlik kodeksi» 21 ta qoidadan iborat bo‘lib, ularga amal qilish inson salomatligi miqdori va sifatini oshiradi hamda uzoq vaqt sog‘lom hayot kechirishiga imkon yaratadi.

1.Qoida. O‘z organizmingizni biling.

Hech bo‘lmaganda organizmingizni umumiy tarzda biling:

u qanday ishlayapti;

nima foydali va nima zararli;

nima sizning umringizni uzaytira oladi;  
nima qarilik va xastalikni chetga sura oladi.

Bu o‘z navbatida salomatligingizni saqlash va farzandlaringizni to‘g‘ri tarbiyalashga yordam beradi.

«Salomatlik pasporti» yuritish lozim. Bu ambo’latoriya-poliklinika kartasi, yoki kasallik tarixi emas, aksincha «Salomatlik tarixi» bo‘lib uni har bir kishi yuritishi zarur.

2.Qoida. Tabiat bilan hamohang yashang.

Bu shunchaki chaqiriq emas  
tabiatga yaqin bo‘ling;  
har qanday imkoniyatdan foydalanib park, o‘rmon, daryo, dengiz,  
tog‘da bo‘ling;

ko‘proq yalangoyoq yuring;  
ortiqcha kiyimlarni yeching;  
badaningizni yorug‘lik, suv va havoga tuting.

Aniqroq aytadigan bo‘lsak:

yiliga kamida 2 marta 10 kundan tabiiy sharoitlarda bo‘ling;  
har kuni 10-25 minutdan yerda (o‘t, tuproq, tosh, qor) yoki xonada  
yalangoyoq yuring;

har kuni uydan chiqib atrofdagi daraxtlarga, o‘t-o‘langa, qorga,  
osmonga qarab, ajoyib tabiatdan zavqlaning;

har qanday iqlimni seving;  
shamol, yomg‘ir, bo‘rondan qo‘rqmang;

shamollashdan qo‘rqmang, mabodo u ro‘y berganda buni to‘g‘ri  
qabul qiling.

Tabiatdan himoyalangan kishi issiqxonada yashaganday bo‘ladi.

3.Qoida. Yaxshilik va mehr-shafqat.

Bu xislat sog‘lom hayotning zarur shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi. Bunday xislatli kishilar ham atrofdagilarga, ham o‘zlariga farog‘at bag‘ishlaydilar. Bunday kishilarni altruistlar deb atashadi.

Altruizm – bu insonning hayotiy o‘rni (pozitsiya) hisoblanib, u barcha atrofdagilarga mehr va hurmat bilan qaraydi.

4.Qoida. Doimiy ravishda o‘zingizni sog‘lomligingizga ishonch hosilqiling.

O‘z tanangiz yoki biror bir a’zoyingiz bezovta qilsa, ko‘z oldingizga albatta, sog‘lom tana yoki a’zoni tasavvur qiling.

5.Qoida. Kunida ikki marta ustingizdan sovuq suv qo‘ying.

Iloji bo‘lsa buni toza havoda, oyoqyalang, yerda turgan holda bajaring. Iloji boricha tez-tez toza tabiiy suv havzalarida cho‘miling. Bu

o‘z navbatida organizmning o‘z himoya mexanizmlarini qo‘zg‘atadi va fiziologik (yaxshi) stress chaqiradi.

6.Qoida. Haftada bir marta 36 soatdan(kech, kun, kech)kam bo‘lmanganvaqtida ovqat va suv iste’mol qilmaslik.

Bu tadbir organizmni nafaqat shlaklardan, hatto nimjon va o‘sma hujayralardan ham tozalaydi. Ovqatsiz va suvsiz ochlik vaqtida organizm endogen, ya’ni ichki suv ta’minotiga o’tadi. Organizmdagi yog‘lar erib energiya xarajatini qoplaydi. Bunday ochlik davrida organizmda yog‘lar erib ketish jarayoni faollashadi, hatto yog‘ to‘planishi sekinlashadi, ayniqsa ichki a’zolarning (avvalambor jigarning) yog‘ bosishga yo‘l qo‘yilmaydi.

7.Qoida. To‘g‘ri ovqatlanish.

Bu qat’iyan parhez tutish degan gap emas, lekin quyidagi qator maslahatlarni bajarish muhim:

Har kunlik taomnomada tuz, shakar va hayvon yog‘ini cheklash;

Tuz va shakarni oziq-ovqat mahsulotlari deb emas, balki kimyoviy moddalar deb atash mumkin. Ortiqcha tuz miqdori (bu avvalambor natriy ionlari) organizmning elektrolit balansini buzilishiga, bu esa o‘z navbatida gipertoniya va bo‘g‘inlar kasalliklariga olib kelishi mumkin.

Qandning haddan ziyod iste’mol qilish oshqozon osti beziga og‘irlik qiladi va qandli diabetning rivojlanishiga monelik qiladi. Bunday tashqari, odamlar yog‘ va oqsilga qaraganda, qand va shirinlik mahsulotlaridan ko‘proq semiradi.

Hayvon yog‘larining ortiqchaligi bu avvalambor, ekzogen (tashqi) xolesterinning ortiqchaligi hisoblanadi. Organizmga u kerak va uni organizm sintez qilishga qobiliyatli. Lekin, xolesterin ko‘paysa uni organizmdan chiqarish kerak bo‘ladi. Bunda organizmning chiqaruvchi mexanizmlari zo‘riqadi va ishdan chiqadi. Natijada buyrak, o‘t xaltada tosh paydo bo‘ladi. Shuningdek ateroskleroz, ya’ni erimaydigan xolesterin tuzlarining qon tomirlarda o‘tirib qolishi kasalligi rivojlanadi.

Ovqatda yetarli miqdorda sabzavotlar, mevalar, ovqatbop ko‘katlar va ovqatbop tolalarni yetarli miqdorda iste’mol qilish.

Bu avvalambor kletchatka (tola). Kletchatka yetarli miqdorda iste’mol qilinganda ichaklar, ayniqsa yo‘g‘on ichak shlaklardan to‘laqonli tozalanadi. Bu esa o‘z navbatida ichak devorlarini turli xil yozishmalardan va chiqindilardan tozalaydi. Natijada ular yuzasinining so‘rish funksiyasi yaxshilanadi, achish jarayonlarining oldi olinadi, organizmning o‘z-o‘zini zaharlanishining oldi olinadi, ichakda gaz hosil bo‘lishi birmuncha kamayadi.

Har kun kamida bir marta ichakni bo‘shatish.

Ichning to‘xtashi, qabziyat – bu nafaqat kasallik, organizmning tartibi buzilganligi, balki kayfiyatning nosozligi ham sabab bo‘lishi mumkin. Ichning qotishi yo‘g‘on ichakda bijg‘ish jarayonlarining paydo bo‘lishiga, hosil bo‘lgan zaharli moddalar qonga so‘rilishi va organizmni zaharlanishiga olib kelishi mumkin.

Kechqurun soat 18:00-19:00 dan keyin ovqat qabul qilmang.

Uyquga ketish oldidan oshqozonda ovqat hazm bo‘lishi jarayoni tugashi maqsadga muvofiq. Chunki uyqu vaqtida ichakda ovqat hazm bo‘lishi, ozuqaviy moddalarning so‘rilishi va modda almashinuvining faollahuvi ro‘y beradi.

Sekin tamaddi qiling.

Bu oshqozonni nafaqat yaxshi chaynalmagan ovqat tufayli kelib chiqadigan kasallikdan himoya qiladi, balki haddan ziyyod ovqatlanishdan saqlaydi. Chunki to‘qlilikni his qilish uchun ma’lum muddat o‘tishi kerak.

Ko‘ngil tusamagan vaqtida yemang.

Doimo chaynash kishida nafaqat ortiqcha kaloriyalar qo‘shadi, balki oshqozon-ichak yo‘lining motor va sekretor faoliyatiga salbiy ta’sir qiladi. Bunday salbiy odat insonga xos emas.

Yeyish uchun yeng.

Ovqatlanayotgan vaqtida biror bir ish bilan (aksariyat hollarda bu o‘qish) shug‘ullanib odam mustahkam shartli refleks hosil qiladi, ya’ni ovqatlanish biror bir faoliyat bilan bog‘lanadi. Ana shunday holat bo‘lmagan taqdirda esa diskamfort paydo bo‘ladi.

8.Qoida. O‘z organizmingizni yetarli darajada jismonan tayyorlang.

Eng avvalo yugurish. Yugurish haftasida 30-40 km, yoki kunida 35 minutni tashkil etishi lozim. Iloji boricha avtotrassalardan uzoqroqda, bog‘, park, o‘rmon va h.

Umumiyl jismoniy faollik (chopish, yurish, yuk ko‘tarish va b.) kunida 2 soatdan kam bo‘lmasligi kerak.

Yosh o‘tgan sayin jismoniy faollik kamayib, iste’mol qilinadigan ovqat miqdori ko‘payishi ateroskleroz va semirishga sababchi bo‘ladi. O‘tgan asrda vrach A.Trusso shunday deb yozgan:

«Harakat o‘z ta’siri bilan har qanday dorini o‘rnini olishi mumkin, lekin dunyodagi barcha davolash vositalari harakatning o‘rnini ololmaydi».

9.Qoida. To‘g‘ri nafas olish.

Bunda ikkita narsaga e’tibor berish kerak:

Nafas olish vaqtida og‘izni berkitishga harakat qiling. Bir yerda turganda ham, harakatda bo‘lganda ham faqat burun orqali nafas oling. Burun orqali nafas olish organizmning normal rivojlanishiga va deyarli barcha a’zolar va tizimlarning me’yorida faoliyat ko‘rsatishiga katta ahamiyat kasb etadi. Avvalambor burun va yuqori nafas olish a’zolari – bu o‘pkaga chang, bakteriyalar va boshqa zararli vositalarning kirishiga to‘sinqinlik qiluvchi filtr hisoblanadi. Burun bo‘shlig‘idagi shilliq (sliz) tarkibidagi begona organik moddalarni buzuvchi fermentlar kompleksi bo‘ladi.

Nafas chiqarish nafas olishdan ikki marta uzunroq bo‘lishi kerak. Aniqlanishicha nafas olish bosh miya po‘stlog‘iga qo‘zg‘atuvchi ta’sir ko‘rsatar ekan. Nafas chiqarish esa ichki a’zolarni tinchlantirib ularning barobar ishlashiga yordam beradi. Shuning uchun uyqusizlikda nafas chiqarishni uzaytirish tavsiya qilinadi. Chunki u markaziy asab tizimining qo‘zg‘alishini (kuchlanishini) tinchlantiradi. Masalan, uyqu kelgan ammo uplashning iloji bo‘limganda odam esnaydi, ya’ni nafas olishni uzaytirmaydi va shu bilan markaziy asab sistemasini qo‘zg‘atib uyquni qochiramiz.

#### 10.Qoida. Har hafta bug‘ hammom yoki sauna.

Bu avvalambor gigiyenik muolaja hisoblanadi. Bu shuningdek terining massaji va teri qon tomirlarining mashqi. Hammomda ayniqsa kontrast suv muolajalari ya’ni issiq va sovuqni almashtirib turish katta ahamiyatga ega.

#### 11.Qoida. Sevinch.

Sevgi – bu barcha a’zo va tizimlarning biologik mashqi. Jinsiy garmonlar nafaqat jinsiy xulq va odamlar ko‘payishiga balki butun tananing rivojiga, mushaklar tizimining o‘sishi va rivojlanishiga, shu jumladan, yurak mushaklariga javob beradi.

#### 12.Qoida. Alkogol,giyohvand moddalar, zaharli moddalarni iste’mol qilmaslik va chekmaslik.

Bu borada izohning hojati yo‘q. Faqat buyuklarning quyidagi so‘zlarini eslash kifoya:

«Agar chang va tutun bo‘lmasa inson ming-yil yashardi»

Abu Ali ibn Sino

«Odamlar vabodan qo‘rqishadiyu, ammo ichkilik undan ham dahshatliroq ekanligidan bexabar»

Abu Ali ibn Sino

#### 13.Qoida. Dorilarni iste’mol qilishni keskinkamaytirish va ularnifaqat vrachlarning tavsiyasiga binoan qabul qilish.

Hech bir dori vositasi, hatto sintetik vitamin preparatlari ham tabiiy ovqatbop o'simliklar, meva va sabzavotlarga teng kelolmaydi. Profilaktik maqsadda turli xil dori vositalarini qabul qilish albatta organizm uchun xavfsiz emas. O'simliklar, giyohlar ham me'yorida, amaliyotda ishlatilganlarini bilib iste'mol qilish lozim.

14.Qoida. Tanaharoratiko'tarilishibilankechadiganshamollash kasalliklaridavrida chiniqishmuolajalarini to'xtatmaslik.

Ayniqsa tanaga sovuq suv qo'yishni kanda qilmaslik zarur. Chunki bu vaqtida organizmning himoya kuchlari qo'zg'alishi ro'y beradi. Harorat ko'tarilishidan qo'rmaslik kerak, chunki bu organizmning kasallikka qarshi kurashishning ifodasidir.

Piroterapiya degan davolash usuli mavjud. Unga ko'ra odamga maqsadli ravishda tana haroratini ko'taruvchi vositalar – pirogenlar yuboriladi. Pirogenlar chaqirgan varaja (lixoradka) holati gipofizar – buyrakusti tizimlarini faollashuvi, ichki a'zolarga qon aylanishini 2-3 marta tezlashishi, qonda leykotsitlar sonining ko'tarilishi, immun kuchlarining rag'batlanishi bilan kechadi. Tomirlardagi tromblar erishi faollashadi, chandiqlar (masalan, kuygandan keyingi chandiq) tez so'rildi, to'qimalarda energiya almashinushi oshadi va glyukoza parchalanadi, ATF (organizmda universal energiya tashuvchi) ning sintezi faollashadi, oshqozon yarasi paydo bo'lishi to'xtaydi, o'sma hujayralar tiklanadi, hattoki, markaziy asab tizimining buzilishlari qayta tiklanadi.

15.Qoida. Mehnat.

Mehnat – bu nafaqat ijtimoiy zaruriyat, balki biologik ehtiyojdir. Har qanday biologik ehtiyojdan bosh tortish oqibatida esa «surunkali emotsional stress» yoki G.Sele bo'yicha distressga olib keladi. Distress esa organizmning buzilishi oqibatlariga olib keladi.

Mehnat – asosiy valeologik omillardan biri hisoblanadi.

168-yil yashagan Sherali Muslimov (U Napoleon yurishi va insonning Oyga qo'nishi voqealari zamondoshi) 150-yillik mehnat stajiga ega. U mehnat borasida shunday degan:

«Hamma vaqt mehnat qilish kerak, tantana zerikishni, zerikish o'limni tug'diradi».

Shuning uchun ko'pchilik

«Eng og'ir ish – hech nima qilmaslik»  
deb tushunadi va bunga amal qiladi.

16.Qoida. Bolalaringizni hurmat qiling.

Bola oilaning teng huquqli a'zosi bo'lishi kerak. Unga begonaday qarash yoki haddan tashqari sajda qilish darajasida bo'lmasligi kerak. Tan

olish kerak bolalar kasalliklarining sababini ota-onalarining noto‘g‘ri xatti-harakati va hayot tarzidan izlash kerak. Albatta jamoat aloqalari va bolalar profilaktik tibbiyoti darajasi ham bundan mustasno emas.

Bolalarda ham ushbu «Salomatlik Kodeksi»ning talablarini bajarishni o‘rgatish kerak. Qancha erta boshlansa shuncha yaxshi.

17.Qoida. Sutkada 6-7 soatdan kam uxlamaslik.

Uyqu bu organizmning passiv holati emas, aksincha faol fiziologik jarayon hisoblanadi. Bu davrda ko‘pgina trofik (oziqlantiruvchi) faoliyat, tiklanish, o‘sish jarayonlari amalga oshadi. Uyqu vaqtida qisqa muddatli ma’lumotlar xotiradan uzoq muddatli xotiraga o‘tkaziladi hamda keraksiz ma’lumotlar xotiradan o‘chiriladi.

18.Qoida. O’zingizda ishonch hosil qiling.

Avvalambor xudoga ishoning. So‘ngra nimaga ishonsangiz ishoning. Eng asosiysi o‘zingizga ishoning, o‘z kuchingizga, irodangizga, iymoningizga ishoning. Har qanday ishonch odamni maqsadli hayot kechirishini, demak ruhiy kelishmovchiliklarning oldini olishga xizmat qiladi.

19.Qoida. Hayotda o‘zoldingizga maqsad qo‘yingva uning amalgaoshishi uchun kurashing.

Sharti shuki maqsadingiz hech kimga ziyon keltirmasin. Qolganlari sizning ixtiyoriningizda. Kuch, imkoniyat, intilish, iqtidor va tabiiy in’om shular jumlasiga kiradi.

20.Qoida. Salomatlikni saqlash ham – mehnat.

Salomatlikni saqlash nafaqat jismoniy mehnatni, balki zakovatli mehnatni ham talab qiladi.

Ayrimlar tibbiyot xodimlari borki, salomatligimiz to‘g‘risida o‘shalar qayg‘uradi deb o‘ylashadi. Shuni yaxshi bilib olingki, sizning salomatligingiz to‘g‘risida, sizdan boshqa hech kim qayg‘urmaydi.

21.Qoida. Me’yorni unutmang.

Sizning salomatligingiz uchun ovqatda, jismoniy faollikda, mehnatda, dam olishda, ichishda, muhabbatda, quyoshda toblanishda, cho‘milishda, his-tuyg‘uda, qolaversa hamma – hammasida faqat me’yorgina yordam beradi.

Tibbiyot muassasalarining turli bo‘g‘inlarida faoliyat ko‘rsatayotgan vrachlar tomonidan «Salomatlik Kodeksi»ni aholi orasida keng targ‘ib qilish, shak-shubhasiz sog‘lom hayot tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

## **4-BOB**

# **JAHON SOG'LIQNI SAQLASH TASHKILOTI VA ATROF-MUHIT**

### **4.1. Atrof-muhit va salomatlik**

Inson salomatligining qariyb 20 foizi atrof-muhitning tozaligiga bog'liq. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi omil esa inson va uning faoliyatiga salbiy ta'sir qiladi.

Sog'liq haqida gap ketganda, eng avvalo biz tabiat, xususan uning birliklari tuproq, suv, havoning inson hayoti va salomatligini ta'minlovchi muhim omillar ekanligini chuqur anglashimiz lozim. Chunki biz tuproqda o'sib yetilgan ovqatliklarni iste'mol qilamiz, suv bilan chanqog'imizni qondiramiz, havodan nafas olamiz. Shu bois ularni turli chiqindilar bilan ifloslanishdan saqlashimiz kerak. Aks holda, ular turli kasalliklarning sababchilari bo'lishi mumkin.

Shuning uchun joylarda muntazam ravishda atrof-muhitni tozaligini asrab avaylashga qaratilgan tadbirlar olib borish, sog'lom turmush tarzi targ'ibotida nihoyatda muhimdir. Bu ishlar keng jamoatchilikning bevosita ishtirokida olib borilishi lozim bo'lganligi uchun jamoat sanitariyasi deyiladi.

Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkilotining ma'lumotiga ko'ra jamiki kasalliklarning 85 foizi bevosita suv bilan bog'liq.

Masalan, suvning ahamiyatli tomoniga qarayotganligimizning sababi shundaki, agarda tegishli ehtiyyot choralarini ko'rilmasa, suv orqali ko'pgina yuqumli ichak kasalliklari tarqalishi mumkin. Masalan; ichburug', ich terlama, sariq, vabo, enteritlar kabi yuqumli ichak kasalliklari asosan suv orqali yuqadi.

Turmushda hosil bo'ladigan chiqindilar. Ma'lumki inson va uning turmushida turli xil chiqindilar hosil bo'ladi. Ularni shartli ravishda quyidagicha ajratish mumkin:

- Hovli va xonalarni tozalashda hosil bo'ladigan chiqindilar;
- Ovqat qoldiqlari;
- Xayvon chiqindilari;
- Eskirgan buyum, idish va uy anjomlari;

Kundalik turmushda hosil bo‘ladigan chiqindilarni yig‘ish, saqlash va zararsizlantirish borasida izchil ishlar olib borilmasa ular hafta, oy va-yillar davomida to‘planib, insonlar sog‘ligiga jiddiy xavf keltiradi.

Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar. Atmosfera havosini hozirda asosan ikki manba ifloslantiradi: birinchisi tabiiy omillar bo‘lsa, ikkinchisi inson faoliyatining mahsuli hisoblanuvchi antropogen omillardir.

Atmosfera havosini ifloslantiruvchi tabiiy omillarga vulqonlarning otilib chiqishi, tog‘ jinslarining yemirilib, shamol vositasida to‘zishi, o‘rmonlarga o‘t ketib, undan paydo bo‘ladigan zararli omillarning atrof-muhitga yoyilishi kabi tabiiy ofatlarni misol qilib ko‘rsatish mumkin.

Antropogen ifloslanishlar, asosan, insonning hayotiy faoliyatining mahsuli bo‘lmish sanoat korxonalari, avto va ajratmalar atmosfera havosini ifloslantiradi, shuningdek turli xil yoqilg‘ilarning ishlatalishi oqibatida paydo bo‘ladigan zararli moddalarning havo havzasiga tushishi ham atrof-muhitning zararlanishiga olib keladi.

Industriyasi nihoyatda rivojlangan katta shaharlar va sanoat markazlarining atmosfera havosidagi chang, tutun, qurum va tumanlar ba’zi vaqtarda osmonni qoplab turadi. Bu holat quyosh nurlarini to‘sib qo‘yib, yer yuziga ultrabinafsha nurlarini o‘tishiga yul bermaydi. Ultrabinafsha nurlarini yer yuziga yetarli miqdorda tushmasligi, o‘z navbatida turli kasalliklarni, ayniqsa bolalarda raxit kasalligini keltirib chiqaradi.

Havoning doimo tutun, tuman bilan qoplanishi kishilarning asabiga, bemorlarning kayfiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday holat shahar hududiga yorug‘lik nurining yetarlicha tushmasligi, yashash joylarida, makkablarda, muassasalarda, ish joylarida yorug‘likning kam bo‘lishiga olib keladi, natijada u o‘qish va ish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Atmosfera havosidagi chang zarrachalari inson organizmiga noxush ta’sir qiladi. Changlarning asorati ularning tarkibidagi kimyoviy moddalarning biologik aktivligiga, tabiatiga, fizik jihatiga uzviy bog‘liq. Masalan, havodagi chang tarkibidagi ko‘rg‘oshin, margimush, marganets, kadmiy, fтор aerozollari doimiy ravishda organizmga tushib turgach, surunkali kasalliklarga olib kelishi aniq. Ayniqsa, radioaktiv xususiyatga ega bo‘lgan changlar o‘ta xavfliligi bilan ajralib turadi. .

Jahon Sog‘likni saqlash tashkilotining taniqli ekspert-mutaxassis olimlarining fikriga ko‘ra, agar barcha mamlakatlar aholisining hammasi, birinchi navbatda yoshlar, «Sog‘lom turmush tarzi» qoidalariga amal qilsalar, har bir odamning sog‘lig‘ining mustahkamlanishi, mehnat

qobiliyatining yaxshilanishi, umr ko‘rishining uzayishi, bo‘lajak avlod genofondining sog‘lomlashtirilishi kabi hayotiy muhim ko‘rsatgichlarda ijobiy natijalarga erishilishi muqarrardir.

Mazkur tashkilotning ma’lumotiga ko‘ra, salomatligimizning 55 foizi kechirayotgan turmush tarzimiz, 18 foizi irlsiy kasalliklar, 17 foizi ekologik omillar, 10 foizi esa tibbiy xizmat sifatiga bog‘likdir.

Inson salomatligining qariyb 20 foizi atrof-muhitning tozaligiga bog‘liq. Atrof-muhitni ifloslantiruvchi omil esa inson va uning faoliyati salbiy ta’sir qiladi.

Sog‘liq haqida gap ketganda, eng avvalo biz tabiat, xususan uning birliklari tuproq, suv, havoning inson hayoti va salomatligini ta’minlovchi muhim omillar ekanligini chuqur anglashimiz lozim. Chunki biz tuproqda o‘sib yetilgan ovqatliklarni iste’mol qilamiz, suv bilan chanqog‘imizni qondiramiz, havodan nafas olamiz. Shu bois ularni turli chiqindilar bilan ifloslanishdan saqlashimiz kerak. Aks holda, ular turli kasalliklarning sababchilari bo‘lishi mumkin.

Shuning uchun joylarda muntazam ravishda atrof-muhitni tozaligini asrab avaylashga qaratilgan tadbirlar olib borish, sog‘lom turmush tarzi targ‘ibotida nihoyatda muhimdir. Bu ishlar keng jamoatchilikning bevosita ishtirokida olib borilishi lozim bo‘lganligi uchun jamoat sanitariyasi deyiladi.

Jahon Sog‘liqni Saqlash Tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra jamiki kasalliklarning 85 foizi bevosita suv bilan bog‘liq.

Masalan, suvning ahamiyatli tomoniga qarayotganligimizning sababi shundaki, agarda tegishli ehtiyot choralarini ko‘rilmasa, suv orqali ko‘pgina yuqumli ichak kasalliklari tarqalishi mumkin. Masalan; ichburug‘, ich terlama, sariq, vabo, enteritlar kabi yuqumli ichak kasalliklari asosan suv orqali yuqadi.

Suv hamma tiriklikning asosi – hayot manbai. Suv bizning planetamizning barcha tirik mavjudotlariga ta’sir etadi.

Bizning planetamiz – “Suv planetasi”, uning  $\frac{3}{4}$  qismi suvdan iborat.

Bu zaxiraning 97 foizi sho‘r dengiz suvi, 2 foizi muz va atigi 1 foizi esa ichish va xo‘jalik faoliyat uchun zarur bo‘lgan chuchuk suvni tashkil etadi.

2004-yil USAID hamkorligida va NNT koalitsiyasining “Daryo hamma uchun – hamma daryo uchun”, “Suvga munosabatimizni o‘zgartiramiz” nomli loyihalari doirasida katta anjuman o‘tkazdi. Ushbu anjumanga “SZAA” (Nukus), “Logos”, “Hayot” (Toshkent), “Za ekonomicheskuyu chistuyu Ferganu” (Farg‘ona), “Zarafshon”

(Samarqand) tashkilotlari va “Kaunterpart Interpeymnl” Xalqaro jamg‘armalari qatnashdi.

Mazkur anjumanda Samarqandda suv ta’minoti, Zarafshon daryosi suvining kimyoviy va bakteriologik holati, yuqumli kasalliklar paydo bo‘lishi va aholi o‘rtasida tarqalishida suvning ahamiyati kabi dolzarb masalalar ko‘rib chiqildi. Chunki Zarafshon daryosi Samarqand aholisini ichimlik suv bilan ta’minlaydigan yagona ochiq suv havzasini hisoblanib aholi o‘rtasida turli xil yuqumli kasalliklarning tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. 1996-1998-yillarda Zarafshon daryosi qo‘shni Tojikiston Respublikasi Panjikent viloyati tashkilot va muassasalari tomonidan biologik tozalanmagan oqava suvlar bilan ifloslanishi natijasida aholi o‘rtasida ichterlama kasalligining tarqalishiga sabab bo‘lgan edi. Zarafshon daryosining ekologik tozaligi aholi salomatligiga, uning epidemiologik osoyishtaligiga naqadar muhim o‘rin tutishini yuqoridagi dalillar bilan isbotlash mumkin.

Salomatlik har bir inson uchun beba ho boylik sifatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim shartlaridan biri bo‘lib kelmoqda. Inson salomatligini har qancha moddiy boylik va mablag‘ evaziga sotib olib bo‘lmaydi. Har bir kishi mustahkam salomatlikka qanday erishish yo‘lini, salomatlikning sir-asrorlarini chuqur bilishi va to‘laqonli salomatlikning yagona yo‘li sog‘lom turmush tarzi ekanligini anglab yetishi lozim. Ammo aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish ishlari zamonaviy talablar darajasidan ancha orqada qolmoqda.

Har bir shaxs o‘zining yurish-turishi uchun mas’ul deb qabul qilingan demokratik jamiyatda mamlakatning har bir fuqarosi o‘z salomatligini ko‘z qorachig‘iday asrashga erishishi kerak.

Aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish uchun gigiyenik bilimlar bilan qurollantirish va gigiyenik ko‘nikmalarni o‘zlashtirish uchun o‘qitish muhim o‘rinni egallaydi.

#### **4.2. Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish**

Respublikada ekologik xavfsizlikni ta’minlash va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvini tubdan takomillashtirish, ekologik holatni yaxshilash, chiqindilarning fuqarolar sog‘lig‘iga zararli ta’sirining oldini olish, aholi turmush darajasi va sifatini oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish, maishiy chiqindilarni yig‘ish, saqlash, tashish,

utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko‘mish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21 apreldagi PF-5024-sonli “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Ushbu Farmonda O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi faoliyatining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat boshqaruvi;
- atrof-muhitning qulay ekologik holatini, ekologik tizimlar, tabiiy komplekslar va alohida ob’ektlar muhofaza qilinishini, ekologik sharoitning sog‘lomlashtirilishini ta’minlash;
- chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat ekologik nazoratini amalga oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari bilan mustahkam hamkorlikda maishiy chiqindilarni yig‘ish, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko‘mish borasida ta’sirchan tizimni tashkil etish;
- yer, yer osti boyliklari, suv, o‘rmonlar, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan davlat ekologik nazoratni o‘rnatish;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ishlarini muvofiqlashtirish, tabiatni muhofaza qilish va resurslarni tejash borasida yagona siyosatni amalga oshirishga oid amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda idoralararo hamkorlikni ta’minlash;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat kadastrini yuritish, shuningdek, yovvoyi hayvonlarni, yovvoyi o‘simliklarni ko‘paytirish va saqlash pitomniklarini, zoologiya va botanikaga oid kolleksiyalarni davlat tomonidan ro‘yxatga olish;
- ekologik tarbiya, targ‘ibot va ta’limni, shuningdek, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

Mustaqillik-yillarida O‘zbekiston Respublikasida ekologik xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha muhim huquqiy, tashkiliy va ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi 15 dan ziyod qonun, tabiiy resurslarning ayrim turlaridan foydalanish mexanizmlari va shartlari,

shuningdek, davlat ekologik ekspertizasini amalga oshirish, turli toifadagi qo‘riqlanadigan hududlarni tashkil qilish va ularda alohida foydalanish rejimini o‘rnatish tartib-taomillari va boshqa masalalarni belgilab bergen 30 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi va amal qilmoqda.

Qabul qilingan hujjatlar atrof-muhit ob’ektlarining ifloslanish darajasini ma’lum darajada kamaytirish, qo‘riqlanadigan tabiiy hududlar tizimini rivojlantirish, xalqaro tashkilotlarni milliy ekologik muammolarni hal etishga jalb qilish imkonini berdi.

Shu bilan birga, atrof-muhit muhofazasi sohasida amaldagi davlat boshqaruvi tizimi va nazorati bo‘yicha o‘tkazilgan tahlil bir qator kamchilik va muammolar borligini ko‘rsatdi, xususan:

- chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasida jismoniy va yuridik shaxslar, maxsus vakolatli davlat organlari, tashkilot va korxonalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi hamda nazorat qiluvchi yagona davlat organining mavjud emasligi;
- Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining Vazirlar Mahkamasiga bo‘ysunish tartibining huquqiy asoslari yo‘qligi tufayli atrof-muhit muhofazasi sohasida idoralararo to‘laqonli hamkorlik qilish va bu boradagi vazifalarni amaliy jihatdan hal etish imkonini yo‘qligi;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanish sohasidagi ekologik, sanitariya me’yor va talablarini buzganlik uchun qonunchilikda nazarda tutilgan ma’muriy jazo choralarining yetarli emasligi va samarasini pastligi;
- Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining chiqindilar bilan ishlash sohasidagi vakolatlari faqat ishlab chiqarish chiqindilarini nazorat qilish bilan cheklangan edi. Qo‘mitaning amaldagi tashkiliy tuzilishi va shtatlar birligi unga yuklatilgan vazifalarni sifatli va to‘liq hajmda amalga oshirish imkonini bermayapti.

Shu munosabat bilan, ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash, bu yo‘nalishdagi davlat boshqaruvi va nazorat tizimini takomillashtirish maqsadida, shuningdek, “2017 — 2021-yillarda O’zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari-yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida ko‘zda tutilgan boshqa vazifalarni hal etish uchun O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoni qabul

qilindi. Farmonda O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunuvchi va hisobot beruvchi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga aylantirildi.

Farmon bilan Davlat ekologiya qo'mitasiga quyidagi vazifalar yuklandi:

- ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ularni qayta tiklash sohasida davlat boshqaruvini amalga oshirish;
- maishiy chiqindilarni toplash, tashish, qayta ishslash, utilizatsiya qilish va ko'mish ishlarining samarali tizimini tashkil etish;
- atrof-muhitning ekologik holati maqbul tarzda saqlanishini, ekologiya tizimlari, tabiiy komplekslar va alohida ob'ektlarni qo'riqlashni, ekologik vaziyat sog'lomlashtirilishini ta'minlash;
- yer, yer osti boyliklari, suv, o'rmonlar, qo'riqlanadigan tabiiy hududlar, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish va ulardan foydalanish, atmosfera havosini muhofaza qilish, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya qilish borasida davlat ekologik nazoratini amalga oshirish;
- ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat kadastrini yuritish, shuningdek, yovvoyi hayvonlar, yovvoyi o'simliklar ko'paytiriladigan va saqlanadigan pitomniklar, zoologiya va botanika kolleksiyalarining davlat hisobini yuritish;
- ekologik tarbiya, targ'ibot va ma'rifiy ishlarni, shuningdek, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi sohasi mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil etish.

Farmonga muvofiq quyidagi tuzilmalar tashkil etiladi:

- O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyatlar va Toshkent shahar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalarining markaziy apparatlarida Chiqindilarning hosil bo'lishi, ularni toplash, saqlash, tashib ketish, utilizatsiya qilish, qayta ishslash, ko'mish va realizatsiya qilish bo'yicha nazorat inspeksiyalari;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasi, viloyatlar ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish boshqarmalari huzurida "Toza hudud" davlat unitar korxonalari va mamlakatimiz shaharlarida, shuningdek, tuman hokimliklari huzuridagi

obodonlashtirish boshqarmalarining chiqindilarni olib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatadigan uchastkalari negizida ularning filiallari;

- tabiatni muhofaza qilish respublika va mahalliy jamg‘armalari negizida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish bo‘yicha jamg‘arma tashkil etiladi, jamg‘arma mablag‘lari birinchi navbatda atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlariga, jumladan, chiqindilar bilan bog‘liq ishlarga va bioresurslarni saqlash va qayta tiklashga, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza va monitoring qilish sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘tkazishga, targ‘ibot va ma’rifiy ishlarni tashkil etishga, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlashga yo‘naltiriladi;

- O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining Hayvonot va o‘simliklar dunyosini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish respublika inspeksiyasi O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasining Bioxilma-xillik va muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi etib qayta tuziladi va uning hududiy inspeksiyalari tashkil qilinadi.

Xorijiy mamlakatlarning ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish organlari faoliyatini tashkil qilishga oid tajribasidan kelib chiqqan holda mamlakatimiz qonunchiligiga Davlat ekologiya qo‘mitasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi oldida hisobot berib borishi yuzasidan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish nazarda tutilgan. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga jismoniy va yuridik shaxslarning javobgarligini kuchaytirish, bu borada chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikni buzganlik uchun jarima sanksiyalari miqdorini oshirish, O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Yer osti boyliklari to‘g‘risida”gi qonunlariga ko‘p joyda uchraydigan foydali qazilmalarni qazib olishning belgilangan tartibini buzganlik uchun jismoniy va yuridik shaxslarning javobgarligini kuchaytirish yuzasidan o‘zgartish kiritildi.

Mazkur farmonning amalga oshirilishi juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

birinchidan — atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan davlat nazorati va boshqaruvi organlarining tizimli ish olib borish samaradorligini oshiradi;

ikkinchidan — ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi idoralararo samarali hamkorlikni ta'minlaydi;

uchinchidan — atrof-muhitning ekologik holati, ekologik tizim, tabiiy komplekslar va alohida ob'ektlarni qo'riqlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi.

#### **4.3. 2017-2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21 apreldagi PF-5024сонли “Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish, munosib yashash sharoitlarini yaratish, respublika sanitariya va ekologik vaziyatni yaxshilash aholi turmush darajasi va sifatini yanada oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21 apreldagi “2017-2021-yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PQ-2916-sonli qarori qabul qilindi.

Mazkur qarorda 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan dasturni moliyalashtirish uchun 1 trillion so‘mdan ziyod mablag‘ yo‘naltiriladi. Qarorning amalga oshirilishi tufayli aholiga qattiq maishiy chiqindilarni tashib ketish va poligonlarda utilizatsiya qilish xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha yaxlit tizim tashkil etish ishlari nihoyasiga yetkaziladi, sanitariya jihatidan tozalash ishlariga ixtisoslashtirilgan tashkilotlar va Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlardagi “Toza hudud” davlat unitar korxonalari filiallari maxsus texnikalar (chiqindi tashish va assenizatsiya mashinalari) hamda qattiq maishiy chiqindilar uchun elekromexanik elak qurilmalari bilan to‘liq ta’minlanadi, qattiq maishiy chiqindilarni organik o‘g‘itlarga aylantirish uchun birlamchi qayta ishlashni tashkil etish, shuningdek, qattiq maishiy chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha zamонавиу texnologiyalarni joriy etishga erishiladi va aholini qattiq maishiy chiqindilarni tashib ketish xizmatlari bilan qamrab olish darajasi 2021-yilgacha mamlakatimiz bo‘yicha 63 foizdan 93 foizgacha o‘sadi.

Muxtasar qilib aytganda, ushbu qarorning qabul qilinishi yurtimizda ekologiya va sanitariya muhitini yanada yaxshilash, aholini salomatligini

mustahkamlash, shahar va qishloqlarimizning yanada obod va ko‘rkam qiyofa kasb etish yo‘lidagi ulkan amaliy qadamdir.

#### **4.4. 2017 — 2021-yillarda ichimlik suvi ta’mnoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida**

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20 apreldagi PQ-2910-sonli “2017 — 2021-yillarda ichimlik suvi ta’mnoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida”gi qarori aholining keng qatlamlari yashashi uchun, ayniqsa, qishloq joylarda, shinam va qulay ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish, iste’molchilar uchun hamma joyda sifatli ichimlik suvi yetkazib berilishiga erishish, respublikada suv ta’mnoti va kanalizatsiya xizmatlari ko‘rsatish samaradorligini oshirish maqsadida qabul qilindi.

Mazkur Qaror bilan quyidagilar 2017 — 2021-yillarda ichimlik suvi ta’mnoti va kanalizatsiya tizimini yanada rivojlantirish hamda modernizatsiyalashning asosiy ustuvor yo‘nalishlari etib belgilandi:

- aholining, ayniqsa, qishloq joylardagi aholining toza ichimlik suvi bilan ta’minlanishini yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- suv olish, kanalizatsiya inshootlari hamda vodoprovod tarmoqlarining yangilarini qurish, mavjudlarini qayta tiklash va rekonstruksiya qilish, shuningdek, suv ta’mnoti tashkilotlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy uskunalar, mashinalar, mexanizmlar, ta’mirlash-foydanish va o‘lchov texnikasi bilan jihozlash;
- suv ta’mnoti sohasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, shu jumladan, iste’mol qilingan suv va ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini hisobga olishning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish;
- ichimlik suvi ishlab chiqarishning texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish, belgilangan talablarga muvofiq suvning sifatli bo‘lishini ta’minalash, ishlab chiqarish jarayoniga energiya hamda suvni tejaydigan texnologiyalar va uskunalarini tatbiq etish;
- suv ta’mnoti va kanalizatsiya tizimlarini, shu jumladan, davlat bilan xususiy sektor sherikligi asosida boshqaruvning bozor tamoyillariga mos keladigan mexanizmlarini joriy etish;

- suv ta'minoti tashkilotlarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, ular tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga narx shakllantirish tartibini takomillashtirish.

Shuningdek mazkur qaror bilan 2017 — 2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturitasdiqlandi, u o'z navbatida quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- 2017 — 2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturining yig'ma parametrlari;
- 2017 — 2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturini moliyalashtirishning yig'ma parametrlari;
- 2017 — 2021-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarning ichimlik suvi ta'minoti tizimi ob'ektlarini qurish hamda rekonstruksiya qilishning manzilli dasturlari;
- 2017 — 2021-yillarda hududlararo ahamiyatdagi ichimlik suvi ta'minoti tizimi ob'ektlarini hamda alohida muhim ob'ektlarni qurish va rekonstruksiya qilishning manzilli dasturi;
- 2017 — 2021-yillarda xalqaro moliya tashkilotlarining kreditlarini jalb etgan holda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimi ob'ektlarini qurish hamda rekonstruksiya qilish parametrlari;
- 2017 — 2021-yillarda ichimlik suvi ta'minoti tashkilotlarining mashina va mexanizmlari parkini mustahkamlash parametrlari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu qarorining mazmun-mohiyatiga e'tibor bersak quyidagilarni bilib olamiz.

Mustaqillik-yillarida O'zbekistonda aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlashni yaxshilash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Respublikamizda ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirishga oid muhim ustuvor yo'nalishlar, dastur va loyihalarning izchil amalga oshirilishi shahar va tumanlarda, jumladan, qishloq joylarda markazlashtirilgan ichimlik suvi ta'minoti va kanalizatsiya xizmatlarini sezilarli ravishda yaxshilash imkonini berdi.

Faqat 2011 — 2016-yillarda mamlakatimizda qariyb 13 ming kilometrdan iborat yirik suv quvurlari va tarmoqlari, bino va inshootlarda 1 ming 600 dan ortiq suv chiqarish quduqlari, shuningdek, 1 ming 400 ta suv minorasi va rezervuari qurildi hamda rekonstruksiya qilindi.

Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki kabi xalqaro moliya institutlarining grant va kreditlarini jalg etish hisobidan ichimlik suvidan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lmagan ko‘plab aholi punktlari talabga javob beradigan ichimlik suvi ta’minoti bilan qamrab olindi.

Shu bilan birga, ayrim aholi punktlarini, eng avvalo, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlaridagi aholi maskanlarini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlashga oid qator muammolar hanuzgacha hal etilmasdan qolmoqda.

Yurtimizda oilalar va mahallalar soni muntazam ko‘payib, yuzlab yangi turar joy mavzelari, aholi punktlari barpo etilayotgani va shaharlarning kengayib borayotgani ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya tizimini tubdan yaxshilash borasida amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Bu chora-tadbirlar energiya va resurslarni tejaydigان zamonaviy texnologiyalar asosida suv chiqarish va kanalizatsiya-tozalash inshootlari, suv o‘tkazgichlar, nasos stansiyalari, taqsimlash uzellari, vodoprovod va kanalizatsiya tarmoqlarini modernizatsiya qilishga qaratilishi lozim.

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 — 2021-yillarda ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturi to‘g‘risida»gi qarori ana shu muhim vazifalarni hisobga olgan holda qabul qilingan va u aholining keng qatlamlari, ayniqsa, qishloq aholisi uchun yanada qulay va munosib ijtimoiy-maishiy sharoitlar yaratish, 2017 — 2021-yillarda mamlakatimizda ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya xizmatlari ko‘rsatish samaradorligini oshirish, iste’molchilarning barcha hududlarda sifatli ichimlik suvidan foydalanishini ta’minlashga qaratilgan.

Mazkur qaror bilan, xususan, quyidagi dastur va loyihibar tasdiqlanmoqda:

- 10,2 ming kilometr ichimlik suvi quvurlari va tarmoqlari, 1677 ta suv chiqarish qudug‘i, 1744 ta suv minorasi va rezervuari qurish hamda rekonstruksiya qilish, shuningdek, 1440 dona nasos uskunasini o‘rnatish nazarda tutilayotgan tumanlar va aholi punktlari bo‘yicha 2017 — 2021-yillarda ichimlik suvi ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini kompleks rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish dasturining yig‘ma va manzilli parametrlari;

- 20 ta ichimlik suvi ta’minoti ob’ektini qurish va rekonstruksiya qilish, 302 kilometrdan iborat suv o‘tkazish va vodoprovod tarmoqlarini

barpo etish bo‘yicha yirik loyihalarni amalga oshirish nazarda tutilgan 2017 — 2021-yillarda mintaqalararo ahamiyatga molik ichimlik suvi ta’mnoti tizimlari va o‘ta muhim ob’ektlarni barpo etish hamda rekonstruksiya qilish bo‘yicha manzilli dastur;

- xalqaro moliya institutlarining kreditlarini jalb etgan holda, respublikamiz hududlarida 36 ta investitsiya loyihasini amalga oshirishni nazarda tutadigan 2017 — 2021-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda ichimlik suvi tarmoqlari va kanalizatsiya tizimlarini qurish va rekonstruksiya qilish manzilli dasturi.

Dasturni 2017-2021-yillarda moliyalashtirish uchun 4,8 trillion so‘m, jumladan, davlat budgetidan 2,2 trillion so‘m, xalqaro moliya institutlarining 2,6 trillion so‘m yoki 730,7 million dollar miqdoridagi mablag‘lari yo‘naltiriladi.

Bu boradagi ishlarni muvofiqlashtirish va Dasturning amalga oshirilishini nazorat qilish uchun Idoralararo ishchi komissiyasi tasdiqlandi. Shuningdek, qarorda “Toza ichimlik suvi” jamg‘armasini tashkil etish nazarda tutilgan bo‘lib, uning mablag‘lari mamlakatimizda ichimlik suvi ta’mnoti va kanalizatsiya tizimini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilishga, respublikamiz aholisi, ayniqsa, qishloq aholisini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minalashga yo‘naltiriladi.

Bundan tashqari, qarorda ichimlik suvi ta’mnoti tizimi ob’ektlaridan yanada ishonchli foydalanish maqsadida har bir aholi punktidagi ichimlik suvi ta’mnoti ob’ektlarini pasportlashtirish va ichimlik suvi ta’mnoti tizimi ob’ektlarining elektron ma’lumotlar bazasini yaratish nazarda tutilgan.

Ushbu qarorning amalga oshirilishi shahar va tumanlar, qishloq va mahallalarda ichimlik suvi ta’mnoti va kanalizatsiya tizimlarini tubdan yaxshilash, aholini markazlashgan ichimlik suvi ta’mnoti bilan qamrab olishni respublikamiz miqyosida 84 foizga, bir qator hududlarda esa 90 foizga yetkazish hamda aholi keng qatlamlari, ayniqsa, qishloq aholisi uchun yanada qulay va munosib ijtimoiy-maishiy shart-sharoitlar yaratish imkonini beradi.

Qisqacha aytganda, ushbu muhim hayotiy vazifalarning amalga oshirilishi mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivoji, shahar va qishloqlarimizning yanada obod bo‘lishi, xalqimizning hayot darajasi va sifati yuksalishiga xizmat qiladi.

## **5-BOB**

# **BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTI VA OROL DENGIZI**

### **5.1. Orol dengizi fojiasi**

*Orol inqirozining atrof-muhit va bu yerda yashayotgan millionlab aholi hayotiga halokatli ta'sirini, xususan, puxta o'ylangan, aniq manzilli va tegishli moliyalashtirish manbalari bilan ta'minlangan loyihalarni amalga oshirish orqali kamaytirish bugungi kunning eng muhim vazifasidir.*

**Islom KARIMOV**

Prezidentimiz tashabbusi bilan 2014-yilning 28-29 oktabr kunlari Urganch shahrida “Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etilib, u yuqori saviyada o'tkazildi. Davlatimiz rahbari mazkur nufuzli tadbir ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida Orol fojiasi chuqr tahvil etilgani, uning mintaqasi aholisi va tabiatiga salbiy ta'sirlarini kamaytirish, bioxilma-xillikni saqlash bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgani xorijiy ekspertlar, ekolog olimlar, soha mutaxassislarida, ayniqsa, katta qiziqish uyg'otdi. Shu bois ayni paytda ushbu muhim hujjat keng jamoatchilik tomonidan chuqr o'rganilmoqda. “Onajonim — tabiat” sahifasida xalqaro konferensiya tafsilotlari, uning doirasida asos solingan loyihalar ahamiyati va ulardan kutilayotgan samaralar haqida so'z yuritiladi. Xolis baho, oqilona yechim O'zbekiston Prezidenti, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi raisi Islom Karimovning konferensiya ishtirokchilariga yo'llagan tabrigida Orol muammosi bilan bog'liq barcha jihat to'liq ochib berildi.

Boshqacha aytganda, “Qanday qilinsa, nimalarga alohida e'tibor qaratilsa, hududdagi ekologik inqiroz oqibatlarini yumshatish mumkin?” degan savolga mufassal javob oldik. Mintaqada cho'llanishga qarshi kurashish, suv resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish, ijtimoiy infratuzilma, tibbiyot va ta'lim muassasalari tarmog'ini keng rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish, hayvonot va o'simlik olamini asrab-avaylash

kabi masalalar shular sirasidan bo‘lib, bu, ochig‘i, Orolbo‘yi mintaqasidagi mavjud vaziyatga berilgan xolis baho va uni yechishning oqilona yo‘lidir.

## **Qurg‘oqchil hududlar va iqlimi barqarorlik**

Davlat budgetining katta qismi ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga yo‘naltirilayotgani nihoyatda muhim jihatdir.

Chunki bu respublikaning barcha hududi, jumladan, Orolbo‘yi mintaqasida aholi salomatligini muhofaza qilish, uzluksiz ta’limni rivojlantirish, ekologik barqarorlikni ta’minalashda muhim ahamiyat kasb etyapti. Prezident Islom Karimovning xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida belgilab berilgan ustuvor yo‘nalishlarning hayotga samarali tatbiq qilinishi bu boradagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishi, shubhasiz.

Shu o‘rinda BMT va uning Taraqqiyot dasturi bilan mamlakatingiz o‘rtasidagi aloqalar tobora kengayib borayotganini alohida ta’kidlashni istardim. Xususan, yaqinda o‘zaro hamkorlikda “O’zbekistonda qurg‘oqchilikka moyil hududlarda iqlimi barqaror fermer va dehqon xo‘jaliklarini rivojlantirish” qo‘shma loyihasini amalga oshirish boshlandi. Uning ro‘yobi suv resurslaridan oqilona foydalanish, ilg‘or texnologiyalarni amaliyatga tatbiq etish, eng asosiysi, Orol dengizi havzasida ekologik halokat oqibatlarini yumshatishga yaqindan ko‘mak beradi deydi, BMT Taraqqiyot dasturi rahbari o‘rinbosari Oysha Jahon Sultonoglu.

Keng ko‘lamli loyihalar ijrosi nafaqat mintaqaviy, balki global muammo bo‘lmish Orol fojiasi oqibatlarini yumshatishga xizmat qiladi.

Yirik ekoforumda, shuningdek, 1993-yilning yanvar oyida O’zbekiston, Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston hamkorligida tuzilgan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi (OQXJ) faoliyati haqida alohida to‘xtalib o‘tildi.

E’tirof etish kerakki, mamlakatimiz mazkur jamg‘armaning ta’sischilaridan biri sifatida uning ishini har tomonlama rivojlantirishga katta e’tibor berib kelayapti. Jumladan, O’zbekiston OQXJga raislik qilgan 1997 — 1999-yillarda uning tashqiliy-huquqiy bazasini takomillashtirish, Orol dengizi havzasida barqaror taraqqiyotni ta’minalash maqsadida xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

1995 — 2010-yillar davomida esa BMT Bosh assambleyasi va sessiyalari kuzatuvchisi hisoblangan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi

tomonidan dengiz havzasi mamlakatlariga ko‘mak berishga doir ikkita dastur ro‘yogga chiqarildi. Ekologik holatni barqarorlashtirish, tabiiy muhitni tiklash, transchegaraviy suvlarni boshqarishni yaxshilash, iqtisodiy-ijtimoiy muammolar yechimiga yordam berishga yo‘naltirilgan loyihalarni hayotga tatbiq etish uchun 15-yil ichida 2 milliard dollardan ortiq mablag‘ ajratildi.

2011-yildan boshlab esa uchinchi dastur ijrosiga kirishildi. Bu hujjatni tayyorlashda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan BMT hamkorligida 2008-yilda Toshkent shahrida o‘tkazilgan “Orol muammolari, ularning aholi genofondi, o‘simlik va hayvonot olamiga ta’siri hamda oqibatlarini yengillashtirish uchun xalqaro hamkorlik chora-tadbirlari” mavzusidagi xalqaro konferensiya doirasida ishlab chiqilgan Harakat rejasi muhim asos bo‘ldi. Uning doirasida 300 dan ziyod loyihani amalga oshirish, buning uchun 8,5 milliard dollar sarflash ko‘zda tutilgan. Dasturda, ayniqsa, mintaqadagi barcha davlatlar manfaatlari o‘z ifodasini topib, suv resurslaridan oqilona foydalanish samaradorligini oshirish, tuproqning meliorativ holatini yaxshilash, sahrolanishga qarshi kurashish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy sektorni yanada rivojlantirish, institutsional-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishdek ustuvor yo‘nalishlar o‘z aksini topgani diqqatga sazovordir.

Ta’kidlash joizki, Orolbo‘yidagi loyihalarni amaliyotga izchil joriy etish O’zbekistonning doimiy diqqat-e’tiborida turibdi. Shu maqsadda so‘nggi o‘n-yil ichida 1 milliard 200 million AQSh dollaridan ziyod mablag‘ ajratilgani fikrimiz tasdig‘idir. Buning samarasi o‘laroq esa, suv resurslarini boshqarish va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta’minalash, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga yo‘naltirilgan ko‘plab islohotlar ijrosiga erishildi.

Yaqinda Buyuk Britaniyaning “Earth Times” onlayn-jurnalida “Orol qurishining salbiy oqibatlari yechimlarini qidirish” sarlavhali maqola e’lon qilindi. Unda dengizning hozirgi tang holati, uning mintqa atrof-muhiti va aholi salomatligiga ko‘rsatayotgan salbiy ta’siri, shuningdek, O’zbekiston va jahon hamjamiyati tomonidan Orol inqirozi oqibatlarini bartaraf etish yuzasidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar haqida hikoya qilinadi.

Maqolada qayd etilganidek, 1960-yillargacha Orol Kaspiy dengizi, Viktoriya va Yuqori ko‘l qatorida dunyoning to‘rttaeng yirik ichki suv havzalaridan biri bo‘lgan. Dunyo okeaniga chiqish yo‘li mavjud bo‘limgan suv havzasida baliqlarning noyob turlari yashagan va ular jahon ilmiy jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otgan. Orolning chuqurligi ayrim joylardaqariyb 68 metrgacha yetgan va bu atrof-muhit, iqlim, odamlar

hamda hayvonot dunyosiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Qish mavsumida dengizning ta'siri natijasida havo oqimi iliqroq bo'lgan, yozda esa suv bug'lanishi havoni sezilarli darajada salqinlashtirgan. "Bugun O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari Birlashgan Millatlar Tashkilotini mazkur fojining iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik oqibatlaridan voqif etishgani holda bong urishayotir. Hozirgi vaqtida Amudaryo va Sirdaryodan Orol havzasiga quyiladigan suv oqimi 12,7 km<sup>3</sup> ga teng bo'lib, bu o'tgan asrning 60-yillaridagiga nisbatan 4,5 barobar kamdir.

Orol dengizining qurib bitgan qismi o'rnida hosil bo'lgan 5,5 million gektardan ziyod maydonda paydo bo'lgan yangi Orolqum sahosidan chang va zaharli tuzlar ko'tarilib, qum bo'ronlari, kuchli shamollar orqali minglab kilometr masofaga tarqalishi aholi salomatligiga hamda atrof-muhitga jiddiy tahdid solmoqda. Shuningdek, bu yerdan har-yili atmosferaga 75 million tonna chang ko'tarilishi hisoblab chiqilgan. Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, Orolqumdan ko'tarilayotgan changli bulutlar hajmi uzunasiga 400 kilometr, eniga esa 40 kilometrga yetadi", deb yoziladi nashrda.

Maqolada ushbu ekologik ofatning mintaqasi iqlimiga ko'rsatayotgan salbiy ta'siri natijasida yoz mavsumida havo harorati keskin ko'tarilib borayotgani ham qayd etiladi. Bir-yilda havo harorati Selsiy bo'yicha 40 darajadan oshadigan kunlarning soni ikki baravar ko'paydi. Bu jarayon yalpi isish munosabati bilan kelgusida ham davom etishi kutilmoqda.

"Earth Times" jurnalida ana shunday salbiy omillar sobiq qirg'oqchizig'i atrofida istiqomat qilayotgan aholining salomatligi bilan bog'liq jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotganini alohida ta'kidlagan.

Orol inqirozining mintaqasi florasi va faunasiga ta'sirigaizoh berar ekan, Buyuk Britaniya nashri bu yerning yovvoyi tabiatni katta yo'qotishlarga yuz tutganligini atroflicha qalamga olgan. "Baliqlarning barcha turlari, mavjud o'simliklarning yarmi, shu jumladan, qirg'ovul, boyo'g'li, to'ng'iz, bo'rsiq va jayra yashovchi to'qayzor hamda qirg'oqoldi o'rmonlar yo'q bo'lib ketgan", deya yoziladi nashrda.

Maqola intihosida 2014-yilning 28-29 oktabr kunlari Urganch shahrida bo'lib o'tgan "Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" mavzusidagixalqaro konferensiya haqidagi ma'lumotlar ham o'quvchilar e'tiboriga havola qilingan. Nashr tahririyatining fikricha, mazkur tadbirning o'tkazilgani Markaziy Osiyo mamlakatlariga,jumladan,

O'zbekistonga ko'rsatilayotgan xalqaro yordam hajminingortishiga xizmat qiladi.

Ilgari Orolbo'yi suv havzalarida-yiliga 35 ming tonnagacha baliq ovlangan.

Amudaryo va Sirdaryo suvining Orolga quyiladigan umumiylajmi keyingi ellik-yil ichida qariyb 5 barobar, Orol dengizining suvi esa 14 barobardan ko'proq kamaydi.

Orol dengizi suvining sho'rlanish darajasi 25 marta ortishi baliq va boshqa dengiz mavjudotlarining deyarli butkul yo'qolishiga olib keldi.

Orolbo'yi mintaqasida o'simliklar va yovvoyi hayvonlar turi keskin kamayib, jumladan, sut emizuvchilarning 12, qushlarning 26 va o'simliklarning 11 turi yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turibdi.

Orolning qurigan qismi o'rnida 5,5 million hektar maydondan ziyod yangi Orolqum sahrosi hosil bo'ldi.

Hududlarda nabotot olamining shakllanishi va rivojlanishida suv resurslari eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Orol dengizining qurishi oqibatida ko'plab o'simlik turlari kamayib, yo'q bo'lib ketish xavfi ostida qolgani bu masalaning dolzarbligini ko'rsatadi.

Chunonchi, davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "hayvonot va o'simlik olami bioxilma-xilligini, jumladan, kichiq suv havzalari yaratish orqali saqlash va qayta tiklash, mintaqaning noyob flora va faunasini asrab-avaylash darkor".

Shuni hisobga olgan holda, bizning jamoamiz vohada kamayib borayotgan o'simliklarni chuqur o'rganish, ularni saqlab qolish va rivojlantirishning maqbul usullarini ishlab chiqish yo'lida izlanmoqda. Bu borada muayyan natijalarga erishayotganimiz esa ishimizga bo'lgan ishtiyoqni yanada kuchaytirayapti.

Ma'lumki, Qoraqalpog'iston nabototida o'simliklarning mingdan ortiq turini uchratish mumkin. Biz ularning aksariyatini ko'paytirish hamda iqlimga moslashtirishga harakat qilayapmiz. Natijada bugungi kungacha 300 dan ziyod turdag'i o'simliklarni ko'paytirishga erishilgan bo'lsa, shundan 30 tasi xalq xo'jaligida foydalanishga tavsiya etildi.

Aytish joizki, bunday natijaga erishishimizda ilmiy tadqiqot maqomidagi bog'imiz Amudaryo bilan Qattiqoqar kanali oralig'ida joylashgani qo'l kelayapti, albatta. Uning umumiylajmi maydoni 40 hektardan iborat. Bundan o'n-yil muqaddam bu yerga 120 xil mevali daraxt, 75 turdag'i noyob gul nihollari o'tqazilgan edi. Bugun ular barq urib o'sib, yon-atrofga o'zgacha go'zallik bag'ishlayapti. Do'lana, chirg'onoq, qorazirk, qorag'at kabi shifobaxsh, ayniqsa, Qoraqalpog'iston iqlimiga ilk

bor moslashtirilgan indigofera, Meksika adeliyasi singari noyob o'simliklar shular jumlasidandir.

2014-yil Xorazm viloyati markazi Urganch shahrida Orol dengizi muammosiga bag'ishlangan xalqaro anjuman ishtirokchilar oldidagi videokonferensiya orqali chiqishida BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun xalqaro donorlarni ekologik muammo oqibatlarini bartaraf etishga chaqirdi.

"Bugun Orol dengizi qurib qolish yoqasiga kelib qolgan va bu yo'qotish nafaqat O'zbekistondagi, balki uning atrofidagi millionlab insonlarning hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Orol dengizi qurib qolishining asosiy sababi suv resurslaridan nomutanosib foydalanishdir", deb aytgan BMT Bosh kotibi.

Janob Pan chegaralararo rus resurslaridan foydalanishda xalqaro hamkorlik, eng avvalo mintaqaviy hamkorlik muhim ekanini urg'uladi.

BMT Bosh kotibi Pan Gi Mun 2010-yil aprelida Orol dengizining qurib qolgan hududini borib ko'rgan edi.

Urganchdagi konferensiya "Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish" deb nom berilgan.

Anjuman ishtirokchilariga murojaatida O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov, Markaziy Osiyo respublikalari 1993-yilda tashkil etgan Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi dengiz va Orolbo'yи muammolarini hal qilishga 2 milliarddan ziyod mablag' sarfladi, deb aytdi.

"Ming afsuski, bugungi kunda Orol dengizini to'liq qayta tiklash imkoniy yo'qligi tobora ayon bo'lib bormoqda", degan Prezident Karimov.

Sentyabr oyida AQShning NASA agentligi Orolning fazodan tasvirga olingan eng so'nggi fotosuratini e'lon qildi. NASAning Earth Observatory saytidagi fotosuratlarda Janubiy Orol dengizining sharqiy qismi to'liq qurib qolgani aks etgan. Mazkur holat tarixda ilk bor kuzatilayotgan dahshatli tasvirlar sifatida ta'riflangan. NASA tadqiqotchilariga ko'ra, 2009-2014-yillar o'rtasida suv sathi yog'ingarchilik miqdoriga qarab o'zgarib turgan. Joriy-yil ob-havoning quruq kelishi Janubiy Orolning sharqiy qismi butunlay qurib qolishiga sabab bo'lgan.

## 5.2.Orol dengizi muammosi

Xitoy Xalq Respublikasining markaziy nashrlarida 2014-yilda Urganch shahrida Orol dengizi havzasida mintaqaviy loyihalarni hayotga

tatbiq etish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro konferensiyaning yakunlariga doir qator maqolalar e’lon qilindi.

Ana shunday maqolalarning birida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov “Orol dengizi mintaqasidagi ekologik ofat oqibatlarini yumshatish bo‘yicha hamkorlikni rivojlantirish” xalqaro konferensiysi ishtirokchilariga tabrik yo‘llagani o‘quvchilarga ma’lum qilinar ekan, uning mazmun-mohiyatiga alohida e’tibor qaratiladi.

Xususan, maqolada mazkur forumning Markaziy Osiyo mintaqasi uchun eng murakkab muammolardan biri — Orol dengizining ekologik halokati va ushbu ofat oqibatida yuzaga kelgan aholi genofondi hamda salomatligi, turmush sharoiti va darajasi, Orolbo‘yining o‘simplik va hayvonot olami bilan bog‘liq o‘tkir muammolarni ko‘rib chiqishga bag‘ishlangani alohida ta’kidlangan.

Shuningdek, maqolada qayd etilganidek, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi 2013-yildan buyon BMT, Yevropa Ittifoqi, yetakchi xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari ko‘magida Orol dengizi havzasidagi mamlakatlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha uch yuzdan ziyod loyihalardan iborat uchinchi dasturni amalga oshirmoqda va bu loyihalarni hayotga tatbiq etish uchun 8,5 milliard dollardan ziyod mablag‘ni jalb qilishi zarur. “BMT Bosh kotibi xalqaro donorlarni Orolni qutqarishga da’vat etdi” sarlavhali yana bir maqolada Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh kotibi Pan Gi Mun xalqaro donorlarni Orol dengizi ekologik ofatini bartaraf etishda yanada faol qatnashishga chaqirgani ma’lum qilinadi. “Bugun Orol dengizi butunlay yo‘q bo‘lib ketish yoqasida turibdi. Bu yo‘qotish O’zbekiston va uning tashqarisida istiqomat qiluvchi millionlab odamlarning hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, deyiladi Pan Gi Mun murojaatida. BMTning ko‘plab muassasalarimintaqa aholisining turmush kechirish sharoitlarini yaxshilashda ko‘mak ko‘rsatish yuzasidan barcha sa’y-harakatlarni safarbar etib, ekologik inqiroz oqibatlarini bartaraf qilishga yordam bermoqda”.

“ShHT Orol dengizi muammosi hal etilishida hamkorlikka tayyordir” sarlavhali maqolada esa Shanxay hamkorlik tashkiloti Orol dengizi ekologik muammosining yechimini muhokama qilishga tayyor ekanligi qayd etiladi. Maqolada ShHT bosh kotibi o‘rinbosari Nurlan Akkosharovning ushbu mavzu bo‘yicha bergen bayonoti o‘quvchilar e’tiboriga havola qilingan. Jumladan, bosh kotib o‘rinbosarining “Biz Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi bilan hamkorlikka tayyormiz va u bilan memorandum imzolanishi maqsadga muvofiq bo‘ladi, deb hisoblaymiz. Chunki Orol birgina O’zbekistonning muammosi emas,

ShHT tarkibiga kiruvchi Markaziy Osiyodagi to‘rt mamlakat uchun Orol dengizi inqirozi umumiyl fofja hisoblanadi. Bu muammoni barcha sa’yararakatlar va mavjud imkoniyatlardan foydalangan holda, birgalikda hal etish lozim”, degan fikrlari qalamga olingan.

### **5.3.Orol dengizi taqdiri Bryusselda ko‘rildi**

Yevropa Parlamenti Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti bilan hamkorlikda Bryusselda Orol taqdiri masalasini muhokama etgan.

Bu yig‘inda Birlashgan Millatlar Tashkilotining bir qator yuqori martabali vakillari, Yevropa Hay’atining maxsus komissari va Ovro‘po Ittifoqining Markaziy Osiyo bo‘yicha maxsus vakili Per Morel ham ishtirok etishgan.

O’zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida joylashgan Orol dengizining bugungi holati dunyodagi eng yomon ekologik halokatlardan biri sifatida baholangan.

Orol dengizi bugunga kelib asl hajmining 75 foizini yo‘qotgan.

Bunga paxta yetishtirishni ko‘paytirish uchun Orol dengiziga quyiluvchi Amudaryo va Sirdaryo suvlarining sun’iy kanallar orqali burib yuborilishi va dengizning uzoq-yillar davomida pestitsidlardan zaharlanishi sabab bo‘lgani aytildi.

Yig‘ilishda ishtirok etgan O’zbekiston hay’atining aytishicha, Orol dengizini saqlab qolish uchun o‘tgan 10-yil davomida 1 milliard dollardan ortiq mablag‘ sarflangan.

Orol dengizi muammosi Markaziy Osiyodagi suv va energiya zaxiralaridan oqilona foydalanishga bevosita bog‘liqdir.

O’zbekiston tomoniga ko‘ra, xuddi shu sababdan ham, Birlashgan Millatlar Tashkiloti homiyligi ostida Qambar-Ota va Rog‘un doxil chegaraosha daryolarda qurilgan va qurilayotgan barcha loyihalar yuzasidan xalqaro tekshiruv o‘tkazilmog‘i shart ekani aytilgan.

Xalqaro yig‘ilish tashabbuskori bo‘lgan va YeXHT (Yevropa xavfsizligi va hamjamiyati tashkiloti) iga raislik qilayotgan Qozog‘iston o‘z vakolatining yakuniga qadar Orol masalasini kun tartibidan olib tashlamoqchi emas.

Qozog‘iston shu-yilning dekabr oyida Orol dengizi muammolariga bag‘ishlab, donor davlatlarning xalqaro anjumanini o‘tkazishni ham rejalaشتirgan.

Qozog‘iston Orol dengizining o‘z hududidagi kichikroq qismini Jahon Bankining ko‘magi bilan kelasi yarim asr ichida asl holiga qaytarish harakatida.

Suvning kam kelishiga sabab Turkmanistonning Qoraqum kanalidir. Katta Orol qurishining sababi Qoraqum kanaliga borib taqaladi.

Kichik Orolning hajmi katta Orolga qaraganda ancha kichik. Agar katta Orolda yaqinda 60 kub chaqirim suv bo‘lgan bo‘lsa, kichik Orolda esa Qирг‘изистондаги То‘xtagul suv ombori bilan deyarli bir xil — 25 kub chaqirim suv bor. Sirdaryoning Orolga borayotgan bir-yillik oqimi taxminan 13 kub chaqirimni tashkil qiladi. Amudaryo esa, Dneprga o‘xshash yirik daryolar kabi 50 kub chaqirim suvga ega.

Biroq Amudaryo shunchalik katta bo‘lsa-da, uning suvi nima uchun Orolga yetib bormayotganining sababi bitta, u ham bo‘lsa, Turkmanistonning Qoraqum kanali. Ushbu kanal qurilganda Orol qurishni boshladi. Ana shu kanal Orolni quritdi. Chunki u suvning asosiy qismini oladi. 40 kub chaqirimdan ko‘proq suvni tortib oladi. Amudaryoning 4 dan 3 qismini oladi. Qadimiy Xorazm vohasidagi dehqonlar uchun esa 4 dan bir qismi qolayapti.

Orolni saqlab qolishning faqat bir yo‘li bor. Markaziy Osiyoning suvi o‘rtacha 150 million odamga yetadi. Hozirda bu mintaqada aholi ancha kam yashaydi, ammo suv yetishmayapti. Chunki suvni tejash texnologiyalari ishlatilmayapti. Sug‘orish tizimlari qadimiyligicha qolmoqda, juda ham ko‘p suv yerga singib ketmoqda. Ya’ni biz suvni shunchaki yo‘qotayapmiz. Tomchilab sug‘orish kabi hamma yerga suvni tejaydigan texnologiyalar kiritilishi kerak. O’shanda suv hammaga, odamlarga ham, o‘simpliklar va Orolga ham yetadi. Ammo buning uchun dehqonning psixologiyasini o‘zgartirish va ushbu yangi texnologiyalarga mablag‘ ajratish zarur.

#### **5.4.Munosabatlarning yangi bosqichi**

O’zbekiston mustaqilligining dastlabki-yillaridan xalqaro hamjamiatning teng huquqli suveren vakili sifatida BMTga a’zo bo‘ldi va bu xalqaro tashkilot va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik, barqaror taraqqiyot muammolari, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik tahdidlar kabi masalalar yuzasidan o‘zaro hamkorlik olib bormoqda.

O’zbekiston Respublikasining BMT bilan munosabatlarida 2016-yilning ikkinchi yarmidan boshlab yangi tendensiyalar ko‘zga tashlanib,

o‘zaro munosabatlarda yangi bosqich boshlandi. Jumladan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevralda qabul qilingan «O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni asosida mamlakat tashqi siyosati, jahonning rivojlangan mamlakatlari va xalqaro tashkilotlari bilan hamkorligini yangi bosqichga ko‘tarishning «yo‘l xaritasi» belgilab olindi. «Harakatlar strategiyasi» O’zbekiston tashqi siyosiy faoliyatida yangi omillar, resurslar va o‘zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish, siyosiy va iqtisodiy diplomatik munosabatlarni chuqurlashtirish uchun asos yaratdi. **Xalqaro ekspertlarning ta’kidlashicha, Harakatlar strategiyasida belgilangan chora-tadbirlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari global dasturi bilan uyg‘undir.** Harakatlar strategiyasi – bu BMT Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish bo‘yicha O’zbekistonning yo‘l xaritasidir. Shunga asosan, O’zbekiston tashqi siyosiy faoliyatida, jahonning rivojlangan mamlakatlari va xalqaro tashkilotlari xususan, BMT bilan munosabatlarida yangi sahifa ochildi.

2017-yil O’zbekiston va BMT munosabatlarida samarali-yil bo‘ldi. **2017-yil 10 iyunda BMT Bosh kotibi** Antoniu Guterrish rasmiy tashrif bilan Nukus, Samarqand shaharlarida bo‘ldi va O’zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev bilan uchrashdi. Mazkur uchrashuvda O’zbekiston bilan BMT va uning tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlikning bugungi holati, uni rivojlantirish istiqbollari, mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar, jumladan, Orol fojiasining ekologik oqibatlarini yumshatishga doir masalalar muhokama etildi. Global xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolarni hal etish masalalari ko‘rib chiqildi.

2017-yil 19 sentyabrdan O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev AQShda bo‘lib, BMTning 72–sessiyasida nutq so‘zлади. Mazkur nutq O’zbekistonning BMT doirasidagi xalqaro tashabbuslarida yangi tendensiyalarni namoyon qildi. O’zbekiston Prezidenti o‘z nutqida mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotidagi o‘zgarishlar hamda aniq va asosli manbalarga ega bir nechta tashabbuslarni ilgari surdi. O’zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyevning nutqi mavjud muammolarga mahalliy, mintaqaviy va global darajada ahamiyat qaratib, ularning yechimiga pragmatik yondashilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Jumladan, O’zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-yil noyabr oyida BMT bilan hamkorlikda Samarqand shahrida “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib

o‘tdi. Konferensiyaada O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev nutq so‘zlab, «Birlashgan Millatlar Tashkiloti mintaqaviy xavfsizlik muammosini, avvalo, preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda hal qilishda muhim o‘rin tutishi lozim», deb ta’kidladi.

O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan 2018-yil 22 iyun kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi majlisida «Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta’minalash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash» hamda 2018-yil 12 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasining yalpi sessiyasida «Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyutsiyalari qabul qilindi.

O‘zbekiston va BMT hamkorligining eng muhim va ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu – mintaqaviy xavfsizlik, tinchlik va barqarorlik masalasidir. Bu borada BMT bilan hamkorlikda 2018-yilning 27 mart kuni bo‘lib o‘tgan «Tinchlik jarayoni, xavfsizlik sohasida hamkorlik va mintaqaviy sheriklik» mavzusida Afg‘oniston masalasiga bag‘ishlangan yuqori darajadagi Toshkent xalqaro konferensiysi bu borada muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu anjumanga BMT katta qiziqish bildirdi. Xususan, BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish konferensiya ishtirokchilariga videomurojaat yo‘llab, mazkur anjuman Afg‘onistonda tinchlikka erishish yo‘lida alohida ahamiyatga ega ekanini ta’kidladi. BMT Bosh kotibi O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Afg‘onistonda barqaror rivojlanish sari olib borayotgan sa’y-harakatlarini yuqori baholashini va uni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini bildirdi. Konferensiya yakunida mintaqada tinchlik va xavfsizlikni ta’minalash, o‘zaro hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, yaqin qo‘shnilik munosabatlarini yanada mustahkamlash kabi maqsadlarni ifodalagan Toshkent Deklaratsiyasi qabul qilindi.

## **5.5 Shavkat Mirziyoyev: Tarixiy sessiya, tarixiy nutq va amaliy tashabbuslar**

BMTning 75-sessiyasi xalqaro munosabatlar tizimida o‘ziga xos tarixiy sessiya sifatida tarixga kirdi. Birinchidan, ushbu sessiya BMTning oldingi anjumanlaridan butunlay boshqa formatda bo‘lib o‘tmoqda. Jahonda ro‘y berayotgan pandemiya sababi BMTning ushbu sessiyasini birinchi marotaba onlayn shaklda tashkil etildi. Barcha spikerlar, davlat rahbarlari, yirik siyosatchilar o‘z mamlakatlaridan nutq so‘zlamoqda, jahon hamjamiyati esa ularni onlayn kuzatib bormoqda. Ikkinchidan, ushbu sessiya turli davlatlar rahbarlari va hattoki qarama-qarshi tomonlar

fikrlarni ham ma'lum bir ma'noda yakdil qildi. Ya'ni deyarli barcha davlat rahbarlari COVID-19 fonida ushbu global xavfga qarshi kurash borasida o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Ta'kidlash kerakki, O'zbekiston va BMT hamkorligidagi faollik yangi siyosiy voqelik sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT 75-sessiyasidagi ma'ruzasi tarixiy nutq sifatida nafaqat O'zbekiston balki, jahon tarixida ham iz qoldiradi. Chunki, ushbu nutq ilk marotaba xalqaro doirada, ushbu global xalqaro tashkilot miqyosida o'zbek tilida amalga oshirildi. Shu o'rinda qayd etish joizki, O'zbekiston vakillari 1950-yildan boshlab BMT Bosh Assambleyasida nutq so'zlaganlar. Biroq Prezident Shavkat Mirziyoyevning nutqi ilk marotaba o'zbek tilida BMTning yuksak minbaridan yangradi. Bu nafaqat O'zbekiston balki, xorijdagi ko'psonli vatandoshlarimiz hamda jahon jamoatchilagini nihoyatda quvontirdi.

O'zbekiston Prezidentining nutqi pragmativligi, haqqoniyligi va real hayotiyligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi. Jumladan, Sh.Mirziyoyevning nutqi uch muhim komponentlardan: mahalliy, mintaqaviy va xalqaro darajadagi masalalarga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratish va amaliy tashabbuslarni ilgari surishdan iborat bo'ldi. O'zbekiston Prezidenti o'z nutqida ta'kidlab o'tgan, parlament islohotlari, gender tenglik siyosati, Inson huquqlari ta'minlanishi, bu borada majburiy va bolalar mehnatining to'liq tugatilishi, Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiyaning qabul qilinishi, diniy erkinlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglikni yanada mustahkamlash, Sudlarning chinakam mustaqilligi va qonun ustuvorligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi murosasiz kurash, kambag'allikni kamaytirish, yoshlar siyosati borasidagi mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar BMT va xalqaro miqyosda qizg'in kutib olindi.

Markaziy Osiyo – O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida bugun xalqaro va mintaqaviy munosabatlar tizimida mustahkam o'rnashib bormoqda. Mushtarak madaniyat, umumiylar tarix va kelajak bu mintaqa xalqlarni birlashtirib turuvchi omillardir. Shu ma'noda, Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, xavfsizlik barqaror taraqqiyot masalalari prezidentimiz nutqida asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ldi. Xususan, Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida ilgari surilgan tashabbusga asosan muntazam o'tkazilayotgan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari umumiylar yutug'imiz bo'ldi. Oxirgi to'rt-yilda O'zbekistonning qo'shni davlatlar bilan o'zaro savdo hajmi salkam besh barobarga o'sdi». Mintaqaning iqtisodiy taraqqiyoti va barqaror rivojlanishi

masalalarida o‘zaro savdo-iqtisodiy va transport kommunikatsiyalari, logistika va tranzit sohalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda mintaqa mamlakatlari ikki va ko‘p tomonlama munosabatlar asosida ushbu sohalarni rivojlantirib borishga harakat qilmoqdalar. Xususan, MDH, ShHT, «Bir makon, bir yo‘l» kabi xalqaro tashkilotlar va tashabbuslar asosida transport aloqalari olib borilmoqda. Biroq mamlakatlар o‘rtasida o‘zaro fikrlarning xilma-xilligi, yagona huquqiy normalarning va yagona ta’riflarning mavjud emasligi va shu boshqa muammolar sohaning jadal rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatib kelmoqda edi. Shu ma’noda, O’zbekiston Prezidenti tomonidan ilgari surilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti shafeligidagi **Transport-kommunikatsiya aloqalarini rivojlantirish mintaqaviy markazini ochish taklifi bu borada muhim va o‘z vaqtida ilgari surilgan taklif sifatida baholanmoqda.**

**Afg‘oniston muammosi Markaziy Osiyo mintaqasining ayanchli va og‘ir muammolaridan biridir.** O’zbekiston Afg‘onistonni Markaziy Osiyoning ajralmas qismi sifatida tashqi siyosatda alohida e’tirof etadi. Shuningdek, O’zbekiston Afg‘onistonda tinchlik muzokaralari, ushbu mamlakatni iqtisodiy qayta tiklash, elektrlashtirish, temir yo‘l qurilishi kabi yirik loyihalarda faol ishtirok etmoqda. Biroq Afg‘onistondagi murakkab vaziyatni hisobga olgan holda O’zbekiston ushbu mamlakatda tinchlik o‘rnatish ishlarini yanada faollashtirishni chuqur anglab turibdi. Shundan kelib chiqqan holda O’zbekiston Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan BMTning 75-sessiyasida bu borada **Birlashgan Millatlar Tashkiloti huzurida afg‘on xalqining dardu tashvishini tinglaydigan, doimiy faoliyat ko‘rsatadigan qo‘mita tashkil etish taklifi ilgari surildi.** O’zbekiston rahbari tomonidan ilgari surilgan ushbu taklif **Afg‘onistonda tinchlikni o‘rnatish va iqtisodiy barqarorlikni qayta tilashning yangi mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda.** Chunki, ushbu qo‘mita Afg‘onistonning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘mak berib, bu yerdagi mavjud qarama-qarshi tomonlarning emas, balki, afg‘on xalqining manfaatlariga xizmat qiladi.

Buguni dunyoning eng muhim va dolzarb masalalaridan biri bu – ekologik muammolardir. Xususan, Orol muammosi allaqachon mintaqaviy darajadan, global darajaga chiqib ulgurdi. O’zbekiston Orol muammosi oqibatlarini bartaraf qilish va mavjud xavf-xatarlarning oldini olish borasida muhim va amaliy tadbirlarni amalga oshirmoqda. Xususan, mavjud ahvolni yaxshilash uchun bu yerda ikki million hektar yangi o‘simlik maydonlari va daraxtzorlar yaratish, tuproq qatlagini shakllantirish ishlari bilan birga O’zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan

Orolbo‘yi mintaqasi uchun Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik Trast fondi tuzildi. Ta’kidlash kerakki, bu O’zbekiston diplomatiyasining muhim yutuqlaridan biri bo‘ldi. Biroq Orol va Orolbo‘yidagi murakkab ekologik vaziyat, aholi genofondini muhofaza qilish, salomatligini yaxshilash hamda ushbu hududda barqaror rivojlanishni ta’minlash dolzarb va muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuni inobatga olgan holda O’zbekiston Prezidenti tomonidan **Orolbo‘yi mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi, deb e’lon qilish haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining maxsus rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi** bildirildi. Ta’kidlash kerakki, hozirgi global dunyoda dolzarb va murakkab masalalar yechimiga ilm-fan orqali yechim topish masalaning eng oqilona yo’llaridan biridir. Shu ma’noda, Orolbo‘yi mintaqasida eng zamonaviy innovatsiya va texnologiyalarni joriy qilish va uni BMT doirasida maxsus rezolyutsiya orqali amalga oshirish, mintqa mamlakatlari va boshqa davlatlar fikrlari hamda qarashlarni umumlashtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

BMTning 2015-20130-yillarda amalga oshirilishi rejalshtirilgan «Barqaror rivojlanish maqsadlari» global dasturida kambag‘allikni kamaytirishga birinchi masalasi sifatida e’tibor qaratilgan. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, BMT tomonidan 2000-2015-yillarda amalga oshirilgan «Ming-yillik rivojlanish maqsadlari» dasturida ham ushbu muammoga katta e’tibor qaratilgan. Bu borada ko‘plab xalqaro tadbirlar amalga oshirilgan. **BMT Bosh Assambleyaning 1997-2006, 2008-2017 va 2018-2020-yillardagi tegishli rezolyutsiyalari bilan qashshoqlikka barham berish bo‘yicha BMT o‘n-yilliklari e’lon qilingan.** Biroq bu muammo hamon dolzarb va murakkabligicha qolmoqda. Tashkilot ma’lumotlariga ko‘ra, bugungi kunda 700 million kishi yoki dunyo aholisining 10 foizi o‘ta qashshoqlardir. Pandemiya sharoitida ularning soni yanada oshirish xavfi mavjud. Bu esa, xalqaro hamjamiyat va jahon mamlakatlarini ushbu muammoga birgalikda kurashishga chorlaydi. Shundan kelib chiqqan holda, O’zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMTning 75-sessiyasida qashshoqlikni tugatish va kambag‘allikka qarshi kurashishni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag‘ishlangan global sammitni o‘tkazishni taklifi o‘z vaqtida ilgari surilgan taklif sifatida katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Chunki ushbu muammoga bir yoki bir necha mamlakatlar ishtirokida

emas, balki butun xalqaro hamjamiyat miqyosida kurashish lozim. Shundagina amaliy natijalarga erishish mumkin. Shu ma'noda, O'zbekiston rahbarining ushbu taklifi butunjahon ommasining yuragi va qalbidagi fikrlari mujassam hamda ifodasi bo'ldi. Mustaqil O'zbekiston tarixida ham ushbu masala ilk bor 2017-yildan boshlab ochiq e'lon qilinib, uni kamaytirish borasida amaliy tadbirlar o'tkazila boshlandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26 martdagি Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan BMTning 75-sessiyasida Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining maqomi va salohiyatini oshirish, vakolatlarini kengaytirish, BMT shafeligida **Pandemiyalar davrida davlatlarning ixtiyoriy majburiyatları to‘g‘risidagi xalqaro kodeksni** ishlab chiqish, BMTning muvofiqlashtiruvchi xalqaro tuzilma sifatidagi markaziy o‘rnini yanada kuchaytirish kabi xalqaro ahamiyatga molik takliflar ham ilgari bildirildi. Ular bugungi global dunyoning yangi rivojlangan va tinchliksevar qiyofasini namoyon etishga qaratilgan takliflar sifatida e’tiborga molik. Chunki, pandemiya sharoitida ko‘plab davlatlar Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tavsiyalar asosida ushbu virusga qarshi kurash olib bormoqda. Ushbu tashkilot tinimsiz ravishda yangi tadqiqotlar ustida ish olib bormoqda. Demak, tashkilotining maqomi va salohiyatini oshirish, vakolatlarini kengaytirish insoniyatning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Bu O'zbekiston xalqaro munosabatlarining turli aspeklarda, ko‘p vektorli tashqi siyosatida ko‘zga tashlanadi. O'zbekiston yangi xalqaro va mintaqaviy tashabbuslariga BMTni faol jalb qilmoqda. O'zbekistonning BMT bilan aloqalari natijasida jahon hamjamiyati bilan o‘zaro hamkorlik borasida o‘ziga xos tajriba to‘pladi. Respublika yirik tashkilot sifatida global va mintaqaviy muammolar yechimiga BMTdan xalqaro siyosiy minbar sifatida foydalandi. O’z navbatida O'zbekiston tashabbuslariga BMT yuksak baho bermoqda.

## **5.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkmanistonning Turkmanboshi shahrida bo‘lib o‘tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta’sischi davlatlar rahbarlari majlisidagi nutqi**

Prezidentning ta’kidlashicha, O'zbekiston Turkmanistonning Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasiga raislik faoliyatini yuksak baholaydi.

“Turkmanistonlik do‘stlarimiz tomonidan ushbu serqirra tuzilma faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish, uning xalqaro nufuzini oshirish bo‘yicha katta amaliy ishlar olib borilmoqda. Ishonchim komilki, Jamg‘arma asoschilari bo‘lgan davlatlar rahbarlarining qariyb o‘n-yillik tanaffusdan keyin o‘tayotgan bugungi tarixiy majlisi mazkur tashkilot faoliyatida yangi sahifa ochadi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi o‘zaro hamkorlikni yangi bosqichga ko‘taradi. Bugun barchamiz turkman zaminida o‘zaro manfaatli hamkorlikka tayyor ekanimizni yana bir bor qat’iyat bilan tasdiqlaymiz”, — deyiladi davlat rahbari nutqida.

Qayd etilishicha, Orol dengizining qurishi muammosi mintaqaviy faoliyat kun tartibida alohida o‘rin tutadi – bu umumiy fojiadir.

Orolbo‘yi hududini u yerda paydo bo‘lgan sahro egallab olmoqda. Oqibatda suv resurslari taqchilligi, ichimlik suvi sifatining yomonlashuvi, tuproqning degradatsiyaga uchrashi, bioxilma-xillikning keskin kamayishi, jiddiy iqlim o‘zgarishlari yaqqol sezilib turilibdi.

“Biz umumiy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda, ushbu fojia oqibatlarini bartaraf etish va Orolbo‘yidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash, mintaqaning suv va ekologiya bilan bog‘liq muammolariga yechim topish bo‘yicha barcha sa‘y-harakatlarimizni birlashtirishimiz lozim”, — deydi prezident.

Hozirgi paytda Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi Markaziy Osiyoda vaqt sinovidan o‘tgan yagona mintaqaviy tashkilot bo‘lib, mamlakatlar o‘rtasida bu boradagi hamkorlikning amaliy mexanizmi bo‘la oladi. O‘zbekiston Jamg‘arma faoliyatida Qирг‘изистон Республикаси ishtiropi tiklanganini qo‘llab-quvvatlaydi.

“Aminmanki, biz mazkur tashkilot doirasida mintaqadagi barcha mamlakatlar manfaatlari mutanosibligini ta‘minlashga erishamiz, bizning umumiy kelajagimiz – o‘z qo‘limizda. Faqat barcha mintaqqa davlatlarining Jamg‘arma faoliyatida, jumladan, Orol dengizi havzasidagi mamlakatlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha to‘rtinchchi Dasturni ishlab chiqish va o‘zaro kelishish jarayonida to‘laqonli ishtirop etishi orqali biz bu boradagi umumiy muammolarni hal etishimiz va tahdidlarni bartaraf etishimiz mumkin. Shu munosabat bilan biz Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasining me’yoriy-huquqiy asoslari va tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish yuzasidan hamkorlarimiz bildirgan takliflarni ko‘rib chiqishga tayyormiz”, — deyiladi nutqda.

So‘nggi bir necha-yil davomida O‘zbekiston Orolbo‘yi hududida bir qator keng ko‘lamli loyihalarni amalga oshirdi. Orolning qurib qolgan hududida saksovul va boshqa sho‘rxoklikka chidamlı o‘simliklardan iborat

350 ming gektarlik butazorlar barpo etildi. Bunday hududlarning umumiy maydoni hozirgi kunda 700 ming gektarni tashkil etmoqda.

Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish va Orolbo‘yi hududini rivojlantirish bo‘yicha 2013-2017-yillarga mo‘ljallangan kompleks chora-tadbirlar dasturi doirasida 500 tadan ortiq loyiha amalga oshirildi. Ularning yarmidan ko‘pi milliy loyihalardir.

2018-2021-yillarda Orolbo‘yi hududini rivojlantirish bo‘yicha Davlat dasturi qabul qilindi.

Shu bilan birga, O’zbekiston Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p tomonlama sheriklik asosida trast fondini tashkil etish borasidagi tashabbusni ilgari surdi va bu BMT tomonidan qo‘llab-quvvatlandi.

“Bizning fikrimizcha, BMT shafeligida ish olib boradigan Trast fond faoliyati va turkman do‘sralarimiz taklifi asosida bugun tasdiqlanadigan Orol dengizi havzasi uchun BMT maxsus Dasturining amalga oshirilishi bir-birini to‘ldiradi.

Shu-yilning iyun oyida Toshkent shahrida Orol fojiasi oqibatlarini yumshatishga bag‘ishlab o‘tkazilgan xalqaro konferensiyaning asosiy xulosa va tavsiyalarini hisobga olgan holda, bizning nazarimizda, o‘zaro hamkorlik borasida ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgan quyidagi yo‘nalishlarni alohida ta’kidlamoqchiman.

Birinchi. Ishonchim komilki, mintaqamizda noqulay ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash uchun qat’iy va nostandard chora-tadbirlar zarur.

Shu munosabat bilan Orolbo‘yi hududini Ekologik innovatsiya va texnologiyalar zonasini, deb e’lon qilish masalasini ko‘rib chiqishni taklif etaman.

Bu tashabbus bizning umumiy kuchimizni quyidagi maqsadlar bo‘yicha birlashtirishga yo‘naltirilgan:

ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun sharoit yaratish;

«yashil iqtisodiyot», ekologik toza, energiya va suv tejaydigan texnologiyalar tamoyillarini kompleks tatbiq etish;

cho‘llanish va ekologik migratsiyaning davom etishiga barham berish;

ekoturizmni rivojlantirish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Bizning tashabbuslarimizni har tomonlama muhokama qilish maqsadida kelgusi-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon banki,

Osiyo taraqqiyot banki va Global ekologik fond ko‘magida maxsus konferensiya tashkil etilishini taklif qilamiz.

Mazkur xalqaro tashkilotlar bilan Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasini tashkil etishning amaliy masalalari bo‘yicha muzokaralar olib borish masalasini Jamg‘arma boshqaruviga topshirish mumkin, deb hisoblaymiz. Bu jarayonda quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

dunyodagi ekologik noqulay mintaqalarda bunday loyihalarni amalga oshirish borasidagi tajribalarni inobatga olgan holda, innovatsion loyihalarning yagona ro‘yxatini shakllantirish va ularni birgalikda tayyorlash;

bunday maqsadlar uchun uzoq muddatli imtiyozli kredit va grantlar ajratish.

Bundan tashqari, Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi huzurida yuqorida qayd etilgan xalqaro institatlarning vakolatxonalarini ochishni taklif etamiz.

Ikkinci. Qum ko‘chkilarini mustahkamlash, Orolning qurigan qismidan havoga zaharli aerozol changlari ko‘tarilishini kamaytirish masalalari bizning e’tiborimiz markazida bo‘lishi zarur.

Shu maqsadda cho‘l sharoitiga chidamli va ozuqa o‘simpliklari ko‘chatlarini yetishtirish bo‘yicha Mintaqaviy markaz tashkil qilishni taklif etamiz.

Bizning olimlarimiz bergen ma’lumotlarga ko‘ra, 10-12-yil davomida dengizning qurigan qismini daraxtzor va butazorlarga aylantirishimiz mumkin.

Bundan tashqari, yangi unumdon yaylovlar yaratishga qurbimiz yetadi, bu chorvachilikni izchil rivojlantirish va o‘n minglab odamlarni ish bilan ta’minalash imkonini beradi.

Mintaqaviy markaz esa ehtiyoj katta bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha o‘ziga xos noyob ilmiy-ta’lim bazasiga aylanadi.

Uchinchi. Mintaqamizning noyob hayvonot dunyosini saqlash masalasi. Bu masalada ham umummintaqaviy yondashuv zarur.

Orolbo‘yi zonasida muhofaza qilinadigan transchegaraviy tabiiy hududlar tashkil etishni taklif qilamiz.

Yo‘qolib borayotgan hayvonlar, jumladan, qoplon, qulon, sayg‘oq va boshqa noyob jonivorlarni saqlab qolish uchun qo‘limizdan keladigan barcha ishlarni o‘zaro kelishib amalga oshirishimiz nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

To‘rtinchi. Suvni tejash, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va ulardan oqilona foydalanish masalalaridagi mintaqaviy hamkorlik darajasini keskin oshirish lozim.

Biz Orol dengizi hududidagi suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha o‘zaro maqbul hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga va O’zbekistonda ushbu masalaga bag‘ishlangan mintaqaviy konferensiya o’tkazishga tayyormiz.

O’ylaymizki, Markaziy Osiyoda suv resurslaridan oqilona foydalanish bo‘yicha mintaqaviy dastur qabul qilinishi mazkur konferensiyaning eng muhim natijasi bo‘ladi.

Beshinchi. Bugungi kunda ilmiy kooperatsiyani samarali rivojlantirmasdan oldimizda turgan muammolar yechimini ta’minlashning iloji yo‘q.

Shu munosabat bilan birgalikdagi fanlararo tadqiqotlarni tashkil etish muhim ahamiyatga ega, deb hisoblaymiz. Jumladan, Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo‘jaligi komissiyasi va Davlatlararo barqaror rivojlanish komissiyasining ilmiy-axborot markazlari negizida bunday tadqiqotlar olib borish mumkin”, — deyiladi prezident nutqida.

## **5.7. Abdulay Mar Diye Orol dengizi fojiasi haqida**

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Kotibining yordamchisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi rahbarining maxsus maslahatchisi Abdulay Mar Diye Orol dengizi fojiasiga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada ishtirok etish uchun O’zbekistonga keldi va Orol mavzusini muhokama qildi.

24-25 oktabr kunlari Nukusda bo‘lib o‘tadigan xalqaro konferensiya «Orol dengizi hududi — ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi» Konsepsiysi loyihasini, shuningdek, BMT Bosh Assambleyasining Orolni «Ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar zonasi» deb e’lon qilish to‘g‘risidagi maxsus rezolyutsiya loyihasini muhokama qilishga qaratilgan.

Asli senegallik Abdulay Mar Diye 2018-yil boshida Bosh Kotib yordamchisi etib tayinlangan. U ilgari BMT Taraqqiyot Dasturi tizimida turli xil yuqori lavozimlarni, shu jumladan rahbar yordamchisi va BMTTDning Afrika mintaqaviy byurosi direktori lavozimlarida ishlagan.

**«Orolni yo‘qotdik, lekin hali umid bor»**

Janob Diyening fikricha, Orol muammosi faqat O'zbekiston va Qozog'istongagina emas, balki butun dunyoga taalluqlidir.

U Orol muammosini Afrika qit'asida o'xshash taqdirga yuz tutgan ikki ko'l bilan bog'liq vaziyatga qiyoslaydi.

- [Dunyoda misli ko'rilmagan tajriba: O'zbekiston Orol dengizi tubini o'rmonga aylantirmoqda](#)
- [O'zbekistondagi qum bo'ronidan uch oy o'tib, Orol mavzusi kun tartibida](#)
- [Mirziyoyev: O'zbekiston suvsiz qolmasligi uchun \\$4.5 milliard dollar kerak](#)
- [O'zbekistonda AES: "Mamlakatda yadroviy chiqindilar qolishi Orol fojiasidan katta falokat bo'ladi"](#)

"Orolda davom etayotgan vaziyat menga ikki ko'lni eslatadi. Birinchisi Viktoriya ko'li. 1960-yillarda, Orol maydoni bo'yicha dunyodagi to'rtinchi yirik ko'l bo'lgan vaqtlar, uning kattaligi Viktoriya ko'li bilan teng edi: 68 ming kvadrat kilometr. Biroq u o'ndan bir qismga qadar qisqarib ketdi.

Men yana Orolni Chad ko'liga qiyoslagan bo'lar edim. Chad ko'lining havzasi ham xuddi Orol kabi o'ndan bir qismga qadar qisqarib ketgan. Men Chad ko'li bilan yuzaga kelgan talafotlarni yaxshi bilaman. U atrof-muhitga salbiy ta'sir qilgan, ommaviy ko'chishlar va ixtiloflarga sabab bo'lgan. Bunday fojialar nafaqat davlatning o'zi va uning qo'shnilariga, balki butun dunyoga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham BMT Bosh Assambleyasi o'tgan-yili bunday fojialar bilan yuzlashgan davlatlarni dastaklash yo'lida rezolyutsiya qabul qilgan", so'zlaydi janob Diye.

Orolbo'yidagi vaziyat 1960-yillardan 2000-yillar boshiga qadar og'ir bo'lganini ta'kidlagan BMT rasmiy vakili so'nggi 10-yil ichida ahvol yaxshi tomonga o'zgarib borayotganini bildiradi.

«So'nggi vaqtarda aholi maskanlari, odamlar turmush darajasi nuqtai nazari bilan qaraganda, vaziyat yaxshilanmoqda. Baliqchilik qayta tiklanmoqda. Biroq bu yetarli emas. Odamlarning umidi so'nmasligi yo'lida hali ko'p ishlar qilishimiz lozim. Dengizni qo'ldan boy berganimiz haqiqat, ammo odamlarning umidi hali so'nmagan. Shu sababli ham biz — xalqaro hamjamiyat — qo'shni davlatlar hamda mahalliy hokimliklar hamkorligi va yetakchiligi ostida odamlardagi umidni jonlantirmog'imiz lozim. Nukusda o'tuvchi konferensiyamiz mohiyati ham ana shunda», deydi u.

Shuningdek, janob Diye BMT Taraqqiyot Dasturi Orol mintaqasiga investitsiya, texnologiya va innovatsiyalarni jalg qilish orqali u yerda biznes muhitini shakllantirish va shunday ishlar bilan Oroldagi mavjud vaziyatga ijobjiy tus berishni istayotganini ma'lum qiladi.

«Aholi maskanlarini bunyod etish, odamlar hayotini yaxshilashga moliyaviy vositalarni yo'naltirish, iqlim o'zgarishi asoratlarini yumshatishga BMT Taraqqiyot Dasturi katta sarmoyalalar kiritmoqda. Bu investitsiyalarning barchasi fozia oqibatlarini yumshatadi. Afsus, 1960-yillarda mavjud bo'lgan Orolni ortga qaytara olmaymiz, ammo biz hali ham odamlardagi umidni qayta uyg'ota olamiz», ta'kidlaydi janob Diye.

### **Qo'ldan boy berilgan dengiz**

Qozog'iston va O'zbekiston chegarasida joylashgan Orol dengizi hududi bo'yicha 1960-yilga qadar dunyoda to'rtinchisini hisoblangan.

Dengiz o'sha-yillardagi Sovet Ittifoqi olib borgan suvni taqsimlash siyosati qurboni bo'lgan.

Orol-yillar davomida shiddatli sur'atda o'z qirg'oqlaridan chekina borgan.

Oxirgi 40-yil ichida dengiz maydoni ikki baravariga qisqargan.

Suv sathi 18 metrga pasayib ketgan. Dengizdagi suv hajmi esa, besh martaga qisqargan.

Tuz miqdori oshib ketgani bois, baliqlar qirilib ketgan.

1993-yil boshida to'rt Markaziy Osiyo davlati ishtirokida Orolni qutqarish xalqaro fondi tuzilgan.

2008-yilda bu fondga BMT Bosh Assambleyasida kuzatuvchi maqomi berilgan. Fond tomonidan 2015-yilgacha uchta yirik loyiha qo'l urilgani ma'lum.

Jahon banki, xalqaro moliyaviy tashkilotlar va donor davlatlar tomonidan moliyalangani aytilgan bu loyihalarning umumiyligi qiymati milliardlab dollarlarga baholangan.

Ammo 2014-yilda NASA tomonidan olingan so'nggi fotosuratlar Janubiy Orolning sharqiy qismi butkul qurib ketganini ko'rsatgan.

### **Choralar va rejalar**

O'zbekiston tomoniga ko'ra, so'nggi-yillarda Orolbo'yini hududida qator keng miqyosli loyihalarni amalga oshirishgan.

Havoga chang-tuz ko‘tarilishining oldini olish maqsadida Orol dengizi qurigan 350 ming hektar maydonga saksovul va sho‘rga chidamli o‘simliklar ekilib, butazorlar barpo etilgan.

Bunday hududlarning umumiy maydoni qariyb 700 ming hektarga yetgan.

Orol halokati oqibatlarini yumshatish va Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish bo‘yicha o‘tgan to‘rt-yil ichida 500 dan ortiq loyiha amalga oshirilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev qudratga kelganidan-yil o‘tiboq, Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirishga qaratilgan besh-yillik Davlat dasturi qabul qilingan.

O’zbekiston Moliya vazirligi huzurida Orolbo‘yi mintaqasini rivojlantirish jamg‘armasi tuzilgan.

Unga 200 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ yo‘naltirilgani aytilgan.

Qozog‘iston esa, orada Orol dengizining o‘ziga qarashli shimoliy qismini O’zbekiston tarafidagi janubiy havzadan ajratib to‘g‘on qurgan.

Buning ortidan dengiz ikki qismga — Kichik va Katta Orolga ajralib qolgan.

Hozir ham Qozog‘iston tarafidan Kichik Orolni kengaytirish ishlari to‘xtamagan.

Ayni urinishlar bois shimoliy qismdagi suv sathi 40 metrdan ortiqroqqa ko‘tarilgan.

## 5.8. Orol dengizining qurigan tubi o‘rmonzorga aylantiriladi



Bundan bir yarim-yil avval, 2018-yilning avgust oyida, Prezident Shavkat Mirziyoyev Turkmanistonning Turkmanboshi shahrida bo‘lib o‘tgan Orolni qutqarish xalqaro jamg‘armasi ta’sischi davlatlar rahbarlari majlisida Orol fojiasi oqibatlarini bartaraf etishda Markaziy Osiyo davlatlarining o‘zaro hamkorligi bo‘yicha beshta taklifni ilgari surib, Orolbo‘yi hududini Ekologik innovatsiya va texnologiyalar zonasi, deb e’lon qilish masalasini ko‘rib chiqish haqida to‘xtalgan edi.

Mutaxassislarning fikricha, bu tashabbus ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun sharoit yaratish; “yashil iqtisodiyot”, ekologik toza, energiya va suv tejaydigan texnologiyalar tamoyillarini kompleks tatbiq etish; cho‘llanish va ekologik migratsiyaga barham berish; ekoturizmni rivojlantirish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirishga yordam beradi.

“Qum ko‘chkilarini mustahkamlash, Orolning qurigan qismidan havoga zaharli aerozol changlari ko‘tarilishini kamaytirish masalalari bizning e’tiborimiz markazida bo‘lishi zarur. Shu maqsadda cho‘l sharoitiga chidamli va ozuqa o‘simgliklari ko‘chatlarini yetishtirish bo‘yicha Mintaqaviy markaz tashkil qilish maqsadga muvofiq. Olimlarimiz bergen ma’lumotlarga ko‘ra, 10-12-yil davomida dengizning qurigan qismini daraxtzor va butazorlarga aylantirishimiz mumkin. Bundan tashqari, yangi unumdon yaylovlar yaratishga qurbimiz yetadi, bu chorvachilikni izchil rivojlantirish va o‘n minglab odamlarni ish bilan ta’minalash imkonini beradi. Mintaqaviy markaz esa ehtiyoj katta bo‘lgan mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha o‘ziga xos noyob ilmiy-ta’lim bazasiga aylanadi”, dedi Prezident.

Mintaqamizning noyob hayvonot dunyosini saqlash uchun Orolbo‘yi zonasida muhofaza qilinadigan transchegaraviy tabiiy hududlar tashkil etish ham taklif qilindi. Yo‘qolib borayotgan hayvonlar, jumladan, qoplon, qulon, sayg‘oq va boshqa noyob jonivorlarni saqlab qolish uchun barcha ishlarni o‘zaro kelishib amalga oshirish nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Suvni tejash, transchegaraviy suv resurslarini boshqarish va ulardan oqilona foydalanish masalalaridagi mintaqaviy hamkorlik darajasini keskin oshirish lozimligi ta’kidlandi.

Shundan so‘ng mintaqada, xususan, O’zbekistonda Orol dengizini qutqarish kampaniyasiga start berildi. Jumladan, yaqinda prezidentning

yana bir muhim qarori e'lon qilindi. 2020-yil 12 fevral sanasida imzolangan [hujjatga](#) muvofiq, Orol dengizi qurishi oqibatlarini bartaraf etish hamda sayyohlar sonini ko‘paytirishga qaratilgan “My garden in the Aral Sea” (“Oroldagi bog‘im”) agro va ekoturizm loyihasi amalga oshiriladi.

Xalqaro innovatsiya markazining ehtiyojlaridan kelib chiqib, ko‘rgazmali tajriba-sinov maydonlarini tashkil etish maqsadida Qoraqalpog‘iston hududidagi zaxira yer maydonlari, Orol dengizining qurigan tubidagi hududdan hamda Orolbo‘yi hududidagi o‘rmon fondi yerlaridan yer maydonlari ajratiladi.

Nukus shahar Markaziy bozoridan Nukus tumanidagi Xalqaro innovatsiya markazi hududigacha bo‘lgan yo‘nalishda muntazam jamoat transporti qatnovi tashkil etiladi. Ayni paytda Xalqaro innovatsiya markazi tomonidan “Mo‘ynoq” va “Samanbay” tajriba-sinov maydonlari tashkil etilgan, shuningdek sho‘rlanish va qurg‘oqchilikka chidamli cho‘l va manzarali o‘simpliklar genofondi shakllantirilib, 13 turdagи o‘simplik dunyosi ob’ektlari sinovdan o‘tkazilmoqda.

Joriy-yilda Orol dengizining suvi qurigan 700 ming gektar maydoniga urug‘ qadash va ko‘chatlar ekishni rejalashtirganimiz. O‘rmon melioratsiyasi tadbirdari davomida 510 ming gektar maydonga aviatsiya yordamida urug‘ ekiladi. Ishlar ko‘lami juda keng, aytish mumkinki, xalqaro miqyosda yo‘lga qo‘yilgan.

Bu yerdagi ishlarni xalqaro tajribalarga tayangan holda yo‘lga qo‘yishga harakat qilinyapti. Bu borada 2000-2007-yillari O‘zbekiston-Germaniya-Qozog‘iston loyihasi doirasida xalqaro tajriba orttirilgan. Loyiha doirasida 27 ming gektar maydon ko‘kalamzorlashtirilishi lozim edi. Hozir bu maydon 50 ming gektarni tashkil qiladi. Bundan tashqari, Ispaniyadan maxsus urug‘lar keltirildi. Bu urug‘larni dengizning Sharqiy qismiga ekildi. Yaqin Sharq davlatlaridan ayrim xorijiy mutaxassislar ham kelishdi. Ammo, aytish kerak, ularda umuman boshqacha sharoit, O‘rtayer dengizining iqlimi boshqacha. Ular asosan yopiq issiqxonalar bilan ishslashga ixtisoslashgan. Ulardan nari borsa o‘g‘itlar bilan ishslashni o‘rganish mumkin. Ammo sho‘rlangan yerlar, saksovulzorlar kabi masalalar ularga begona. Shuning uchun bu mutaxassislardan nimanidir o‘rganish yoki tajriba almashish maqsadga muvofiq deb topilmagan. Qaytaga, bizning ularga o‘rgatishimiz mumkin bo‘lgan jihatlarimiz ko‘p.

Olimlarning hisob-kitobiga ko‘rabu jarayon 10-yil davom etadi va muvaffaqiyatli yakun topadi. Hozir asosan saksovul, qandim, qoraburoq kabi cho‘l o‘simpliklari urug‘ va ko‘chatlari ekilyapti. Bu ishlarni amalga oshirish jarayonida ko‘plab yoshlarning ish bilan bandligi ham ta’minlanadi.



O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Botanika instituti geobotanika va o‘simpliklar ekologiyasi laboratoriysi katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari nomzodi Bekzod Odilov Orol muammosini quyidagicha izohlaydi.

– Bu dengiz Markaziy Osiyo, xususan, O’zbekistonda qadimdan tabiiy muvozanatni saqllovchi vazifasini bajarib kelgan. Hozir ham Orol dengizining ahamiyati beqiyos. Bizning mintaqa qurg‘oqchilik hududi sanaladi. Ana shu hududning iqlimi shakllanishida dengiz juda rol o‘ynagan. O’tgan asrning 60-yillarida cho‘llarning o‘zlashtirilishi, sug‘oriladigan maydonlarning kengayishi Amudaryo bilan Sirdaryordan to‘yinadigan dengizimizning qurishiga sabab bo‘ldi. Bu hol esa flora va faunaga o‘z ta’sirini o‘tkazmay qolmadи, albatta. O’simpliklar va hayvonot dunyosi tarkibida keskin o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Agar Orolbo‘yi hududidagi bioxilma-xillikning o‘zgarishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, eng katta talofat Orolning g‘arbiy tomondagи Ust-Yurt platosida namoyon

bo‘lganini ko‘ramiz. Bu hudud O’zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston davlatlari chegarasida bo‘lib, 20 million gettarni egallagan. Uning 7 million gettari bizning mamlakatimiz hududida joylashgan va u “Qoraqalpoq Ust-Yurti” deb nomlanadi. Shimoldan dasht hamda Janubdan cho‘l zonalari tutashib ketgan bu joy o‘zining noyob florasi va faunasi bilan ajralib turadi. O’ziga xos hudud dasht o‘simpliklari va cho‘l hayvonot dunyosining noyob turlari shakllanishiga zamin yaratgan. Orolning qurishi qurg‘oqchilikka chidamsiz bo‘lgan o‘simpliklar olami vakillarining astasekinlik bilan yo‘qolib borishi, qurg‘oqchilikka chidamli vakillarning esa paydo bo‘lishi va shakllanishiga olib kelmoqda. Tabiiyki, bu vaziyat hayvonot dunyosi tarkibida ham bir qancha o‘zgarishlarni yuzaga keltira boshladi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, o‘tgan asrning 80-yillarida Sharqiy Chink hududida do‘lanazor, bedazor, na’matak va yorongulzorlar yastanib yotgan. Biz joylarga borib vaziyat bilan tanishganimizda mazkur hududda hozir bu o‘simpliklar yo‘qligi aniqlandi. Hozir yashab qolgan mavjud o‘simpliklar 30-50-yillardan so‘ng saqlanib qolinadimi yoki ular ham yo‘q bo‘lib ketishga mahkummi, degan savolga ijobiy javob topish uchun matematik modellashtirish orqali tadqiqotlar olib borish zarur.

Dengizning qurigan tubi maydonining kengayishi bu cho‘llanish oqibati hisoblanadi. Oxirgi 2-3-yilda Orolning sharqidagi kichik orol ham yo‘qolib ketdi va u yerda zaharli tuzlardan tarkib topgan katta maydon shakllandi. Tabiat qonunlariga ko‘ra, bu yerdagi o‘simpliklar olamining tiklanish jarayoni 1995-yillardan buyon bizning institutimiz olimlari tomonidan faol o‘rganila boshlandi. 2008-yilda xalqaro grantlarga asosan Mo‘ynoq atrofidagi o‘simpliklar holatini aks ettiruvchi xarita yaratilgan. Unda Orol chekinganidan so‘ng Mo‘ynoq hududida tuproq qatlamlari surilib, o‘simpliklar tiklanishi jarayoni bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasi o‘z aksini topgan.

Olimlarning hisob-kitobiga ko‘ra, Orol dengizi qurigan hududida o‘simpliklar to‘liq tiklanishi va uning tubi to‘liq qoplanishi uchun kamida 40-45-yil vaqt kerak bo‘ladi. Lekin shu 40-45-yil vaqt ichida dengizning qurigan tubidan ko‘tarilgan changlarning boshqa hududlarga borishi, u yerdagi aholi ijtimoiy-iqtisodiy holatining yomonlashishi va boshqa shu kabi jarayonlar sodir bo‘lishi mumkin. Ma’lumki, tabiat o‘zini o‘zi tiklash salohiyatiga ega, biroq bunga inson aralashuvi mazkur jarayonni tezlatishi mumkin.

Hozir olib borilayotgan siyosat – o‘simpliklarni tabiat tiklashini kutmasdan, inson qo‘li bilan o‘simpliklar olib kirish va tiklanish jarayonini

jadallashtirish. Natijada bu yerda o‘ziga xos ekotizim shakllanadi, quruq hududga hayvonot dunyosi vakillari qaytib keladi, yashillik tiklanadi. Prezident qarori bilan yashil qoplamlalar barpo etish uchun hozir O’rmon xo‘jaligi qo‘mitasi tomonidan saksovulzorlar ko‘paytirilyapti. Buning samaradorligi juda yuqori bo‘lishi kutilmoqda.

Orol dengizi qurigan maydonining yer holati bir xil emas: 5-yil avval qurigan hudud bilan 50-yil avval suv qochgan joyning holatida umuman katta farq mavjud. Hamma yerga bir turdag'i o‘simgulkarni ekishni tavsiya qilib bo‘lmaydi. Har bir hududga o‘ziga xos yondashuv talab etiladi. Yerning holatini, qum va sho‘rliklarni e’tiborga olib, faqat to‘g‘ri tanlab ekilgan ko‘chatlargina o‘zini tutib ketishi mumkin.

### **5.9. Orolni yo‘qotish dahshatlari va misli ko‘rilmagan saksovulzorlashtirish haqida**

Orol – 50-yil avval ham dunyoning quruqlikdagi eng yirik to‘rtinchi dengizi edi. Afsuski, dengizning qurib borishi va uning oqibatlari bugunga kelib dunyoning eng og‘riqli ekologik fojalaridan biriga aylangan.

Bo‘shab qolgan dengiz o‘rnidan ko‘tarilayotgan zaharli tuzlar, qum va chang-to‘zon insonlar salomatligi, o‘simglik va hayvonot dunyosiga jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

O‘zbekiston hukumati Orolbo‘yi fojiasi oqibatlarini bartaraf etish, hudud atrofida bioxilma-xillikni ta‘minlash uchun bir qancha ishlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, hozirda Orol dengizining qurigan qismida saksovulzorlar barpo etilmoqda. Shuningdek, Orol muammosiga yirik xalqaro tashkilotlar e’tiborini qaratgan holda, hududga ko‘proq investitsiya jalb qilishga intilmoqda.

Kun.uz Orol dengizi fojialari va uni bartaraf etish borasida qilinayotgan ishlar qay darajada samara berayotgani yuzasidan O‘zbekiston Ekologik partiyasi rahbari Boriy Alixonov bilan suhbat tashkil qildi.

Orolning termoregulyator funksiyasi umuman teskarisiga ishlayapti

Xo‘sh, Orol dengizini ko‘rmagan, u haqda faqat arxiv teledasturlar va boshqa ma’lumotlar orqali eshitgan hozirgi yoshlar avlodi uchun uni qanday tasvirlash mumkin, uni yo‘qotishning dahshatlari nimalarda ko‘rinadi?

Bundan 50-yil avval ham Orol dengizida o‘rta hisobda 1082 kub km. hajmda suv bor edi, maydoni esa 68 ming kv.km.ga teng edi. Shuningdek,

har-yili Orolga 55-58 kub km. suv quyilardi. Buning 2\3 qismi Amudaryo va 1 qismi Sirdaryodan quyilardi.

Oroldagi holat mo‘tadil paytlarda suv tarkibidagi tuz miqdori 11-12 gr litrni tashkil qilardi. Bu degani Orol hududidagi rivojlanishga eng mo‘tadil sharoit yaratilgandi.

Xo‘sish, hozir qanday ahvolga tushib qoldik? Hozir bu maydon 10, suv hajmi esa 15 barobarga kamayib ketgan. Orolning sathi 29 metrga tushib ketdi. Bu o‘rtasida hisobda 10 qavatli uyning balandligiga to‘g‘ri keladi.

Biz yuqorida orol suvida tuzning tarkibi haqida gapirdik, hozirda bu ko‘rsatkich 150 gr — 300 gr litrga yetdi. Bu degani orol suvining 1\3 foizini tuz tashkil qiladi.

Bu – haqiqiy o‘lik dengizining namunasi. Hatto undan ham yuqori.





Faqatgina Orol dengizi sharoitida yashashi mumkin bo‘lgan 20 xildan ziyod baliq turi yo‘qolib ketdi. Taqqoslash uchun, o‘tgan asrning 60-yillarida-yiliga 35 ming tonnagacha baliq ovlangan. Hozir birorta baliq qolgani yo‘q.

Hozirgi kunda Orolning qurigan tubidan-yiliga 100 mln tonnadan ziyod qum, chang-tuz yuzlab, minglab km. masofalarga uchib boradi.

Bunday ko‘chib borgan tuz, qum zarralari esa Norvegiya, Yaponiya kabi davlatlardan, Pomir, Oloy, Tyan-Shan tog‘ tizmalari hamda Arktikadan ham topildi.



KUN.UZ

Avvallari yoz oylarida Orol ustidan o‘tayotgan garmsel harorati dengiz suvi harorati ta’sirida pasayardi va bizga nisbatan iliq havo sifatida, qishda esa, aksincha, Sibirdan esayotgan sovuq oqim Orolning iliq suvi ta’sirida mo‘‘tadillashib kelardi. Hozirgi vaqtida Orolning ushbu termoregulyator funksiyasi umuman teskarisiga ishlayapti.

Shuning uchun ham bizda iqlim-yildan-yilga ko‘tarilib boryapti.

Bizdagi kabi saksovulzorlashtirishning dunyoda birorta analogi yo‘q

Orolni bundan 60-yil avvalgi holatiga qaytarish uchun Volga daryosi 5-yil, Dunay daryosi 7-yil tinimsiz oqishi kerak.

Endilikda oldimizda turgan birinchi masala – Orolbo‘yi hududida ekologik fojialarni mardonavor turib, birinchi o‘rinda qabul qilayotgan aholi salomatligini barqaror saqlash.

Saksovullarga kelsak. To‘g‘risini aytishim kerak, biz bu borada ko‘p vaqt ni yo‘qotib qo‘ydik. Avvallari ko‘p gapirilardi, lekin kam ish qilinardi. O’tgan 20-yil ichida qurigan 5 million ga. yer dan atigi 400 ming ga. yerga saksovul ekildi.

Hozirga kelib bu masalaga bo‘lgan e’tibor tubdan o‘zgardi. Masalan, o‘tgan 2018-yil dekabr oyidan joriy-yil aprel oyigacha 650 ming ga. yerda saksovul urug‘lari sepildi, 1 million bir yuz ming ga. yerda egatlar olinib, saksovul ekish uchun tayyor qilindi.

Saksovul shunday o'simlikki, agar uni yetti qator qilib eksangiz, u 5-7-yilda 90 foiz qumni ushlab qola oladigan darajada katta bo'ladi va u o'zidan ko'payish xususiyatiga ega.

Bu – saksovulning birinchi xususiyati. Uning ikkinchi xususiyati – saksovul o'sgan hududda ekotizim mo‘tadillashadi, oazis bo'ladi. Uchinchidan, o'sha hududlarda bioxilma-xillik ko'payishiga imkoniyat yaratiladi.

Bu kabi saksovulzorlashtirishning dunyoda umuman analogi yo‘q. Albatta, Avstraliya, Qozog‘istonda ekilgan, lekin biz qilayotgan ishlar bilan ularni umuman taqqoslab bo‘lmaydi.

Bundan tashqari hozirgi vaqtida Orolning qurigan tubidan nisbatan chuchuk suv ham chiqyapti. Bu kam, lekin biz o'sha joylarga yirik va mayda shoxli hayvonlarga ozuqa bo‘ladigan ekinlarni yetishtirish ustida ishlayapmiz.

## XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev sog'liqni saqlash tizimini yanada takomillashtirish, tibbiy xizmat sifati va samaradorligini oshirish, aholi salomatligini mustahkamlash, sifatli dori-darmon bilan ta'minlash borasidagi islohotlarning amalga oshirilishiga katta e'tibor qaratib kelmoqda.

Prezidentimiz joriy-yilning o'zida sog'liqni saqlash masalasiga bag'ishlab uch marta videoselektor yig'ilishi o'tkazdi. Tizim faoliyatini tubdan takomillashtirish, odamlarda haqli e'tiroz uyg'otayotgan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha aniq ko'rsatmalar berildi, shu yo'nalishda amalga oshirilayotgan dasturlar ijrosi atroflicha ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarga tashriflari chog'ida shifoxonalar, poliklinikalar, qishloq vrachlik punktlaridagi sharoitlar bilan bevosita tanishdi, zamonaviy klinikalar qurish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Sog'liqni saqlash sohasida oxirgi-yillarda olib borilayotgan o'zgarishlarning maqsadi tibbiyot sohasidagi islohotlarning yangi davrida aholining hayotdan roziligi, el-yurtimiz taraqqiyotiga xizmat qilishdan iboratdir.

Aytish joizki tibbiyotda islohotlarning yangi davrida sohani yanada rivojlantirish, tibbiy xizmatlar ko'lami va sifatini oshirishga qaratilgan 30 ga yaqin Farmon va qarorlar qabul qilindi.

Aholini sifatli va arzon dori-darmon vositalari bilan ta'minlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, shoshilinch tibbiy yordamni takomillashtirish, birlamchi tibbiyot tizimini yanada yaxshilash, xususiy sektor va ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni yanada rivojlantirish borasida ancha ijobiylar amalga oshganiga qaramay, hali qiladigan ishlarimiz ko'p.

Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini takomillashtirishga oid qaror ijrosi doirasida 793 qishloq vrachlik punkti negizida qishloq oilaviy poliklinikasi, 441 tez tibbiy yordam shoxobchasi tashkil etildi. Faoliyati tugatilgan 658 qishloq vrachlik punkti binolari xizmat uyi sifatida foydalanish uchun shifokorlarga berildi. Bundan tashqari, qishloq oilaviy poliklinikalarida 5 turdag'i va Toshkent shahar oilaviy poliklinikalarida 10 turdag'i tor soha mutaxassislari faoliyati yo'lga qo'yildi. Birlamchi tizimda

kadrlar ta'minotini yaxshilash maqsadida joriy-yilda tibbiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarining bakalavriatura bosqichini bitirgan 3 ming 197 yosh mutaxassisning 79 foizi birlamchi tizimga ishga yuborildi.

Aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat sifatining hududlarda yetarli darajada emasligi oldimizda turgan dolzarb muammolardan biri. Tan olish kerak, hududlardan yuqori texnologik tibbiy yordam olish uchun Toshkent shahriga kelish aholi tomonidan ko'plab e'tirozlarga sabab bo'lmoqda.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida viloyatlarda ishlash tashabbusi bilan chiqqan yetakchi mutaxassislardan 134 nomzod tanlab olindi. Ular viloyat ko'p tarmoqli tibbiyot markazlariga, jumladan, bolalar shifoxonalari, endokrinologiya, kardiologiya, silga qarshi, teri-tanosil dispanserlari, onkologiya markazi filiallari, yuqumli kasalliklar shifoxonalariga ishlash uchun yuborildi.

Aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'layotgan dolzarb masalalardan biri, bu — tez tibbiy yordam xizmati bilan bog'liq. Transport vositalari hali yetarli emas, dori-darmon ta'minotida uzilishlar mavjud.

2016-yilda 806 tez tibbiy yordam stansiyasi va kichik stansiyasi faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, 2017-yilda bu ko'rsatkich 2 ming 100 dan oshdi. Tabiiyki, bu har bir chaqiriqning o'z vaqtida kelishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu yo'nalishda ko'rsatilayotgan xizmatlar bilan birga, aholining mazkur xizmatdan foydalanish borasidagi madaniyatini oshirish zarur.

Jahon tibbiyoti oldida turgan dolzarb masalalardan biri ijtimoiy kasalliklardir. Mamlakatimizda sil, psixiatriya, teri-tanosil, onkologiya xastaliklari bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqildi va Prezident qarorlari qabul qilindi.

Respublika ixtisoslashtirilgan markazlarining viloyatlarda filiallari tashkil etilmoqda. Chet el klinikalarida faoliyat yuritayotgan 50 dan ortiq vatandoshimiz yurtimizga qaytarildi.

Davlatimiz rahbari qarori bilan tibbiyot sohasida bakalavriat ta'lim yo'nalishlarida o'qish muddati 7-yildan 6-yil va "tibbiy profilaktika" yo'nalishida 6-yildan 5-yil etib belgilangani mamlakatimiz tibbiy ta'lim tizimini jahon standartlariga moslashtirish, joylarda kadrlar ta'minoti yaxshilanishi va Davlat budgeti mablag'lari maqsadli sarflanishiga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning nogironlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishga oid farmoyishi doirasida 8,4 ming nafar nogiron protez--ortopediya mahsulotlari bilan, 9,3 mingdan ziyod ehtiyojmand fuqarolar reabilitatsiya texnik vositalari bilan bepul

ta'minlandi. Shuningdek, 23 mingdan ziyod 1941 — 1945-yillardagi urush faxriylari, yolg'iz keksalar, pensioner va nogironlar sanatoriylarda bepul dam oldirildi.

Sog'lijni saqlash tizimining xususiy sektorini rivojlantirishni takomillashtirishga oid qaror bilan xususiy tibbiyot muassasalari shug'ullanishi mumkin bo'lgan tibbiy ixtisoslik turlari 50 tadan 126 taga ko'paytirildi. Natijada Toshkent shahrida Janubiy Koreya, Hindiston, Turkiya, Jizzax shahrida Janubiy Koreya, Farg'ona, Qarshi shaharlarida va Qumqo'rg'on tumanida Hindiston kabi davlatlar bilan qo'shma klinikalar tashkil etilmoqda. 2017-yilning o'tgan 9 oy mobaynida xususiy tibbiyot muassasalari yana 400 dan ziyodga ko'payib, ularning soni 3 ming 860 dan oshgani xususiy tibbiyot muassasalariga berilayotgan keng imtiyoz va preferensiyalar samarasidir.

Joriy-yilda "O'zfarmsanoat" aksiyadorlik konserni tomonidan 76 yangi mahsulot ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Dori vositalari va tibbiyot buyumlari ishlab chiqarish 2011-yildagiga nisbatan 4 marta o'sdi.

Farmatsevtika sohasida yangi, yuqori texnologiyalarga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirish uchun O'zbekiston tiklanish va taraqqiyot jamg'armasidan 250 million dollar miqdorida kredit resurslari ajratildi. Umumiyligi qiymati qariyb 400 million dollarga teng bo'lgan 70 dan ortiq investitsiya loyihalarini amalga oshirish boshlanib, ularning 33 tasi joriy-yilda ishga tushiriladi.

Davlatimiz rahbarining "Nukus-farm", "Zomin-farm", "Kosonsoy-farm", "Sirdaryo-farm", "Boysun-farm", "Bo'stonliq-farm" va "Parkent-farm" erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi, avvalo, yurtimizda farmatsevtika sohasini rivojlantirish, dori-darmon vositalari hamda tibbiyot buyumlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash, mahalliy dori-darmon vositalari bozorini o'zimizda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli preparatlar bilan to'ldirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, dori-darmon va tibbiyot buyumlarini eksport qilish hajmini yanada oshiradi.

Bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan izchil ishlar o'z samarasini bera boshladи. Masalan, farmatsevtika mahsuloti eksporti 40 foiz oshirilishiga erishildi, yuqori texnologiyalar joriy qilinishi evaziga har bir ishchiga ishlab chiqarish samaradorligi 35 foiz o'sdi. Mahalliy farmatsevtika korxonalari tomonidan ishlab chiqarilayotgan dorilar turi 2 ming 300 dan oshdi.

Bugungi kunda sohada o'z yechimini kutayotgan qator dolzarb masalalar ko'rib chiqildi. Xususan, ayniqsa, qishloq joylarda tizimli

patronaj qamrovi sifatini yaxshilash, birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning statsionar muassasalar bilan hamkorligini ta'minlash zarur. Mutasaddilar sohada xususiy sektorni yanada rivojlantirish bo'yicha faolharakatlarolib borishi kerak.

Tez tibbiy yordam xizmatini yanada takomillashtirish, skrining markazlari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda ishlab chiqarilayotgan protez-ortopediya mahsulotlari, reabilitatsiya texnik vositalari sifatini yaxshilash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Sog'liqni saqlash ob'ektlarida qurilish-ta'mirlash ishlari bo'yicha loyihasmeta hujjatlari sifati, xususiy tibbiyot sohasiga chet el investitsiyasi va yuqori malakali mutaxassislarini jalb etish ishlari isloq qilinishi lozim.

Aholini patronaj va tizimli dispanserizatsiya bilan to'liq qamrab olish, ona va bola skriningi hamda tibbiy-genetik xizmatni yanada takomillashtirish va ushbu xizmatlarni aholiga yaqinlashtirish maqsadida 2018 — 2022-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturini ishlab chiqish ko'zda tutilmoxda.

Bugungi kunda tibbiyot xodimlarining malakasi va shaxsiy mas'uliyati masalasi o'ta jiddiy masalalardan biri hisoblanadi. Sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida sog'liqni saqlash tizimining davlat va xususiy sektoridagi barcha mutaxassislar faoliyatini litsenziyalash tizimini tatbiq etish nazarda tutilgan. Mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar jarayonida aholi salomatligini muhofaza qilish, sog'lom va uzoq umr kechirishi uchun qulay turmush sharoitini yaratishga qaratilayotgan doimiy e'tibor inson manfaatlarini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Xususan, sanitariya-epidemiologiya nazoratini samarali tashkil etish, xavfli yuqumli kasalliklarning chetdan kirib kelishi va tarqalishiningoldini olish, emlash orqali yuqumli kasalliklarga qarshi kurashishda sezilarli natijalarga erishilmoqda.

Bugungi kunda sanitariya-epidemiologiya xizmatining moddiy-texnika bazasi tobora mustahkamlanib, joylarda faoliyat yuritayotgan sanitariya nazorati punktlari tomonidan yurtimizga chetdan yuqumli kasalliklar kirib kelishi va aholi orasida tarqalishini oldini olish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash ishlari tizimi bajarilayotir.

Bolalarni yuqumli kasalliklarga qarshi bepul emlash bo'yicha milliy taqvim yangi vaksinalar bilan boyitilayapti.

Sohaga yo'naltirilayotgan Davlat budgeti mablag'lari-yildan-yilga oshirilmoqda. Ichimlik suvi sifati va ochiq suv havzalari ustidanmonitoring olib borish, bozorlar, ovqatlanish shoxobchalari, jamoat joylarida

sanitariya holatini yaxshilash, chiqindilarninginson salomatligiga salbiy ta'sirining oldini olish, atrof muhit musaffoligini saqlash chora-tadbirlari ham doimiy e'tiborda turibdi.

Globallashuv jarayoni tobora chuqurlashayotgan, taraqqiyot kundankunga ilgarilayotgan hozirgi davrda bu boradagi ishlarni yanada takomillashtirish ayni zaruratdir. Mamlakatimizda so'nggi-yillarda sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni saqlash, yashash muhiti xavfsizligini va inson sog'lig'ini muhofaza qilishni ta'minlash, sanitariya-epidemioliya nazorati xizmati tizimini takomillashtirish, ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlashga yo'naltirilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Shu bilan birga, bitta davlat organi doirasida bir vaqtning o'zida davlat sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash funksiyalarining ushbu sohada ruxsat berish va nazorat funksiyalari bilan birga amalga oshirilishi O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemioliya xizmati faoliyati samaradorligini ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi tizimli muammolar yuzaga kelishiga olib keldi.

Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasi sanitariya-epidemioliya xizmati faoliyatini boshqarish va muvofiqlashtirishning samarali mexanizmlarini joriy etish, uning institutsional salohiyatini oshirish, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etilishi sohasida ta'sirchan monitoring va nazoratni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqli. Shuni nazarga olib, hamda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida va O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan maxsusfarmon qabul qilingan. Mazkur farmonning bajarilishi natijasida davlat sanitariya-epidemioliya xizmati jahon andozalari bo'yicha yuqori darajada tashkil etilishiga shak-shubha yo'q.

# **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

## **Direktiv xujjatlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzlusiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4666-son Qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3 apreldagi "Koronavirus pandemiyasi davrida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari va tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26 martdag'i "O'zbekiston Respublikasida koronavirus infeksiyasi keng tarqalishining oldini olishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4649 sonli qarori
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 19 martdag'i "Koronavirus pandemiyasi va global inqiroz holatlarining iqtisodiyot tarmoqlariga salbiy ta'sirini yumshatish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5969-sonli Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida sanitariya-epidemiologiya xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5814-sonli farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5590-sonli farmoni.
7. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2015-yil 12 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qaytatayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
8. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2007-yil 2 oktyabrdagi PQ-700 sonli "Respublika tibbiyot muassasalari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2007-yil 19 sentyabrdagi PF-3923 sonli "Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni

yanada chuqurlashtirish va uni rivojlantirish Davlat dasturini amalga oshirishning asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1998-yil 10 noyabrdagi PF-2107 sonli “O‘zbekiston Respublikasida sog‘liqni saqlash tizimini isloh qilish davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1998-yil 2 martdagi PF-1933 sonli “Sanitariya qonunlarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to‘g‘risida”gi Farmoni.

### **Asosiyadabiyotlar**

1. Xodjayev N.I, Aminov Z.Z. Tibbiyotda islohotlarning yangi davri. SamarqandDTI. Samarqand. 2020y.- 261b.
2. Xodjayev N.I va b.lar. «Salomatlik Kodeksi» — sog‘lom hayot garovi. Ko‘makdosh-Dialog. Samarqand. 2015 y. -17b.
3. Obloqulov A.R. Virusli gepatitlar. Buxoro, 2015.
4. Mamatkulov B.M. Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshqarish. Ilm-ziyo. Toshkent. 2013 y.-573 b.
5. Lvov D.K., Rukovodstvo po virusoligii: Virusnye infeksii cheloveka i jivotnykh. M- Izdatelstvo «MIA», 2013, -1200 s: il.-s. 599-624.
6. Asadov D.A. Osnovnye napravleniya reformirovaniya sistemy zdravooxraneniya O‘zbekistana. Tashkent. 2012 g.
7. 14.Lisetsin Yu.P. Obiщestvennoye zdorove i zdravooxraneniye. Moskva. 2012g.
8. Irgashev Sh.B. Meditsinskaya Valeologiya. Tashkent. 2012 g. 335 str.
9. Daminov T.A. s soavtorami. Infeksiyonnye bolezni s detskimi infeksiyami. Tashkent, 2010, 1 tom.
10. Respublika
11. Niyamatov B.I., i dr. Istorya organizatsii i razvitiya sanitarno-epidemiologicheskoy slujby v respublike O‘zbekistan. „O‘zbekistan”, 2008g.-301str.
12. Xodjayev N.I. Samarqand Viloyat DSEN Mi. „Istiqlol nashriyoti”. Toshkent.2006 y.-110 b.
- 13.Arziqulov R.U. Sog‘lom turmush tarzi. Toshkent.2005 y. I t.- 227 b., II t.-250 b.
14. Internet malumotlari.

**Xodjayev N.I, Bulayev Z.K,**

Davlat sanitariya-epidemiologiya xizmati mustaqillik-yillarida.  
Monografiya. Samarqand: 2022. --bet.

EVM operatorlari: B. Xodjayev, B. Xodjayev, J.Xodjayev